

“O’ZBEK ADABIY TILI
TARIXI” FANIDAN
MA’RUZALAR

1 - mavzu	KIRISH. DAVRLASHTIRISH
------------------	-------------------------------

1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejası:	1. «O'zbek adabiy tili tarixi» til tarixi fanlaridan biri sifatida. 2. Adabiy til va uning shakllari. 3 O'zbek tilining boshqa turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni. 4. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: ushbu fanning til tarixi fanlari tarkibiga kirishi, obyekti, maqsadi va vazifalari, og'zaki va yozma adabiy til shakllari, o'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalalari to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- «O'zbek adabiy tili tarixi» fanining til tarixi fanlari tizimida tutgan o'rni ko'rsatish; - o'zbek adabiy tili tarixi fanining o'rganish obyekti, maqsadi va vazifasini tushuntirish; - og'zaki va yozma adabiy til shakllari haqida ma'lumot berish; - o'zbek adabiy tilining boshqa turkiy tillar doirasida tutgan o'rni ochib berish; - o'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalalarida olimlarning qarashlarini izohlash;	- «O'zbek adabiy tili tarixi» fanining til tarixi fanlari tizimida tutgan o'rni aniqlash; - o'zbek adabiy tili tarixi fanining o'rganish obyekti, maqsadini va vazifasini farqlaydi; - og'zaki va yozma adabiy til shakllari haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - o'zbek adabiy tilining boshqa turkiy tillar doirasida tutgan o'rni tushunadi; - o'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasida olimlarning qarashlarini tahlil qiladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Til tarixi fanlari tizimiga qaysi o'quv predmetlarni kiritish mumkin? 3.2. Til tarixi fanining obyekti, maqsadi va vazifasi bilan tanishtiradi. 3.3. Og'zaki va yozma adabiy til shakllari haqida talabalardan ma'lumot so'rash va ularning javoblarini to'ldiradi. 3.4. O'zbek adabiy tilining boshqa turkiy tillar doirasida tutgan o'rnini ochib beradi. 3.5. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalalarida olimlarning qarashlarini izohlaydi va mohiyatini tushuntiradi.	3.1. Til tarixi fanlari tizimiga kiruvchi predmetlarni sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Og'zaki va yozma adabiy til shakllari haqida bilganlarini aytadilar va kiritilgan aniqlikni yozib oladilar. 3.4. Yozib oladilar. 3.5. Yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.

1-MAVZU KIRISH. DAVRLASHTIRISH

Reja

1. «O'zbek adabiy tili tarixi» til tarixi fanlaridan biri sifatida.
2. Adabiy til va uning shakllari
- 3 O'zbek tilining boshqa turkiy tillar o'rtasida tutgan o'rni.
4. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish.

Tayanch tushunchalar:

O'zbek tili tarixi - o'zbek tilining turkiy tillardan ajralib mustaqil taraqqiy etishini yoritadigan fan.

Qadimgi turkiy til - barcha turkiy qavmlar uchun mushtarak sanalgan turk runiy yozma yodgorliklari, ularning fonetik, leksik va morfologik va sintaktik xususyatlarini o'rganuvchi fan.

O'zbek tilining tarixiy grammatikasi - o'zbek tilining fonetik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik tizimining o'rganuvchi o'zbek tili tarixining uzviy qismi.

O'zbek adabiy tili tarixi - o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyotini, normalari tarixini o'rganadigan o'zbek tili tarixining uzviy qismi.

O'zbek adabiy tili tarixi fanining manbalari - buyuk so'z ustalari tomonidan yaratilgan adabiy yodgorliklardir.

O'zbek adabiy tili tarixi o'zbek tilshunosligi doirasga kiradigan ixtisosy fanlardan biridir. Ma'lumki, o'zbek tili tarixi uch mustaqil predmetni o'z ichiga oladi. Bular - «Qadimgi turkiy til», «O'zbek adabiy tili tarixi» va «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» predmetlaridir. Bu uchala predmet ichki xususyatlari bilan bir-biriga bog'liq bo'lishiga qaramasdan, tekshirish ob'ektlarining o'rganish usullari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Qadimgi turkiy til» kursida barcha turkiy qavmlar uchun mushtarak sanalgan turk runiy yozma yodgorliklari, ularning fonetik, leksik va morfologik va sintaktik xususyatlarini o'rganiladi. «O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» tilning fonetik sistemasi taraqqiyotini, grammatik strukturasining rivojlanishini o'rganish bilan qiziqadi. Lekin til hodisalarining ijtimoiy hodisalar bilan munosabati, uslublar taraqqiyoti va uning turli ko'rinishlari, tilning normasi kabi masalalar uning tekshirish doirasidan chetda qoladi. Bularni esa «O'zbek adabiy tili tarixi» predmeti tekshiradi. «O'zbek adabiy tili tarixi» kurs til taraqqiyotini xalq tarixi bilan bog'liqlik holda yoritib beradi. Adabiy til uslubida yuz beradigan barcha o'zgarishlar u yoki bu darajada xalqning moddiy va ma'naviy hayotida yuz beradigan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarish va savdning rivojlanishi, sinflarning paydo bo'lishi, davlatlarning kelib chiqishi, ilm-fan va adabiyotning taraqqiyoti kabi ijtimoiy-tarixiy omillar til taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu har bir omil o'zbek adabiy tilida o'z aksini topishi bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular badiiy tasvir vositalari taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Til tarixini o'rganish hozirgi zamon o'zbek tilini tarixiy tushunish, ya'ni bu tilning uzoq asrlar mobaynida davom etgan murakkab tarixiy jarayonlarning tarixiy samarasi ekanini keng tushunish imkonini tug'diradi. O'zbek tili, uning adabiy formasii uzoq davr va asrlarning tarixiy mahsulidir. U tarixda ma'lum bo'lgan boshqa tillar kabi urug' tilidan qabila, qabila tilidan xalq va xalq tilidan milliy tilga qarab taraqqiy etdi. Uzoq asrlar davom etgan bu jarayonda o'tmish asrlardagi til hodisalari keyingi davrlardagi til hodisalaridan farqlanib qoldi. Ijtimoiy tarixiy taraqqiyot talablarga javob berolmagan til hodisalari asta-sekin umumtil aloqasidan chiqib ketdi. Ularning o'rnini zamon talabi bilan yuzaga kelgan yangi til hodisalari egalladi. Shuning natijasida yuqorida aytilgandek, hozirgi zamon o'zbek tili o'zining o'tmishidan uzoqlashib ketdi. Bu holatni yozuv yodgorliklarida aks etgan hodisalar bilan qiyoslashda yaqqol ko'rish mumkin.

Ma'lumki, tilning struktura elementlari uzoq o'tgan davr ichida bir xilda o'zgarib kelmadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot dastavval tilning leksikaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shuning uchun tilning boshqa struktura elementlariga ko'ra tilning lug'at sostavi o'zgaruvchan bo'ladi. Tilning lug'at sostaviga qaraganda uning grammatik qurilishi sekinlik bilan o'zgargan. Tilning fonetik sistemasi grammatik strukturasiga nisbatan yana sekinlik bilan o'zgaradi.

O'zbek adabiy tili tarixining ob'ekti matn va adabiy til hisoblanadi. Adabiy til tarixining eng

muhim vazifalaridan biri buyuk so'z ustalari tomonidan rivojlantirilgan umumxalq tilining qayta ishlanish xususiyati va rolini aniqlashdir. O'zbek adabiy tili tarixi bir qator fanlar bilan bog'liq ravishda o'rganiladi va ular bilan uzviy bog'lanadi. Birinchi navbatda, o'zbek tilshunosligi doirasga kiradigan fanlar bilan uzviy bog'lanadi. «O'zbek adabiy tili tarixi», «O'zbek tilining tarixiy grammatikas», «O'zbek dialektologiyas»ning bergan ilmiy xulosalariga suyanadi. Ayni zamonda hozirgi o'zbek adabiy tili kursiga ilmiy zamin hozirlaydi. 2-navbatda «Adabiyot tarixi» fani bilan bog'lanadi, chunki ulkan va boy madaniy yodgorliklarimiz shu davr tilini tashuvchi manba hisoblanadi. 3-navbatda «O'zbekiston tarixi» fani bilan munosabatda bo'ladi, chunki adabiyot va til tarixini xalq tarixisiz tasavvur qilish mumkin emas.

O'zbek adabiy tili tarixining asosiy manbalariga yozma obidalar - badiiy, ilmiy asarlarning mantlari, sheva materiallari, joy nomlari, kishi ismlari, hozirgi o'zbek adabiy tili materiallari, tarixiy lingvistik lug'atlar, turkshunoslikka oid o'zbek, rus va xorijiy olimlarning tadqiqot va qo'llanmalari kiradi.

Adabiy til deb leksik sostavi barqaror, fonetik va grammatik qurilishi slliqlashgan umumxalq tilining oliy formasiiga aytiladi. Adabiy tilning yuzaga kelishi shu tilning xalq va milliy til bosqichlari bilan bog'liqdir. Ma'lum bo'ladiki, adabiy til xalq yoki maishiy til zaminida yaratiladi. Shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining shakllanishini XIII asr oxiri va XIV asr boshlari bilan, eski turkiy adabiy tilning (qoraxoniylar davlati adabiy tili) shakllanishini XI – XIII asrlar bilan bog'laydilar. Adabiy til asosiy e'tibori bilan umumxalq tilidir, lekin u so'z ustalari tomonidan ijodiy boyitilgan va qayta ishlangandir. Adabiy tilning yozma va og'zaki shakllari bor. Ma'lumki, yozuvsiz adabiy til bo'lishi mumkin emas. O'zbek adabiy tilining shakllanishi va slliqlanishi O'rta Osiyoda yozuvning paydo bo'lishi bilan yozuvdan oldingi xalq og'zaki lirik ijodini og'zaki adabiy tilning ko'rinishi deb qarash mumkin. Demak adabiy tilning og'zaki formasii yozma adabiy tilning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bu esa so'z adabiy til yozuvdan oldin yuzaga keldi degan xulosani bermaydi. Yozma adabiy til og'zaki adabiy tilning ma'lum normada saqlanib turishi uchun xizmat qiladi, chunki adabiy til yozuv bilan shakllangandagina o'zining normalariga qat'iy ega bo'ladi. Adabiy tilning normalashtirilgan til deyilishining boisi ham shundadir. Adabiy til dialekt va jargonlardan o'zining normaga solinganligi bilan farq qiladi. Adabiy til uslubda, so'z qo'llashda, morfologik va sintaktik modellarga rioya qilishda har bir tilning o'z ichki qonunlari doirasdan chiqmaydi. Og'zaki adabiy til esa, til taraqqiyotining ma'lum davrida bir xil talaffuz normalariga amal qilishni talab qiladi.

Tilning taraqqiyotiga bog'liq ravishda adabiy til normasi ham o'zgarib boradi. Masalan, o'zbek adabiy tilida Alisher Navoiy davridan beri uning lug'at sostavida va grammatik qurilishida turli o'zgarishlar bo'ldi. O'zbek tili O'rta Osiyodagi qoraqalpoq, turkman, qirg'iz, MDH davlatlaridan Volga bo'yidagi tatar, boshqird, chuvash, Kavkazdagi ozarbayjon, qumuq, qorachoy, bolqar, Qrimdagi gagauz, qrim-tatar, chet mamlakatlaridagi uyg'ur, usmonli turk kabi qator tillar bilan birgalikda alohida til gruppasini tashkil etadi. Bu gruppada turkiy tillar oilasi deb yuritiladi. Turkiy tillar umumiy gruppada qurilishi, fonetik teng kelishi, lug'at sostavi jihatidan bir-biriga yaqinlik darajasi shu tillar taraqqiyotining keyingi davrida yuzaga kelgan hodisa bo'lmay, balki qadimgi hodisadir. Turkiy tillar qanchalik qadim bo'lsa-da, ular orasidagi o'xshashlik, yaqinlik ko'pdir. Bularning hammasi turkiy tillar qadim zamonlarda qandaydir bir til manbaiga, negiziga ega bo'lganligidan darak beradi. Turkiy tillar esa, o'z navbatida, boshqa tillar bilan aloqasiz va boshqa tillardan ajralib qolgan oila tili bo'lmagan, aksincha ular Oltoy gruppasiga kiradigan boshqa tillar bilan ko'p jihatidan tarixiy umumiylikka egadir. Turkiy tillarning o'zaro o'xshashlik darajalari quyidagilarda ko'rinadi:

1. O'zbek tilidagi so'zlar boshqa turkiy tillardagidek asosan uch tovushli bo'ladi: <i>bil, til, kel, ko'z</i> va h.o.	2. O'zbek tilida va boshqa turkiy tillarda ko'p bo'g'inli so'zlar juda kam. Asosan bir bo'g'inli: <i>ot, ov, oy;</i> ikki bo'g'inli bo'ladi: <i>ikki, olti, etti</i> va h.o.
--	--

3. Barcha turkiy tillardagi sngari so'zlar ko'p ma'nolidir: *bosh, tosh, tish, uch.*

4. Ayrim ko'makchilarni hisobga olmaganda, so'zining oxirgi bo'g'inida undoshlar qator kelmaydi: *ostki, ustki.*

5. Boshqa turkiy tillardagi kabi affiksalar so'z oxiriga qo'shiladi. Bundan fors-tojik tilidan o'zlashgan prefiksalar mustasno.

6. Barcha turkiy tillardagi sngari o'zbek tilida agglyutinatsiya qonunlari amal qiladi va h.o.

Yuqoridagi o'xshashliklar bilan bir qatorda o'zbek adabiy tili o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan farq qiladi. Masalan; o'zbek adabiy tilida unlilar oltita (a, ə, o, o', u, i) qirg'iz tilida sakkizta (a, ə, o, ə, u, y, i, i), uyg'ur tilida ham sakkizta (a, e, o, ə, e, u, y, i), xakos tilida esa to'qqiztadir. Hozirgi o'zbek adabiy tilida singarmonizm qonuniyatiga amal qilinmaydi, boshqa turkiy tillar esa bu qonuniyatga amal qiladi. Eski o'zbek tilida unlilar uyg'unligi bo'lgan, lekin u qattiq va yumshoqlikka qarab farqlangan: *kəlduk, kəryh, bardi*. O'zbek tilining undoshlar tizimi boshqa turkiy tillarga mos tushadi. Ammo turkiy tillardan ba'zilarida undoshlar boshqacharoq ishlatiladi. O'zbek va turkman tillarida so'z boshida keladigan y tovushi qipchoq guruhidagi turkiy tillarda **dj** va **j** tovushi bilan beriladi: **yigit - jigit, yo'q -jo'q, yetti — jetti**. O'zbek tilida **k, t** bilan boshlanadigan so'zlar o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda **d, g** bilan beriladi: **temir - demir, teve — deva, til - dil, ko'z — go'z, kun - gun** kabi. O'zbek tilida ayrim so'zlarda **ch, sh** undoshlari ishlatilgani holda, qoraqalpoq va qozoq tillarida **s** undoshlari ishlatiladi: **kuch — kus, och - as, tish — tis, bosh-bas** kabi. O'zbek tilida **g'** undoshi bilan tugagan so'zlar tatar, boshqird, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq tillarida (**v**) **u** undoshlari bilan beriladi: **tog' — tav — tau, bog' — bav — bau, sog' — sav — sau** qabilar.

O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy tillar grammatik qurilishida ham o'xshash tomonlar mavjud. Turkiy tillardagi so'z turkumlari, so'z yasovchilar, so'z o'zgartiruvchilar, shakl yasovchilar bir-biriga o'xshaydi. Ammo affiksalar har bir tilning o'z fonetik tuzilishiga ko'ra turlicha variantlarda keladi. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi ko'plik **-lar** afiks bilan ifodalanadi. Boqsha turkiy tillarda ham **-lar** bilan beriladi. Lekin qozoq tilida oltita (**-lar, -lär, - dar, - dər, - tar, - tər**), qirgiz tilida o'n ikkita (**-lar, -lär, - dar, - dər, - tar, - tər, - lor, - lör, - dor, - dör, - tor, - tör**) varianti bordir. Xuddi yuqoridagi kabi o'zbek tilidagi kelishik, egalik, kesimlik, shaxs, zamon, affiksilar boqsha turkiy tillarning talaffuz qonuniga ko'ra turlicha fonetik variantlarda ishlatiladi.

O'zbek tili uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq tili gruppasga kiradi. Qarluq tili tarixiy jihatdan O'rta Osiyo gruppasiga, ayniqsa, g'arbiy xun shaxobchasiga kirgan tillar bilan oiladoshdur. XI asrdan keyingi O'rta Osiyo turkiy tillari, shu jumladan, o'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi ma'lum davrlarni belgilash mumkin.

Til tarixini o'rganishdagi eng muhim masalalardan biri - davrlashtirishdir. Davrlashtirish uchun o'zbek tili va unga urug'dosh bo'lgan turkiy tillarning kelib chiqishi, taraqqiyot bosqichlari, o'zaro munosabatlari aniqlanishi lozim.

Ma'lumki, davrlashtirish turkiy tillarning tasnifi bilan ham bog'liqdir. Tasnif ma'lum darajada tillar tarixini davrlashtirish demakdir. Chunki tasnifda ham, davrlashtirishda ham bir xil prinsipga amal qilinadi.

Turkiy tillarning tasnifi XI asrda M. Qoshg'ariy tomonidan berilgan bo'lsa ham XIX asrgacha bu tillarning mukammal tasnifi yaratilmagan edi. XIX asrdan boshlab turkiy tillarni rus olimlari tasnif qila boshladilar. Bulardan ayrimlarini namuna uchun keltiramiz.

I. V. V. Radlov turkiy tillari to'rt guruhga bo'ladi:

1. Sharqiy guruh (Sibir' tatarlari tili).
2. G'arbiy guruh (qirg'iz, qozoq, boshqird, tatar tillari).
3. O'rta Osiyo guruhi (o'zbek, uyg'ur tillari).
4. Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk, qrim tatar tillari).

II. A.N. Samaylovich Radlov va Korsh tasniflarini birlashtirib oladi.

1. Janubiy -Sharqiy yoki chig'atoy guruhiga hozirgi uyg'ur, o'zbek tillari va shevalarini kiritadi.
2. Janubiy - G'arbiy yoki o'g'uz guruhiga o'zbek tilining o'g'uz shevalarini kiritadi.

III. S. E. Malov o'z tasnifida yangi turk tillari guruhiga o'zbek, chig'atoy tillarini kiritadi.

IV. N.A.Baskakov tasnifida turk tillarining G'arbiy xun tarmog'i qarluq tillari guruhiga kiritiladi; a) qarluq — xorazm guruhi. Bunga qoraxoniylar - xorazm tili (Ahmad Yassaviy asarlari),

hozirgi uyg'ur tili va shevalari kiritilgan (bunda ayrim lingvistik belgilar hisobga olingan).

V. V.A. Bogorodskiy (1921) tasnifida O'rta Osiyo guruhiga o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillari kiritilgan. Ularning ba'zilar turkiy tillarni hududiy - jo'g'rofiy jihatdan tasnif qilsa, boqshalari tillarning bir xil lingvistik belgisiga asoslanadi. Uchinchilarida turkiy tillar tarixi xalq tarixi bilan yetarlicha bog'lanmaydi. Shular ichida N.A. Baskov tasnifi ancha mukammal tuyuladi.

VI. A.M. Shcherbek tarxi (1953):

1. Eng qadimgi davr o'zbek adabiy tili (X - XII asrlar). 2. O'rta davr o'zbek adabiy tili (XI-XIII asrlar). 3. Yangi davr o'zbek adabiy tili (XIV-XIX asrlar). 4. Eng yangi davr o'zbek adabiy tili (XIX asr oxiri va XX asr boshlari).

VII. Olim Usmon tarxi (1957):

1. Turk xoqonligi davrida qadimgi tug-yu turk tili (U1-IX asrlar). VI-VIII asrlar; VIII – IX asrlar).
2. Qadimgi o'zbek tili (IX-XIII asrlar).
3. Eski o'zbek tilining ilk davri (XIII -XIV asrlar).
4. Eski o'zbek tili (XIV asrning oxiridan XIX asr II yarmigacha).
5. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili:
 - a) XIX asrning II yarmidan Oktabr' inqilobigacha bo'lgan davr o'zbek adabiy tili.
 - b) Sho'ro davri o'zbek milliy adabiy tili.

VIII G'.Abduraxmonov, SH.SHukurov tarxi (1973):

1. Eng qadimiy turkiy til (VII asrgacha).
2. Qadimgi turkiy til (VII asrdan XI asrgacha).
3. Eski turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha).
4. Eski o'zbek adabiy tili (XIV asrdan XIX asrgacha).
5. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili.

IX. Akademik A.Samoylovich tasnifi:

I davr. XI-XIV asrlarni o'z ichiga oladi.

II davr. Mo'g'ullar hukmronligi davridagi o'zbek adabiy tili.

III davr. Temuriylar davridagi o'zbek adabiy tili. Bu davr XIX asrning 2-yarmiga qadar davom etadi.

IV davr. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olingandan keyingi adabiy til .

O'zbek tili tarixi niuning ichki rivojlanish xususyatlariga qarab, Shuningdek o'zbek xalqi va millatining shakllanishi, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga qarab shunday davrlarga bo'lish mumkin.

I.O'zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri. Bu davr XI asrdan XIV asrning yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

II. O'zbek xalq tili taraqqiyotining o'rta davri. Bu XIV asrning 2-yarmidan XIX asrning 1-yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davr eski o'zbek adabiy tilining shakllangan va ma'lum taraqqiyotga yuz tutgan davridir.

III. O'zbek xalq tili taraqqiyotining so'nggi davri. Bu davr XIX asrning 2-yarmidan okyabr revolyutsiyasining g'alabasi va O'zSSR barpo etilgan davrni o'z ichiga oladi.

IV.Milliy O'zbek adabiy tili. Bu davrda O'zbekiston milliy tili shakllandi va taraqqiy etdi.

Savol va topshiriqlar:

1. «O'zbek adabiy tili tarixi» fani nimani o'rganadi?.
2. Adabiy til shakllari nimalardan iborat?
3. O'zbek tili tarixiga oid qanday adabiy manbalarni bilasiz?
4. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishga hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?


REJA:

1. «O'zbek adabiy tili tarixi» til tarixi fanlaridan biri sifatida.


2. Adabiy til va uning shakllari.

3. O'zbek tilining boshqa turkiy tillar o'rtasda tutgan o'rni.

4. O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish.



O'zbek adabiy tili tarixi bir qator fanlar bilan bog'liq ravishda o'rganiladi va ular bilan uzviy bog'lanadi.



2 - mavzu	QADIMGITURKIY TIL DAVRI
-----------	-------------------------

1.1Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Qadimgi turkiy adabiy til haqida. 2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklari. 3. Uyg'ur yozuvi va uning yodgorliklari. 4. Qadimgi turkiy adabiy til xususiyatlari. 5. Qadimgi turkiy adabiy tilning o'zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o'rni.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: qadimgi turkiy adabiy til, runiy va uyg'ur yozuvi yodgorliklari, qadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari, uning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'rni to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- qadimgi turkiy adabiy til davri haqida ma'lumot berish; - runiy va uyg'ur yozuvi yodgorliklari, ularning mavzuiy tasniflarini tushuntirish; - qadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish; - qadimgi turkiy adabiy tilning o'zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o'rni izohlash;	- qadimgi turkiy adabiy til davri haqida axborotga ega bo'ladi; - runiy va uyg'ur yozuvi yodgorliklarning o'xshash va no'xshash jihatlarini farqlaydi; - qadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - qadimgi turkiy adabiy tilning o'zbek adabiy tili taraqqiyotida tutgan o'rni haqida bilim oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Qadimgi turkiy adabiy til qaysi davrlarni o'z ichiga oladi? 3.2. Qadimgi turkiy adabiy til davri haqida to'liq ma'lumot beriladi. 3.3. Runiy yozuvi yodgorliklari to'g'risidagi bilimlarini savol orqali sinaladi va ularning javoblarini to'ldiradi . 3.4. Uyg'ur yozuvi yodgorliklari xususida talabalardan ma'lumotlar oladi va rejani to'liq ochib beradi. 3.5. Qadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos xususiyatlari, uning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi o'rnini tushuntiradi.	3.1. Qadimgi turkiy adabiy til davri haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Runiy yozuvi yodgorliklari to'g'risidagi bilimlarini aytadilar va kiritilgan aniqlikni yozib oladilar. 3.4. Yodgorlik xususida talabalar bilgan ma'lumotlarini sanab beradi va qo'shimcha ma'lumotlarni yozib oladilar. 3.5. Yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga hulosasi yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.

2-MAVZU
QADIMGI TURKIY TIL DAVRI
REJA

6. Qadimgi turkiy adabiy til haqida.
7. Runiy yozuvi va uning yodgorliklari.
8. Uyg'ur yozuvi va uning yodgorliklari.
9. Qadimgi turkiy adabiy til xususyatlari.

Tayanch tushunchalar: runiy yozuvi, uyg'ur yozuvi va ularda bitilgan yodgorliklar.

Ma'lumki, VI asrda turkiy qabilalar kuchayib, o'zlarining ko'chmanchi Tukyu imperiyasini tuzadi. Bu imperiyaning chegarasi Amudaryo, Marv, Balx, Hindistonga borib taqalar edi. O'zaro urushlar va arablar istilosi natijasida Tukyu davlati ikki qismga ajraladi. Biri markazi Yettisuv bo'lgan g'arbiy turklarga va ikkinchisi markazi Mo'g'iliston bo'lgan sharqiy turklarga ajraladi. Yettisuvdagi Tukyu davlati turgeshlarga o'tadi. VIII asrda o'g'iz va qarluqlarning siquvi ostida bu davlat qarluqlarga o'tadi va Tukyu davlati IX asrning boshigacha Yettisuvni egallab turadi.

Uyg'urlar 745 yilda dastlab sharqiy tukyu yeriga, so'ng g'arbiy Tukyu yeriga hujum qilib, butun Tukyu davlatini bosib oladi. 840 yilda qirg'izlar uyg'urlarga qarshi kurashib, hokimiyatni qo'lga kiritadi. Shundan so'ng uyg'urlarning bir qismi qarluqlar tomoniga va bir qismi Tibetga ketadi.

Xuddi ana shu davrda hozirgi vaqtda amalda qo'llanib kelinayotgan turkiy tillardan birontasga ham to'la mos kelmaydigan **qadimgi turkiy adabiy tili** paydo bo'ladi. Qadimgi turkiy adabiy tilning yozma yodgorliklari turk-runiy (O'rxun-Enasoy) va turk-uyg'ur yozuvi orqali bizgacha yetib kelgan. Bu yozuvlar orqali etib kelgan yodgorliklarni turkiy tillarning birontasiga tegishli deb bo'lmaydi. Chunki ularda O'rta Osiyo va Qozog'istonda yashovchi turkiy xalqlarga tegishli fonetik, grammatik va leksik xususyatlarni uchratamiz. Masalan: *Kultagin yoq, arsar, koploltari artigiz. Inim Kultegin kargak bolti, ozim saqint'm; keryr kezym kormaztag, bilir biligim bilmaztag bolti, ozym saqintim. Od tashri yasar, kis ogli kep olg'ali (yoki olygli) torumis.* Kultagin obidasdan keltirilgan bu parchada qariyb hamma so'zlar tushunarlidir: *Kultegin bo'lmaganda edi, sz hammangiz o'lar edingiz. Inim Kultagin kerak bo'ldi, o'zim sog'indim, ko'rar ko'zim ko'rmasdek, bilgan bilimimni bilmagandek bo'ldim, o'zim sog'indim. Oh, tangri, inson o'g'li o'lish uchun tug'iladimi?*

Ko'rinib turibdiki, qadimgi turkiy yozuv yodnomalari umumturkiy tillar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yozma yodgorliklar bizga yozuv orqali etib kelgan. Shunday ekan, turkiy xalqlar qanday yozuvlardan foydalangan? - degan savol tug'iladi. Tarixiy va arxeologik manbalarning ko'rsatishicha, O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy xalqlar oromey, so'g'diy, xorazmiy, urxun-enasoy yoki runiy, uyg'ur, arab yozuvidan foydalanganlar. Oromey yozuvining ta'sirida shakllangan so'g'diy va xorazmiy yozuvlari eramizning I-V asrlarida ishlatilgan. Shuningdek, oromey yozuvi ta'sirida eramizning birinchi asrida uyg'ur yozuvi shakllanadi. V asrga kelib esa, runiy nomi bilan atalgan urxun-enasoy yozuvi paydo bo'ladi. Runiy yozuvi oromey yozuvi ta'sirida paydo bo'lgan so'g'diy va xorazmiy yozuvlari asosida shakllangan. Bunga turkiy tillar tovushlarini ifodalovchi tamg'a shaklidagi harflar ham qo'shilgan. Bu yozuvlarning borligi fan olamiga XVIII asrdagina ma'lum bo'ldi. Ularning namunalari Enasoy daryosii bo'yida topiladi. XIX asr oxirida rus sayyohi va yozuvchisi N.M.Yadrinsev Urxun daryosii bo'yidan shu xildagi yozuvlarni topadi va tuzilishi jihatidan german runik yozuvlariga o'xshagani uchun **runiy yozuv** deb ataydi. Runiy yozuvidagi yodgorliklar katta hududga taqalgan bo'lib, ular feodal hukmdorlar va ularning qarindoshlari qabri ustiga qo'yilgan toshlar, idishlar, yog'och va tog' qoyalarida saqlangan. Bu yozuvdagi bitiklar Enasoy daryosi bo'ylaridan, Qirg'izistonning Talas vodiysidan, Urxun daryosi Selenga havzasi va unga yaqin joylardan, Baykal ko'li atroflaridan topilgan.

Uyg'ur yozuvi yangi so'g'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u keyinchalik mo'gullarga va mo'g'ullardan manjurlarga o'tgan. Uyg'ur yozuvi VI tortib XV asrgacha turkiy xalqlarda va

buddaviylar orasda XVIII asrgacha ishlatilib kelingan. Uyg'ur yozuvi asosida IX-X asrlarga tegishli bo'lgan turkiy tillarning yozma yodgorliklari paydo bo'ladi. Ular diniy, falsafiy xususyatga ega bo'lgan asarlardir. Uyg'ur alfaviti bilan yozilgan yodgorliklarning xususyati va mazmuniga qarab, quyidagilarga bo'lish mumkin: 1. Uyg'ur yodgorligi. 2. Manixey yodnomasi. 3. Buddiy yodnoma. 4. Xristian yodnomasi. XI-XU asrlarga oid ko'pgina yirik asarlar turk uyg'ur yozuvida tartib qilingan. Masalan, «Me'rojnom», «Tazkirai avliyo», «Baxtiyornoma» kabi bir qator asarlar shu yozuvda ko'chirilgan. «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Muhabbatnoma» kabi asarlarning uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxalari ham mavjud.

Akademik V.V. Radlov birinchi marta qadimgi turkiy adabiy tilning o'ziga xos dialektlarini o'rganib chiqdi va uni shimoliy, janubiy va aralash dialekt deb uch guruhga bo'ldi. Shimoliy turkiy adabiy tilga runiy yoki o'rxun-enasoy yozuvlari asosida vujudga kelgan til kiritiladi. Bu tilga xos xususyatlardan biri so'z boshida va so'z oxirida jarangli undoshlar o'rnida ko'proq jarangsz undoshlar kelishidir. Lekin bundan **b** undoshi istisnodir, chunki so'zning oxiri **n** va **ng** tovushlari bilan tugagan so'zlarda so'z boshidagi jarangli **b** undoshi saqlanadi: *bən-men, bing-ming, bin-min* kabi. Masalan: *Tonyuquq bənəg aydi - Toyo'quq menga aytdi (Tonyo'quq). Bangu tash taqitdim - Mangu tosh tikdim* (Kultagin).

Bundan tashqari, **t** tovushi so'z boshida ko'p ishlatiladi: *Su barin tidi -Qo'shin bilan bor dedi* (Tonyo'quq). Tushum kelishi uchun asosan **-g' (-g) / -ig' - ig - ug' - yg** affiskli shakl qo'llangan: *sabig' - so'zni, yag'ig' - dushmanni* (Tonyo'quq), *on ərig - o'n erni* (Kultagin).

Qaratqich kelishigi affiksi **-ning/-ing** shaklida ishlatilgan: *Kultəginniḡ altunin, kymyshyn; Qag'aniḡ sabi -Xoqonning so'zi; biziḡ sy - bizning askar* (Kultagin).

O'rin-payt, chiqish kelishiklari uchun **-da /-də// -ta /-tə** affiksili shakl qo'llangan: *Tyrgeḡ qag'anta kəryg kəlti - Turgash xoqondan ayg'oqchi keldi* (Kultagin), *Qirqizta yantimiz - Qirg'izlardan qaytdik* (Tonyo'quq).

O'tgan zamon fe'li ma'nosida **-di / - di // - ti / - ti, - mish / - mish (- mis / - mis)** affiksilaridan tashqari **-duq / - dyk** affiksili shakl ham qo'llangan. **- duq / - duk** affiksili shakl o'tgan zamon fe'li ma'nosida shaxs-son ko'rsatkichsiz uchala shaxsning birligi va ko'pligi uchun ishlatilavergan.


O'rxun-Enasoy yozuv yodgorliklarida hozirgi turkiy tillarga xos so'zlar uchraydi: *el (el), ben (men) ilig (qo'l), siz, og'lan, yash, at, təḡri, altmish* kabi. Lekin semantik xususyatlari bilan iste'moldan chiqib ketgan so'zlar ham mavjud: *budun (xalq), bag' (ittifoqchilik), sy (qo'shin), sabim (so'zim) iti (yubordi), tosiq (to'ygan), ukush (ko'p)* kabi.

Qadimgi turkiy tilning janubiy guruh dialekti uyg'ur yozuvi asosida paydo bo'lgan. Bularga Selenga, Suji va Turfon yodgorliklari kiradi. Janubiy guruhdagi tillar fonetik jihatdan shimoliy guruhdagi tillardan oxiri **n, ng** bilan uchraydigan so'zlar boshidagi **b** tovushining **m** tovushiga o'zgarishi bilan farqlanadi: *baḡu - maḡu (mangu), ban - men, biḡ - miḡ* kabi. Qaratqich kelishigi **-niḡ / -niḡ** affiksi bilan, chiqish kelishigi **-din / -din // - tin / -tin** affiksi bilan ifodalanadi. Fe'lining o'tgan zamon shakli har bir shaxs va son uchun alohida affiksilariga ega. Aralash dialektning fonetik jihatdan o'ziga xos xususyatlari tovushining **t** tovushi bilan, **ch** tovushining **z** tovushi bilan almashinib ishlatilishidir: *achun -azun (dunyo), atun - adun (boshqa)* kabi.


Savol va topshiriqlar:

1. Qadimgi turkiy adabiy tilga oid manbalar qayerlardan topilgan?
2. Runiy yozuvi va uning yodgorliklari qaysilar?
3. Uyg'ur yozuvi qaysii davrlarda keng qo'llangan?
4. Qadimgi turkiy adabiy til xususyatlari haqida to'xtaling?

REJA:



XI-XV asrlarga oid ko'pgina yirik asarlar turk uyg'ur yozuvida tartib qilingan.



Uyg'ur yozuvida ko'chirilgan nusxalari mavjud asarlar:



3 - mavzu	ESKI TURKIY TIL DAVRI
-----------	-----------------------

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi. 2. «Devoni lug'otut turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati. 3. «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi. 4. «Hibatul haqoyiq» asarining tili.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi, «Devoni lug'otut turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati, «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi, «Hibatul haqoyiq» asarining tili haqidagi bilimlarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi haqida ma'lumot berish; - «Devoni lug'otut turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida tushuntirish; - «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari ni yoritish; - «Hibatul haqoyiq» asari, tili haqidagi qarashlarni izohlash;	- eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi haqida axborotga ega bo'ladi; - «Devoni lug'otut turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida mavjud bilimlarini mustahkamlaydi; - «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - «Hibatul haqoyiq» asari, tili haqidagi qarashlar, asarning til xususiyatlari haqida bilib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalar ni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Eski turkiy adabiy til qaysi davrlarni o'z ichiga oladi? 3.2. Eski turkiy adabiy til davri haqida ma'lumot beradi. 3.3. «Devoni lug'otut turk» asari to'g'risidagi bilimlari savol orqali sinaladi va javoblarni to'ldiradi. 3.4. «Qutadg'u bilig» asari yuzasidan tekshirish savollari beriladi, asarning tili va uslubini to'liq yoritib beradi. 3.5. «Hibatul haqoyiq» asarining tili xususida talabalardan ma'lumotlar oladi va asar tili tahlil qilinadi.	3.1. Eskii turkiy adabiy til davri haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. «Devoni lug'otut turk» asari to'g'risida bilgan ma'lumotlarini aytadilar va kiritilgan nazariy fikrlarni yozib oladilar. 3.4. «Qutadg'u bilig» asari yuzasidan tekshirish savollariga jabob beradi va qo'shimcha ma'lumotlarni yozib oladilar. 3.5. «Hibatul haqoyiq» asarining tili xususida ma'lumotlar oladi va yangi fikrlarini yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

3-MAVZU

ESKI TURKIY TIL DAVRI

1. Eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasii.
2. «Devoni lug'otut turk» asarining tarixiy va ilmiy ahamiyati.
3. «Qutadg'u bilig» asarining tili va uslubi.
4. «Hibatul haqoyiq» asarining tili.

Tayanch tushunchalar:

Oltoy nazariyasi – Oltoy nazariyasiga rus sharqshunos olimi V.Radlov asos solgan. *Chigillar* – turkiy qavmlardan biri. *d' dialekti* – chigillar dialekti sanalib, qoraxoniylar zamonida vujudga kelgan adabiy tilga asos bo'ldi. *y dialekti* –XIV asrning o'rtalaridan boshlab adabiy til an'anasii sifatida yuzaga chiqdi.

1.Turkiy qabila-urug'larning yetakchiligidagi barpo bo'lgan qoraxoniylar davlati zamonida adabiy til an'anasiga bo'lgan munosabat kuchaydi. Shu davrgacha O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy xalqlar adabiy tili masalasini forsiy til bajarib kelar edi. Lekin bu an'ana qoraxoniylar siyosatiga zid kelar edi. Shuning uchun qoraxoniylar davlatining hukmron doiralari turkiy tilda yozilgan har bir asarni ma'qullar va taqdirlar edi. Qoraxoniylar davlatida, turli qabilalar orasida chigillar, ayniqsa, muhim rol o'ynar edi, chunki chigillar boshqa turkiy qabilalarga qaraganda madaniy jihatdan ustun edilar. Ularda yozuv an'anasii ancha keng tarqalgan edi. Shuning uchun ham qoraxoniylar zamonidan yozilgan dastlabki asar shu dialekt zaminida yozilgandir. Chigillar dialekti turkiy tillarning *d*-gruppasiga mansubdir. *D*-dialekti qadimgi turkiy tilda muhim ahamiyatga ega bo'lganligi ma'lum. Shu dialekt qoraxoniylar zamonidagi adabiy an'anani yaratishda ham ahamiyatga ega bo'lgan. Shu an'ana asosida «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» va XIV asrning o'rtalariga qadar ma'lum bo'lgan qator asarlar yozilgandir. Qoraxoniylar zamonida vujudga kelgan adabiy til an'anasii mo'g'ullar hukmronligi davrida ham davom etdi. Mo'g'ullar davlatida uyg'urlar butun madaniy ishlarni boshqarganlar. Uyg'urlar vositasida qoraxoniylar an'anasii uzoq asrlar davomida o'z xususiyatlarini saqlab qolgan. Lekin XIV asrga kelib O'rta Osiyodagi vaziyat bir muncha o'zgardi. Mo'g'ullar davlatining inqirozga yuz tutishi munosabati bilan O'rta Osiyo, Kavkaz va Qrimda, Kichik Osiyoda har xil turkiy davlatlar yuzaga keldi. Davlat chegaralarining aniqlanishi borgan sari shu territoriyadagi qabila-urug'lar asosida muayyan xalqlarning tarkib topish ishlari uchun zarur sharoit tug'dirib borgan. Mo'g'ullarning O'rta Osiyodagi siyosiy yetakchiligi zaiflashib borgan sari adabiy tildagi qoraxoniylar an'anasii ham o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotib bordi. Adabiy tilga mahalliy shevalar kuchli ta'sir etdi. Shuning natijasida XIV asr davomida adabiy tilning tayanch dialekti Sirdaryo bo'yidagi y-lashgan dialektni tashkil qildi. XIV asrning o'rtalaridan boshlab yuzaga kelgan yodgorliklar turkiy tilning y-dialekti zaminida yozilgandir. Bu dialektning dastlabki yodgorligi Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asaridir.

2. XI asrda turkiy qabilalar orasidagi munosabat kuchaydi. Lekin tilda turli xil qabila va urug' tiliga oid shakllar qo'llanilar edi. Ana shu davrda turkiy tilda ma'lum normalarni yaratish ehtiyoji vujudga keladi. Ana shu talabni qondirish maqsadida M.Qoshg'ariy «Devonu lug'otit turk» asarini yaratdi va bu bilan turkiy xalqlarning tilshunosligiga hamda madaniyatiga ulkan hissa qo'shdi. Ma'lumki, bu asarning yuzaga kelishi mamlakatda qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi va Somoniylar zamonasidagi madaniyat va ilmiy an'ana qoraxoniylar davrida ham davom ettirilishi bilan bog'liq edi. Ana shu davrda M.Qoshg'ariy arab filologiyasini o'qib o'rgandi. U arab filologiyasini qanchalik o'rganib borsa, o'z ona tilini o'rganish bilan shu darajada qiziqib bordi. U uzoq yillar mobaynida shaharma-shahar, tog'ma-tog' kezib, u yerlarda yashagan turkiy xalqlar hayotini, etnografiyasini va shu bilan bog'liq ravishda tilini o'rganib chiqdi. Har bir qabila tiliga xos bo'lgan dialektal xususiyatlarni aniqladi. «Men, deb yozadi M.Q., - turklar, turkmanlar, o'ruzlilar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim. Turli xil so'z xususiyatlarini aniqladim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun qildim, bo'lmasa, men tilda ularning yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida

usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta, bir asosda tartibga soldim». (DLT. I, 44-bet).

Mahmud Qoshg'ariy «Devon»da o'sha davrdagi turkiy qabilalar leksikasi, fonetikasi va grammatik qurilishini yoritib berdi. «Devon»da M.Qoshg'ariy iste'molda bor so'zlarni izohlash bilan bir qatorda, har bir turkiy qabilaning o'ziga xos xususyatini berish uchun alohida yo'l tanlaydi. Bu haqda shunday deydi: «Men har bir qabilaga mansub so'zlarni yasash xususyatlarini va qanday qo'llanishini qisqacha izohlab ko'rsatish uchun alohida yo'l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rlardan, shodlik va motam kunlarida qo'llaniladigan hikmatli so'zlaridan, maqollaridan keltirdim» (DLT, I, 47-bet) . M.. Qoshg'ariy so'z ma'nolarining kengayishi, etimologiyasi kabi hodisalar haqida ham to'xtalgan va chetdan qabul qilingan so'zlarga ikki xil munosabat bildirgan. Predmet va tushuncha bilan bog'liq ravishda kirib kelgan so'zlarga ijobiy munosabatda bo'ladi. Tilda mavjud bo'lgan so'zlar o'rnida boshqa tildan olingan so'zni qo'llashga salbiy qaragan va bu holatni zararli, manfiy holat deb bilgan. Bunga ko'ra *bilge*, *bitik*, *urag'ut* kabi turkcha so'zlar o'rnida arabcha *olim*, *kitob*, *ayol* so'zlarini qo'llamaslik kerak. M.Qoshg'ariy o'sha davr fonetikasga doir qimmatli fikrlarni bayon qiladi. Shu davr alfaviti to'g'risda: «Turkiy tillarda qo'llaniladigan asosiy harflar soni 18 tadir. Xolbuki, tildagi tovushlar 18 ta emas, ko'pdir. Bu 18 harf yetishmaydi. Bulardan boshqa tilda mavjud bo'lgan tovushlarni berish uchun yana 7 ta tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi» (DLT , 47-48-bet). Shuningdek, M.Qoshg'ariy unli va undosh tovushlar, ularning xarakteristikasi, tovush almashinishi qonuniyatlari haqida o'rinli fikrlarni bayon qiladi. «Devon»da turkiy tillar morfologiyasi haqida ham ma'lumotlar bor. Unda so'z turkumlari va so'z yasovchi affiksilar o'z davriga yarasha yoritilgan. M.Q.Aristotel fikriga tayanib, turkiy tilda 3 ta so'z turkumini ajratadi: ot, fe'l, yordamchi so'zlar. U sintaksis masalalarini «Devon»da yoritmaydi, chunki bunga bag'ishlab maxsus asar, «Javohirun-nahv fil-lug'otit turk» asarini yozgan, lekin u bizgacha yetib kelmagan. «Devonu lug'atit turk» asari 1914 yilda Turkiyaning Diyorbakr shahridan topiladi. Qo'lyozmani ko'chiruvchi Muhammad binni Abu Bakr Damashqiyning yozishicha, u nusxani M.Qoshg'ariyning o'z dastxatidan olgan. «Devonu lug'atit turk» 1915-17 yillarda uch tomndan iborat qilib Istambulda nashr etiladi. Shu nashr asosida K.Brokkelman 1928 yilda nemischaga tarjima qilib, uni nashr qiladi. 1939 yilda Anqarada Basım Atalay turk tiliga tarjima qiladi. 1960-63 yillarda esa prof. S.Mutallibov «Devon»ning o'zbek tilidagi tarjimasini yaratdi va nashr ettirdi. «Devonu lug'atit turk» turkiy xalqlar tillari tarixini o'rganishda muhim manbadir. Ayni zamonda, uni o'z davrining ensiklopedik asari deyish mumkin. Asarda turli qabila va xalqlarning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, urf-odati, geografiyasi materiallari bordir. Bu asarni o'rganish bilan O'rta Osiyo xalqlari va O'rta Osiyo madaniyatining kelib chiqishini yoritishda yuz bergan xato va kamchiliklarni bartaraf qilish mumkin. Mazkur asarning tarixiy ahamiyati ham shundadir.

3. O'zbek adabiy tilining shakllanish davrini ko'rsatuvchi asarlar sirasga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini kiritish mumkin. «Qutadgu bilig» asari she'riy pandnoma bo'lib, podsho Kuntug'di, dono vazir Oyto'ldi, Oyto'ldining o'g'li O'gdilmish o'rtasidagi suhbatdan iboratdir. Bu asarning uch qo'lyozma nusxasi fan ahliga ma'lum. Ulardan ikkitasi XV asrda ko'chirilgan, hozir Vena va Qohirada saqlanmoqda. «Namangan nusxasi» deb nomlangan nusxa XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan deb taxmin qilinadi. Ana shu nusxa asosida K.Karimov asarni hozirgi o'zbek grafikasidagi nashrini tayyorlab, chop qildi. «Qutadg'u bilig» hajm jihatidan ham, janr jihatidan ham yangi asardir. Janr nuqtai nazardan yangi asar bo'lgan bu kitob adib oldiga asar tili ustida ishlash uchun muhim talab qo'ydi. Bu talab, dastavval, o'sha davrdagi tarqoq qabilalar tilida mavjud bo'lgan til faktlarini hisobga olish va shu davrda ham savodli bo'lgan xalqning barchasi uchun tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat edi. Bu sharaflı vazifaning uddasidan chiqa olgan Yusuf Xos Hojib xalq ommasining so'z qo'llashdagi tajribasga suyanib, uslubistik slliqlikka erishdi. Shu nuqtai nazardan «Qutadg'u bilig» asarida Yusuf Xos Hojib o'sha davr tilini ma'lum bir sstemaga soldi va adabiy tilni rivojlantirishga o'zining xissasni qo'shdi. Asarga asos bo'lgan dialekt va til masalasiida turkologiyada turli qarashlar mavjud. V.Radlov bu asar tilini u yoki bu til bilan yaqinlashtirgan bo'lsa-da, qat'iy bir fikr aytmaydi va asarning «oltoylashtirilgan» transkripsiyasni beradi. V.Radlov «Oltoy nazariyas» ni yuzaga keltirgan sharqshunos edi. Bu nazariyaga ko'ra oltoy tilida so'z boshida va oxirida kelgan undoshlar faqat jarangsz bo'ladi. Ammo intervokal pozitsiyada undoshlar jarangli bo'lishi mumkin. O'zining shu nazariyasiga asoslanib, «Qutadg'u bilig»ni transkripsiya qilib chiqdi. Radlovning «Qutadg'u bilig» asariga berilgan transkripsiyasi asosida 1891 yilda nemischa tarjimasii e'lon qilindi. Radlovning bu qarashlari fanda ko'p e'tirozlarga uchradi. Bu haqda eng

ishonchli dalillar Daniya olimi V.Tomsen tarafidan ko'rsatilgan edi. V.Tomsen XI asr turkiy tilining yodgorligiga hozirgi zamon oltoy tillarining xususyatlaridan kelib chiqib yondashmaydi. Balki, u «Qutadgu bilig» tilining ichki xususyatlariga suyanadi. Tomsen «Qutadgu bilig» asarini tekshirar ekan, u asardagi qofiyalarga ahamiyat berdi. S.E.Malov bu asarni bir o'rinda chig'atoy tilida yozilgan asarlar qatoriga kiritib, boshqa bir o'rinda uni uyg'ur-musulmon yodgorligi deb ataydi va uning arabcha ko'chirilgan nusxalari XI asr uyg'ur tilini ravshan aks ettiradi deb ta'kidlaydi. Sharqshunos olim Z.Valizoda «Turk va tatar tarixi» (Qozon, 1912) asarida bu asar tilini sof turk tili deb talqin qiladi. Tadqiqotchi A.A.Valitova mazkur asarni qoraxoniylar davri tilida yozilgan asar deb e'tirof qildi. Q.Karimov «Qutadgu bilig»ning kirish qismidagi «Mochin olimlari va hakimlari qamuq ittifoq bo'ldilarkim, mashriq viloyatida Turkiston ellarida Bo'g'raxon tilincha bu kitobdin yaxshiroq hargizkim orso tasnif qilmadi. *Bu kitob qayu podshāqa yo qayu iqlimqa tekdi ersa goyat o'zlukindin nihāyatdin kichakur kullu-kullu kindin... tækmæ biri bir turluk laqab urdilar*»- degan jumalarga qarab, bu asar tili Bug'roxon qo'l ostida birlashgan turk davlati tarkibiga kirgan hamma asosiy qabilalar uchun tushunarli bo'lganligini bayon qiladi. Demak, asar tili o'sha davr turk qabilalari tillari asosni o'zida aks ettirgan. Shuning uchun ham «Qutadgu bilig»ni XI asrda yashagan biror xalqning yoki qabilaning yodgorligi deb qat'iy fikrga kelish qiyin. Shunga qaramasdan, asarda chigil qabilalarining tillari ustunlikka ega edi. Asar tilining struktura xususyatlari o'sha davr normalarini aks ettirgan. «Qutadgu bilig» yodgorligida forscha so'zlarga nisbatan arabcha so'zlar ko'proqdir. Biroq, adibning ko'rsatishicha, asarda bor-yo'g'i 94 ta arabcha so'z bor. Asarda O'rxun-Enisey yodgorligiga oid so'zlar anchagana: *bodun, qamuq, tæri (qonun), bayat (xudo), bayig' (past), bayiç (tushunarli), æd (vaqt), od (taxt), æriz (tinç), otachi (tabib) jogu (urf-odat)*. Yusuf Xos Hojib yodgorliklarda omonim, sinonim va antonimlardan ham unumli foydalangan: *at (loshad') -at (imya) —at (otmoq); achig' (achchiq) — achig' (toza)* kabi omonimlar, *yaruc—(yoruc') qaranq(-qorong'u), yaxshi-yaman, yumshaq-qatig', , achig'-tat'g'; beduk-qodu* kabi antonimlar, *achig'-silig (toza)* kabi omonimlarni uchratish mumkin. Dostondagi aksariyat so'zlar hozir ham (garchand fonetik jihatidan o'zgarsa-da) qo'llanadi. Shu davr fonetik xususyatiga ko'ra asarda 9 ta unli tovush (*i,æ,a,u,o, i,a,y,ø*) 28 ta undosh tovush qo'llangan. Sngarmonizm qonuniyati saqlangan. Morfologiyasi bo'yicha ko'zga tashlanadigan hodisa shundaki, unda kelishiklar ichida vosita kelishigi ham uchraydi:

Tirig ølgy æxir tæshænær yerig Kishi olsæ edgyn kær ati tirig.

Ma'nosi: Tirik oxiri o'ladi, yerni to'shanadi, kishi yaxshilik bilan o'lsa, ko'rgin oti tirik qoladi. (96-6).

Umuman, «Qutadgu bilig» asari XI asr qabila tillarini birlashtirishga va u tilni rivojlantirishga katta hissa bo'lib qo'shildi. Shuning uchun bu asar tilida o'zbek, uyg'ur, qirgiz kabi turkiy tillarga xos bo'lgan xususyatlarni uchratamiz.

3. Ulug' adib Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» yoki «Ajabatul-haqoyiq» asari badiiy so'z san'ati va o'zbek adabiy tilining juda qimmatli yodgorligi hisoblanadi. Mazkur asarning yaratilish davri haqida turli qarashlar mavjud. S.E.Malov asar tilidagi arxaik elementlarga qarab, uni X asrga tegishli desa, N.A.Baskakov, Aziz Qayumovlar uni XII asrga, V.M.Noslov esa XIII asrning I yarmida yaratilgan deb ko'rsatadilar. Ilmiy jamoatchilik ahliga asarning 3 ta qo'lyozma nusxasi ma'lum. 1-nusxani 1444 yilda xorazmlik Zaynal Obid binni Sulton Baxshi Jurjoniy Husayniy originaldan ko'chirgan bo'lib, Stambulda Aya Sofiya kutubxonasda saqlanadi (Uyg'ur yozuvida). 2-nusxa 1480 yilda Shayxzoda Abdurazzoq Baxshi tomonidan ko'chirilgan bo'lib, yuqoridagi kutubxonada saqlanadi (bu ham uyg'ur yozuvida). 3-nusxa arab yozuvida ko'chirilgan bo'lib, Stambuldagi kutubxonada saqlanmoqda. Bu uch nusxa asosida turkiyalik Rashid Rahmat Arat yuqoridagi yodgorlikning saylanma tekstini va tarjimasini yaratdi. V.M.Noslovning fikricha, bu tekstning tarjimasii u qadar muvaffaqiyatli chiqqan emas. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili tarixini ilmiy ravishda chuqur o'rganishda «Hibatul haqoyiq» asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. O'sha davrdagi qabila tillarining xususyatini aniqlash, ularning bir-biriga ta'siri, rivojlanishi, o'zaro qo'shilib ketishi va markazlashishi asosida xalq (elat) tillarining, ayniqsa o'zbek xalq (elat) tilining tashkil topish va shakllanish jarayonini belgilashda bu asarning ahamiyati nihoyatda kattadir. X-XI asrlarda maydonga kelgan asarlar bilan keyingi davrlarda yoki umuman, XIX asrgacha yaratilgan asarlarning tilini qiyosiy o'rganish, ulardagi umumiylik va farqlarni aniqlashda ham yordam beradi.

«Hibatul haqoyiq» asarining tili, uning leksik xususyati, tovush tarkibi va grammatik qurilishi, bir tomondan, «Qutadgu bilig» asariga yaqinlashsa, ikkinchi tomondan, «Qisas-ul anbiyo»ga (XIII-XIV asrlar) o'xshab ketadi. Bu asarni chuqur o'rgangan E.E.Bertels qadimgi o'zbek adabiy tilidan (aniqrog'i eski turkiy adabiy tildan) mumtoz o'zbek adabiy tiliga o'tishda «Hibatul haqoyiq» ko'prik vazifasni bajargan deb

ko'rsatadi. Darhaqiqat, asar tiliga xos lug'aviy qatlamlar, fonetik va grammatik xususiyatlarning qarluq, chigil, yag'mo, uyg'ur tillari negizida tashkil topgan adabiy til bilan mushtaraklikka ega ekanligi, ayniqsa, keyingi asrlarda bitilgan asarlar tiliga yaqinligi qabilalar eski turkiy adabiy tildan eski o'zbek adabiy tiliga o'tishda «Hibatul haqoyiq»ning ko'prik bo'lganligidan dalolat beradi. Asar o'zining leksik xususiyatlari bilan o'sha davrdagi eski turkiy adabiy tilining lug'aviy boyligini aks ettiradi. Moddiy-madaniy hayotning turli sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi, hamma uchun tushunarli, sodda, yasama va qo'shma turkiy so'zlar asar lug'atining asosni tashkil qiladi: *ata, ana,, ezgu, bash, bezek, berim (berish), boz, yazug (gunoh), yuz, yigig, kichik, konul, negu, sevunch, tamag', ulug'* kabi. Shu bilan birga, arab va fors-tojik tillaridan qabul qilingan so'zlar ham uchraydi: *saadat, saxavat, muruvvat, ma'ni, mehruban, karam, insaf, do'st, zamon, zoxid, dad, gul, vafa baxil, bina, amanat, aziz* kabi. Asarning tili o'z fonetik xususiyatlari jihatidan XI-XIII asrlarda yaratilgan yodgorliklar bilan umumiylikka ega. Shu bilan birga, eski o'zbek adabiy tili uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlarning ham vujudga kela boshlaganligini ko'rish mumkin. «Hibatul xaqoyiq» asarining tilini o'rganish unda 9 ta unli mavjud ekanligini ko'rsatadi. Ko'p hollarda sngarmonizmning lab ohangdoshligi buzilgan. O'sha davrdagi boshqa yodgorliklarda bo'lganidek, asar tilida z undoshining saqlanganligini, uning birmuncha ustunligini ko'rish mumkin. Ayni zamonda, bu tovushning y ga o'ta boshlaganligi ham ko'rinadi: kezingi - keyingi, kezim - kiyim, qazgu – kayg'u, qozi - kuyi, qo'zub - qo'yib.

Achunda at ezgu qozub bardi kor,

(Dunyoda yaxshi ot qoldirib ketdi, ko'r)

Harisliqin qoyur haris er qachan.

(Haris kishi xarislikni qachon qo'yadi).

Asarda sonor tovushlardan keyin jarangsz t ning jarangli d undoshiga o'tish hodisasi ham XI-XIII asrlar yodgorliklari uchun xos xususiyat hisoblanadi: *emdi, qutuldi, so'zyndin, ard'am, kandy*. Ko'rinadiki, «Hibatul xaqoyiq» asari fonetik xususiyati jihatidan XI-XIII asrlarda yaratilgan boshqa yodgorliklarga o'xshasa ham, o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Asar morfologik xususiyatlari jihatidan quyidagilar bilan ajralib turadi: tushum kelishigi affiksining *-ug', -yg* varianti arxaik shakl sifatida ancha siyrak uchraydi, asosan, *-im, -ni* shakllari qo'llanadi: *sozug - so'zni, bozug - buzni*. Navadur sozug az bolur azl okush (Qadrli so'z oz, hazil so'z ko'p bo'lur.). *-n, -un* affiksili vosta kelishigi shakli ham ancha arxaiklashgan bo'lib, kam uchraydi. Asal tatrub eligin tamag' tatir tib. (Qo'li bilan asal soldirib, taom berib). Jo'nalish kelishigining qadimgi turkiy til uchun xos bo'lgan —*g'aru, -g'ary* shakllari qo'llanmaydi, asosan — *gə, -ga, (-kə, -qa) -ə, -a* affiksili shakllar ishlatiladi. Asarda sifatdoshning *-təchi, -tachi (-dachi, dəchi), -g'li, -gli, -dug', -dyg* affiksi bilan qadimgi shakllari ancha arxaiklashib qolgan, kam uchraydi. Aksncha, *-g'an, -gən* affiksili sifatdoshlar unumli shaklga aylangan, ammo uning kesmlik vazifasda kelishi deyarli uchramaydi. *-da* affiksining chiqish kelishigi uchun qo'llanishi juda kam uchraydi. Olmoshlarda *bu-mu, oshul, kəndu-o'z, nəgu, neluk, qamug, anar-unga* kabi xarakterli holatlarni ko'rish mumkin. Sifatning qiyosiy daraja shakli – *rək/rak* va *-ru* affiksilari orqali ifodalangan: *okushrak - ko'prok,, kenru - kengroq (Kim ol yolsuz ərsə anna kənru yol - Kim yo'lsz bo'lsa, unga kengroq yo'l bor)* kabi.

Demak, «Hibatul haqoyiq» asari leksik, fonetik va grammatik jihatdan birinchi navbatda, X-XII asrlarda qo'llangan turkiy adabiy tilning barcha xususiyatlarini aks ettiradi, turkiy qabila tillarining ancha rivojlanaganligini, ma'lum tizimga kela boshlaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu asar o'zining til xususiyatlari jihatdan ma'lum tafovut va farq bo'lishiga qaramay, ko'p jihatdan XIII-XVI asrlarda yaratilgan asarlarning tili bilan umumiylikka ega. Ayni vaqtda, bu asar orqali eski turkiy adabiy tildan eski o'zbek tiliga o'tishda katta qadam qo'yilganligini, unga yaqinlashib kelinganligi ham aniq bilinadi. Bu esa o'sha davrdagi turkiy qabila tillarining o'zaro yaqin munosabatini, ularning rivojlanishini natijasida dastlab o'zbek xalq (elat) tilining tashkil topishi tezlashganligini, Shuningdek, boqsha turkiy elat tillarining shakllanish jarayoni davom etganligini tasdiklaydi. Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat»da adib Ahmad Yugnakiy haqida bunday deydi: «Va aning tili turk alfozi bila mavoiz va nasoiikka go'yo ermish. Balki aksar turk ulusda hikmat va nuktalari shoe'dur» va uning quyidagi baytini keltiradi:


Sonakka iliktur, erenge bilik,

Biliksz eran ul iliksz sonek

Savol va topshiriqlar:

1. Eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasii?
2. «Devoni lug'atut turk» asari va uning tili haqida gapiring?
3. «Qutadg'u bilig» asarida adabiy til me'yor masalasii qanday?
4. «Hibatul haqoyiq» asarida adabiy til me'yor masalasii nimadan iborat?
5. Oltoy nazariyasi va unga asos solgan olimlar haqida gapirib bering?

ESKI TURKIY TIL DAVRI



***Tayanch
tushunchalar:***


Oltoy nazariyasi-
Oltoy nazariyasiga
rus sharqshunos olimi
V.Radlov asos
solgan.

Chigillar – turkiy
qavmlardan biri. y
dialekti –XIV asrning
o'rtalaridan boshlab
adabiy til an'anasi
sifatida yuzaga chiqdi.

***d* dialekti** – chigillar
dialekti sanalib,
qoraxoniylar zamonida
vujudga kelgan adabiy
tilga asos bo'ldi.

2- ilova

Eski turkiy adabiy tili davrida yaratilgan asarlar:



4- mavzu	ESKI O'ZBEK TILI
----------	------------------

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejası:	1. XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari. 2. «Devoni hikmat» asari va uning tili. 3. «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili va uslubi. 4. Qarluq-uyg'ur adabiy tili rivojida "O'g'uznoma" asarining roli.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: eski o'zbek tilning xususiyatlari, «Devoni hikmat» asarining tili masalalari, «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili va uslubi, "O'g'uznoma" asarining tili haqidagi bilimlarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- eski o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish; - «Devoni hikmat» asarining tili masalalari bo'yicha olimlarning qarashlari haqida tushuntirish; - «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari ni yoritish; - "O'g'uznoma" asarining tili, yaratilishi haqidagi qarashlarni izohlash;	- eski o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - «Devoni hikmat» asarining tili masalalari bo'yicha olimlarning qarashlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - "O'g'uznoma" asarining yaratili, til xususiyatlari haqida bilib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va	1.1. Eshitadilar, yozib

	rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Eski o'zbek tili qaysi davrlarni o'z ichiga oladi? 3.2. Eski o'zbek tili davri haqida ma'lumot beradi. 3.3. «Devoni hikmat» asari yuzasidan savollar beradi va javoblarni to'ldiradi. 3.4. «Qissasi Rabg'o'ziy» asari yuzasidan tekshirish savollari beriladi, asarning tili va uslubini to'liq yoritib beradi. 3.5. «O'g'uznoma» asarining tili, yaratilish davri haqidagi fikrlari tahlil qilinadi.	3.1. Eskii o'zbek tili davri haqida bilgan ma'lumotlarni sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. «Devoni hikmat» asari to'g'risida bilganlarini aytadilar va kiritilgan nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. «Qissasi Rabg'o'ziy» asari yuzasidan tekshirish savollariga jabob beradi va qo'shimcha ma'lumotlarni yozib oladilar. 3.5. «O'g'uznoma» asarining tili, yaratilish davri haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

4-MAVZU

ESKI O'ZBEK TILI

Reja

- XII asrdan keyingi o'zbek adabiy tilining xususiyatlari.

6. «Devoni hikmat» asari va uning tili.
7. «Qissai Rabg'o'ziy» asarining tili va uslubi.
8. «Qarluq-uyg'ur adabiy tili rivojida "O'g'uznoma" asarining roli.

Tayanch tushunchalar

Qarluq tili gruppasuu – o'zbek tili uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq tili gruppasga kiradi

Ilk davr o'zbek tili - sharqiy adabiy til va g'arbiy adabiy til asosida rivojlandi.

Sharqiy adabiy til - sharqda qarluq, chigil, uyg'ur dialekti asosida rivojlandi.

G'arbiy adabiy til - Movarounnahr va Xorazmda o'g'uz-qipchoq dialekti asosida vujudga keldi.

1. O'zbek adabiy tilining XII asrdan so'nggi takomilida XI-XIV asrlardagi tarixiy voqealarning roli kattadir. Ma'lumki, *mo'g'ul* qabilalarining faolligi X asrdanoq osha boradi. Ularning qabilalaridan bo'lgan qoraxitoylar XII asrning o'rtalarida O'rta Osiyoga bostirib kiradilar. Bu yerda ular ikki tomondan kurash olib borishga majbur bo'ladilar. Bir tomondan, Xorazmshoh davlati bilan, ikkinchi tomondan, mo'g'ul urug'laridan naymanlar bilan. Xorazmshohlar bu kurashda ko'chmanchi qipchoqlar, o'g'uzlardan foydalanadilar va qoraxoniylarni siqib chiqaradilar. Lekin ular O'rta Osiyo, xususan, o'zbek elati tarkibida xitoy deb nomlangan urug'ni qoldirib ketdilar. XIII asrning boshlarida esa O'rta Osiyoga mo'g'ullarning istilosi boshlanadi. V.Bartoldning ta'kidlashicha, bu tarixiy voqea O'rta Osiyoda barpo bo'lgan davlatning tiliga ham ta'sir etdi va uning tili turkiy til bo'lib rasmiylashdi. Mo'g'ullar istilosi natijasida tuzilgan davlat *Chig'atoy davlati* deb yuritildi va XIV asrning oxirigacha Temuriylar imperiyasi tuzilguncha davom etdi. Chig'atoy davlati turkiy, eroniy til va madaniyatiga ega bo'lgan qabila va elatlar yashovchi territoriyada tashkil topdi va o'zining yozma adabiy tilini yaratdiki, u Navoiy davridagi eski o'zbek adabiy tiliga baza bo'lib xizmat qildi. Chig'atoy tili deb atalgan adabiy til ilmiy adabiyotlarda qoraxoniylar davrida tashkil topgan qarluq-chigil-uyg'ur va g'arbiy xorazm (o'g'uz) tilining davomi hamda taraqqiy etishi natijasida yuzaga keldi, deb e'tirof qilinadi. XII-XIV asrlar adabiy tiliga qoraxoniylar davri tili negiz qilib olinganligi uchun ham, tildagi «*d*» lashishga aylana boradi. XIII asrda mo'g'ul qabilalarining ta'sirida Xorazm aholisning turkiy tilga o'tishi jarayoni tugallandi. XIII asr oxiri va XIV asr boshlarida turkiy tillarda so'zlovchi aholilar faqat qishloqlarda va cho'l rayonlarda emas, balki O'rta Osiyo, Qashqarning yirik shaharlarida ham oshib bordi. Bu esa badiiy adabiyotda kitobiy tilga nisbatan jonli xalq tiliga murojaat qilishni taqozo qila boshladi. Shu bilan birgalikda XIII- XIV asrlarda Xorazmni ham qo'shib olgan **Oltin O'rda** davlati tuziladi. Oltin O'rdaning bir qismi bo'lgan **Xorazmda adabiy til** qipchoq-o'g'uz tili elementlari asosida rivojlandi. Xorazm orqali Oltin O'rdaning Movarounnahrqa ta'siri kuchaydi. Natijada XIV asrga kelib O'rta Osiyoning markaziy qismi bilan Qashqar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar uziladi. O'zbek tilining taraqqiyotiga o'troq hayot kechiruvchi va ko'chmanchi qabilalar munosabati ta'sir etmasdan qolmadi. Ko'chmanchi o'zbeklar O'zbekxon boshchiligidagi XIV asr boshlarida Movarounnahrqa bir necha bor yurish qildi. Bu yurishlar Abulxayrxon va Shayboniyxon davrida yana ham kuchaydi. Ko'chmanchi o'zbeklar ta'sirida «*d*» dialekti o'rnida «*y*» lashgan dialektga o'tish jarayoni kuchaydi. Demak, qipchoq elementlari sezilarli o'rin egallay boshladi. Shuningdek, Movarounnahrning g'arbi, shimoliy g'arbga va janubiy Xorazmga o'g'uz qabilalarining ta'siri kuchaya boshladi. O'g'uzlar ham «*y*» lashgan dialektga gaplashar edilar. Ana shu tarixiy jarayon natijasida qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan, X-XII asr yodgorliklarida aks etgan, XII-XIV asr kitob tili an'anasiga aylanib ketgan «*d*» lashish XIV asr g'arbiy adabiy til (Xorazm) ana'nasi ta'sirida «*y*» lasha boshladi. Bu holat «O'g'uznoma» va Oltin O'rda sikliga kiruvchi boshqa asarlar tilida ham uchraydi. Aksincha, qarluq-chigil-uyg'ur tili g'arbiy turkiy tillarga ta'siri ham bo'lgan. Bu ta'sir mo'g'ullargacha kuchli yuz bergan bo'lib, sharqiy adabiy tilning susayishi bilan g'arbiy adabiy til, yoki N.A.Baskakov termini bilan aytganda qarluq-xorazm adabiy tilining taraqqiyoti boshlandi. N.A.Baskakov fikricha, qarluq-xorazm adabiy tili keyinchalik eski o'zbek adabiy tilining yaratilishiga zamin bo'lgan. Qoraxoniylar davlati hukmronligi tugagandan keyin Xorazmda qarluq-xorazm adabiy tili vujudga keldi. Bu til mo'g'ullar istilosidan so'ng ikki bir-biriga yaqin bo'lgan adabiy tillarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ulardan biri Oltin O'rda yoki Xorazm adabiy tili va ikkinchisi Chig'atoy ulusning tili. Qarluq-xorazm adabiy tilining yodgorligi sifatida Rabg'o'ziyning «Qissasul-anbiyo», Alining «Qissai Yusuf», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» kabi asarlarni ko'rsatish mumkin.

2. A.Yassaviy so'z san'atidan foydalanib, tasavvuf ilmini targ'ib qiluvchi she'rlar yozdi va «Devoni hikmat»

devonini tuzdi. Devonning qo'lyozma va bosma nusxalari ham bir-biridan farq qiladi. Bu nusxalar hatto til va uslub jihatdan ham farq qiladi. "Devoni hikmat" ning birorta nusxas tili XII asr o'zbek tili yodgorligi bo'la olmaydi. Chunki A. Yassaviy hikmatlari kitobdan-kitobga, og'izdan-og'izga o'tib, o'zining asl tilini o'zgartirib yuborgan. Hatto "Devoni hikmat"ga kiritilgan she'rlarning kinga tegishli ekanligini aniqlash ishini ham mushkullashtiradi. Uzoq zamonlar davomida "Devoni hikmat"ga turli xil o'zgarishlar kiritilgan. Bu o'zgarishlar she'rlarning hajmi va miqdoriga, til va uslubiga ham taalluqlidir. Yassaviy hikmatlarining tili, uslubi o'zgarib, keyingi davrlarning tiliga muvofiqlashib borgan. Ma'lumki, "Devoni hikmat" Yassaviychilik tantanasi davrida, ya'ni XV-XVI asrlarda to'plangan. Shuning uchun A. Yassaviy hikmatlarining tili haqida ham turli xil fikrlar mavjud. A.K. Borovkov "Yassaviy hikmatlari qarluq-uyg'ur tilida yozilgan bo'lib, "Qutadg'u bilig" tiliga yaqinlashmaydi", deb ta'kidlasa, G. Vamberi hikmatlar tili Qo'qon xonligi dialektiga asoslangan, deydi. A.K. Borovkov yana Yassaviy hikmatlari tili haqida gapirib, uni qarluq-qipchoq-o'g'uz tili asosida rivojlangan, deydi. Lekin bu fikrni isbotlash uchun Yassaviyning o'zi yozgan hikmatlarning o'zgarishga uchragani imkon bermaydi. Saqlanib qolgan hikmatlarning matnlari bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi. Hikmatlari tilini tahlil qilar ekanmiz, ularda mahalliy shevalarning xususiyatlari o'z ifodasni topganligini ko'ramiz. "Devoni hikmat" matnini ko'chirgan kishi qaysii sheva vakili bo'lsa, uning tilida o'sha dialekt xususiyati aks etgan. Jonli o'zbek tili shevalarida qaratqich va tushum kelishigi uchun -ni shakli qo'llanadi. Bu hol hikmatlarda ham uchraydi (daryani, gavharni, karvanni). Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik shakli **-gil,-gin,(-g'il,-g'in)** affiksarlari orqali hosil qilinadi. Masalan: korgil-korgin, salg'il-salg'in qabilar. Leksika sohasida ham ba'zi dialektal unsurlarni uchratamiz: **yaqin, yavuq**: yig'laymu o'lar vaqtim yaqin yetti; yig'laymu o'lar vaqtim yavuq yetti. Bundan tashqari hikmatlar tilida arabcha-forscha unsurlar ko'plab uchraydi. Forscha unsurlar hikmatlarning keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxalarida ko'p uchraydi. "Devoni hikmat" tildan-tilga, kitobdan-kitobga o'tib borar ekan, P.M. Melioranskiy aytganidek, til jihatidan zamonaviylashib borgan. Hikmatlarda fonetik jihatdan so'z oxirida **"g"** tovushining kelish holati uchraydi: tufraq', tanig', qamug', chirag', ulug' kabi. Shuningdek, **-lug', -lig'** affiksi bilan yasalgan nisbiy sifatlar ham qo'llanadi.

Muhabbatlig' oshiqdari rangi sarig',

Oinaga nazar qilsa andin tanig',

O'zi hayron, ko'zi yoshlig'.

Bu til xususiyatlar qadimgi Urxun-Enasoy yodnomalarida, "Qutadg'u bilig", "Qissai Rabg'uziy" va XV asr yodgorliklarida ham bor. Lekin "g" o'rinda keyingi davrlarda "q" tovushi ishlatilgan. Bu xususiyat hikmatlarning keyingi nusxalarida ham uchraydi. Rabg'o'ziyda, "Tavsir"da va qisman XIX asrgacha saqlanib qolgan ravishdoshning eski shakli **-yu** shakli va eski uyg'ur tili va XIV asr yodgorliklarida keng tarqalgan sifatdosh yasovchi shakl **-yur** "Devoni hikmat"da juda kam ishlatiladi. Sharqiy adabiy tilda qo'llanuvchi hozirgi-kelas zamon fe'l shakli **-g'u** Yassaviy hikmatlarida ko'p ishlatiladi. **Zari qilsang banda devan surg'um mano, Shafi bo'lub shafaatni qilg'um o'zum.** Umuman, Yassaviy hikmatlarining tili qorlug'-Xorazm adabiy tili an'anasiga borib taqaladi.

3. Mo'g'ullar istilosi ma'lum darajada diniy reaksiyaning kuchayishiga olib keddi. Bu holat badiiy adabiyotga ham ta'sir qildi. Aksariyat adiblar diniy qonunlarni xalqqa tushunarli tilda yoritishga harakat qildilar. Bunda ular qissa janridan foydalandilar. Qissalarda esa so'zlashuv tiliga ko'plab murojaat qila boshladilar. Natijada xalq tiliga xos elementlar ayrim diniy afsonaviy syujet asosida yozilgan asarlar uslubiga kirib keddi. Shu jihatdan Rabg'uziyning «Qissasul anbiyo» asari xarakterlidir. Rabg'uziy XII asrning oxiri va XIV asrning boshlarida yashagan. Uning «Qissasul-anbiyo» asari shu davr tilini o'rganishda muhim manbadir. Bu asar 72 qissani o'z ichiga olib, unda «Qur'on» va boshqa diniy kitoblardagi syujet saqlangandir. Rabg'uziy islom dinini targ'ib qilish maqsadida xalqqa tushunarli bo'lish uchun xalq so'zlashuv tiliga murojaat qiladi. Asarda xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan qissa va latifalar uslubi ustun darajada o'z ifodasni topgan. Bu esa kitobiy til bilan xalq tilini bir-biriga yaqinlashtirish imkonini tug'dirar edi. Rabg'uziy bayon etish uslubini juda soddalashtirgan va asarida xalq ertaklari uslubini tanlab, «Qissadan xissa» chiqarib boradi. Xalq maqollaridan ham ustalik bilan foydalangan «Qissai anbiyo» asari **fonetik** jihatidan dz-lashishning kamayib, y-lashish hodisasidan kengroq qo'llangan davrga to'g'ri keladi. Ba'zi o'rinlarda har ikkalasi parallel qo'llangan: *idim-izim (janob-xudo)* va h.o. **Morfologik** xususiyatlariga nazar tashlaganda quyidagilar qo'rinadi: qaratqich kelishigi *-niḡ/-ḡ/-nuḡ/-i-i/-in* affiksi variantlariga ega: *Arabnuḡ adabi bar. Ul eliḡ əvləri*. Jo'nalish kelishigi *-g'aru/-g'əry* affiksi variantiga ega; *tashqaru, qayg'aru, yengaru (oldinga)*. Asarda kishilik olmoshlariga kelishik qo'shimchalari ikki


marta qo'shilishi mumkin: *Bizindin qachtin. Sizindin keding.* Jamlik son *-əgu* affiksi bilan hosil qilingan: *ikəgy, ychəgy. Tartib son-inch: birinch, ikinch.* Ravishdoshning *-madin -(matin)* affiksi bilan hosil qilingan varianti: *Atam səzin tutmadin.* Shart fe'liining I shaxs ko'pligida *-uz (-vuz)* qo'shimchasi qo'llangan: *Bu uch nəsinə aḡa arguman apparsauz gərek erdi* va h.o.

4. O'rta Osiyo turkiy xalqlari - o'g'uz va qarluq-uyg'ur dialektining qadimgi yodgorligi hisoblangan «O'g'uznoma»ning qachon va qayerda ko'chirilganligi haqida hozirgacha aniq ma'lumot yo'q. N.M.Mallayev bu asarni XIII- XIV asrlarda, A.M.Shcherbak XV asrda kitobat qilgan deb ma'lumot beradilar. Nemis olimi V.Bang «O'g'uznoma»ning til xususyatlarini taxlil qilish asosida afsonaning tilini shartli ravishda yangi sharqiy turkiy til deb ataydi va P.Pellioning fikriga ancha yaqin mulohazani ilgari suradi. A.M.Shcherbak «O'g'uznoma»ning turli qo'lyozmalarini o'rganish, uning tilini boqsha asarlar bilan qiyoslash asosida shunday xulosaga keladi: asl nusxa ko'lyozmaning tili «y» lovchi shevada yozilgan, so'z negizining fonetik shakllanishida lablashmagan tovushlar ko'proq ishtirok etadi. Asar XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Turfon (Qashqar)da yozilgan. Qabila ittifoqlarining birlashishi tamoyilining kuchayishi, buning natijasida ancha qat'iylashgan qarluq, uyg'ur, o'g'uz tili xususyatlaridan tashqari, keyinroq kirib qolgan qipchoq unsurlari ham asar tilida aks etgan. Bu dialektlarning hammasi esa birgalikda eski o'zbek tilining negizini tashkil qiladi. Asarda qadim zamonlarda yaratilgan mifologik afsonalar bilan birga dahshatli istilo va urushlar tasviri berilgan. Bu, ehtimol, Chingiz istilosining in'ikosi bo'lishi mumkin. Asar tilidagi mo'g'ul elementlari ham shundan dalolat beradi. Asar tilida qarluq-uyg'ur, o'g'uz qabila ittifoqi xususyatlarini uchratamiz. Afsona tilida yuqori-tor unilardan so'ngi til orqa unilarning qo'llanishini ko'ramiz: adug, tirig, tag' va x.o. Darhaqiqat, «O'g'uznoma» tilida nisbatan yangi fonetik, leksik va fannatik xususyatlar anchagina uchraydi. Masalan, so'zda d, dz ga nisbatan y tovushining ustunligi hodisasini ko'rish mumkin: adg'ir, qod o'rmda ayg'ir, qoy ishlatiladi. Ammo bu holat hali qat'iy bo'lmay, ularning muvoziy qo'llanishi ham uchraydi: ayg'ir, adug (ayiq) kabi. Unilar uyg'unligi to'la saqlangan: *urungudun son qalmlari (eshik) tzmurdun erdilar.* Undoshlarda jarangszlanish hodisas kuchli: atni keldurdi. Tan erte boddukta. So'z oxirida tor va keng unilardan keyin tilrqa g', g tovushlari saqlanadi: tirig, olug, tag', adug'. Kishilik olmoshlarining I shaxsda b undoshi m shaklida keladi: *baluqni (shahar) benga saqlab kelgil. Menge atam bu baluqn'! Berub turur.* Qaratqich kelishigining *-niḡ, -nuḡ* turlari ko'proq uchraydi: *bəshin əgulm, og'uz qag'anniḡ ati, anuḡ bashi, qagannuḡ chərigi* kabi. Asarda tushum kelishigining qadimgi *-ig',—ig* affiksili shakli, *-i/-n, -/i/-n* affiksi orqali yasalgan shakli qo'llanmaydi. Asarda *-duk, -dyk, -g'u, -gy* affiksili sifatdoshlar uchrab turadi: *yibarguda erdi. Urushg'udun son. Og'uz kərdyktə əzi kətti* kabi. Tartib sonlarning ikkinchi (ikkinchi o'rmda), *uchunchu, uchunchi (uchunchi o'rmda)* shakllari qo'llangan. Bu yodgorlikda leksik jihatdan tapuq (xizmat), təlim (ko'p), tug' (bayroq), baluq (shahar), bərgu, qapug', uqg'ulug', chərig, muran (daryo), achqich (kalit), toqush, koruklug kabi eski turkiy, mo'g'ulcha so'zlar uchraydi. Bu faktlar asarda qarluq-uyg'ur tili xususyatlarining ustun ekanligini ko'rsatadi. Asar tilida uchraydigan bir qator mo'gulcha so'zlar esa o'sha davrlarda turkiy tillarga kirib o'zlashib qolgan yangi leksik qatlamni tashkil qiladi. «O'g'uznoma» asarining tili faqat ba'zi bir xususyatlari bilangina eski o'zbek adabiy tilidan farq qiladi, u ko'proq qarluq-uyg'ur tili an'analariiga yaqin turadi. Demak, «O'g'uznoma» asarining til materiallari orqali eski o'zbek adabiy tilining qarluq-chigil-uyg'ur til birligi bilan yaqin munosabatda, uzviy aloqador ekanligi aniqlanadi. So'z o'rtasda d-y tovushlari almashadi: *adug'-ayug' kabi.* Jamlik son: *- egu, uch egu, ik egu, besh egu.* Harakat nomi: *-ish/-ish/-sh* affiksili va h.o.

Yuqoridagi faktlar «O'g'uznoma» asarining XIII- XIV asr yodgorligi shu davr adabiy tilining namunasi deb qarashga to'la imkoniyat beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Devoni hikmat" til jihatdan "zamonaviylashib " borgan degan fikrga munosabatingiz?
2. "Qissai Rabg'o'ziy" asarida fonetik jihatdan qaysii dialekt ustun?
3. "O'g'uznoma" qaysi dialekt yodgorligi hisoblanadi?



2-ilova

Tayanch tushunchalar:

Qarluq tili guruhi – o'zbek tili uyg'ur tili bilan birgalikda qarluq tili guruhiga kiradi.


Ilk davr o'zbek tili - sharqiy adabiy til va g'arbiy adabiy til asosida rivojlandi.

Sharqiy adabiy til - sharqda qarluq, chigil, uyg'ur dialekti asosida rivojlandi.

G'arbiy adabiy til - Movarounnahr va Xorazmda o'g'uz-qipchoq dialekti asosida vujudga keldi.

3-ilova

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tili haqida



QIPCHOQ KOMPONENTINING AHAMIYATI

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1.Oltin O'rda adabiy tili haqida. 2. «Xusrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq til unsurlari. 3. «Muhabbatnoma» asari va uning til xususiyatlari. 4. Aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'zbek adabiy tilining rivojida o'g'uz-qipchoq komponentining ahamiyati, «Xusrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq til unsurlari, «Muhabbatnoma» asarining til xususiyatlari, aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi haqidagi bilimlarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- o'zbek adabiy tilining rivojida o'g'uz-qipchoq komponentining ahamiyati haqida ma'lumot berish; - «Xusrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq til unsurlari haqida tushuntirish; - «Muhabbatnoma» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari ni yoritish; - aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi haqidagi olimlar qarashlarini izohlash;	- o'zbek adabiy tilining rivojida o'g'uz-qipchoq komponentining ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - «Xusrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq til unsurlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - «Muhabbatnoma» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi haqidagi olimlar qarashlarini o'rganib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. O'g'uz, qipchoq lahjasining farqi? 3.2. o'zbek adabiy tilining rivojida o'g'uz- qipchoq komponentining ahamiyati haqida ma'lumot beradi. 3.3. «Xusrav va Shirin» dostonidagi o'g'uz- qipchoq til unsurlari haqida tushuncha beradi. 3.4. «Muhabbatnoma» asarining tili va uslubi, o'ziga xos xususyatlarini nazariy jihatdan yoritib beradi. 3.5. Aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi haqidagi olimlar qarashlari tahlil qilinadi.	3.1. O'g'uz, qipchoq lahjasining farqi haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. «Xusrav va Shirin» dostonida o'g'uz-qipchoq til unsurlari haqida nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. «Muhabbatnoma» asarining tili va uslubiga oid nazariy ma'lumotlar ni yozib oladilar. 3.5. Aralash dialekt xususiyatlarining «Tavsir»da aks etishi, bu haqida olimlar fikrlarini yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

O'ZBEK ADABIY TILINING RIVOJLANISHIDA O'G'UZ- QIPCHOQ KOMPONENTINING AHAMIYATI

REJA:

1. Oltin O'rda adabiy tili haqida.
2. "Xusrav va Shirin" dostonining til xususyatlari.
3. "Muhabbatnoma" asari va uning til xususyatlari.
4. «Tafsir» asarining tili va uslubi

Tayanch tushunchalar:

Qarluq-xorazm adabiy tili - qoraxoniylar davlati hukmronligi tugagandan keyin vujudga kelgan. *Chig'atoy adabiy tili*- ilmiy adabiyotlarda qoraxoniylar davrida tashkil topgan qarluq-chigil-uyg'ur va g'arbiy xorazm tilining davomi hamda taraqqiy etishi natijasida paydo bo'ldi, deb e'tirof etiladi.

1. Oltin O'rda adabiy tili qarluq-xorazm adabiy tili ta'sirida rivojlandi. Shuning uchun Oltin O'rda sikliga kiruvchi yodgorliklarni ko'pchilik adabiyotlarda Xorazm yodnomalari deb ham yuritiladi. Xorazm yodgorliklarida qoraxoniylar davri adabiy tili, o'g'uz, qipchoq elementlari aralashgan, bu bilan esa umumxalq tili grammatik qurilishi va leksikasni boyitgan. Xorazm yodgorliklari umumiy bir adabiy normaga ega emas. Asarning yozilgan o'rniga qarab, fonetik, grammatik va leksikasi o'ziga xos xususyatlarga ega bo'lgan. Masalan; «Muhabbatnoma» va «Nahjul Farodis» kabi asarlarda o'g'uz va qipchoq elementlari aralash holda qo'llansa, «Xisrav va Shirin», «Me'rojnom» (Muhammad payg'ambarning Makkadan Quddusga borishi va Quddusdan ko'kka chiqishi haqidagi noma) kabi asarlarda o'g'uz, qipchoq hamda qoraxoniylar davri tilining aralash qo'llanilganini ko'ramiz. Oltin O'rda adabiy tilining eng xarakterli yodgorliklaridan biri Qutbning «Xisrav va Shirin» dostonidir.

2. A.M.Shcherbak asar tili Oltin O'rda turkumiga kiradigan «Muhabbatnoma» va «Taashshuqnoma» asarlari tilidan lug'aviy, fonetik va morfologik jihatdan farqlanishi, ayni zamonda qoraxoniylar davri yodgorliklari bo'lgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» va Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» asarlari bilan bir qatorda turishini aytadi, lekin qayd etilgan asarlar tili bilan qiyoslangan faktlarni keltirmaydi, balki «Xusrav va Shirin» dostoni tiliga xos bo'lgan ayrim fonetik va morfologik xususyatlarini sanab o'tadi, xolos. «Xusrav va Shirin» dostoni va umuman, XIV asr yodgorliklari ustida maxsus tadqiqot ishi olib borgan E.I.Fozilov ham asar tilining «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlari tilining xususyatlari bilan ayrim umumiy tomonlarga ega ekanligini ko'rsatadi hamda o'sha xususyatlarni sanab o'tadi. Shu bilan birga, E.I.Fozilov Xorazm yodgorliklarining dialektal asoslari to'g'risda fikr bildirib, unda o'g'uz, qipchoq, bulg'or, uyg'ur unsurlarining sinonimik qo'llanishini ta'kidlaydi hamda P.M.Melioranskiyning «dialektal rang-baranglik» haqidagi fikriga to'la qo'shiladi. Shu munosabat bilan ayrim mulohazalarni bildirish o'rinli bo'ladi. «Husrav va Shirin» asari ma'lum adabiy til an'anasi yuzaga-kelgan davrda yaratilgan. Bu davrda adabiy tilda endigina me'yorlar tizimi paydo bo'la boshlagan edi, ayni zamonda, qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy til an'anasining ta'siri kuchli edi, chunki o'sha davrda o'zini olim va fozil sanagan har bir kishi butun sharqqa mashhur bo'lgan «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq» asarlarini o'rganmasdan, undan bahra olmasdan qolmas edi. Ma'lumki, sanab o'tilgan asarlar tilida ham qarluq ham chigil dialektlarining xususyatlari aks etgan, shu jihatdan ham «Xusrav va Shirin» dostoni tilida uyg'ur tili unsurlari bo'lgan. Aslida uyg'ur tili unsurlari to'gridan-to'g'ri uyg'ur tili yoki uning dialekti ta'sirida emas, balki mavjud adabiy til an'anasi tufayli yuzaga kelgan. Anglashiladiki, asar tili shevasi xususida gap borar ekan, «dialektlar rang-barangligi» haqida emas, balki o'g'uz-qipchoq shevasning qisman ta'siri haqida so'z yuritish mumkin bo'ladi. O'zbek adabiy tili tarixiga nazar tashlasak, XIII-XI V asarlarda endigina eski turkiy adabiy tildan ajralib chiqqan boshlagan eski o'zbek adabiy tilining «qarluq-xorazm adabiy tili» «Chig'atoy ulusi adabiy tili», «Oltin O'rda adabiy tili» degan yorliqlar bilan yuritilganini ko'ramiz. Sirtidan qaraganda, o'zbek adabiy tili xususida deyarli gap bormayotgandek tuyuladi. Nima uchun bir adabiy tilni turlicha nomlash zarur bo'ladi? Aslida bunga hojat yo'q, chunki XIII- XIV asrlarda garchi ma'lum darajada dialektal farqlar mavjud bo'lsa-da, ularni turli-tuman adabiy til manbai sifatida karash mumkin emas. Bu qisqa davrdagi adabiy tilning turlicha nomlanishida, ayniqsa, «Chg'atoy», «Oltin O'rda» nomlari bilan yuritilishida ilmiy-lisoniy asos yo'q bo'lib, u

ko'proq bosqinchilik siyosati bilan bog'langan edi. Shu tufayli XIII- XIV asrlarda yaratilgan va yuqoridagidek turlicha nomlanib kelingan asarlar tilini adabiy til nuqtai nazaridan umulashtirib o'rganish kerak, lekin o'ziga xos tomonlari bo'rttirib ko'rsatilishi lozim, deb hisoblaymiz. N.M. Mallaev «Xusrav va Shirin» dostoni XIV asr o'zbek adabiy tili va Xorazm dialektining muhim yodgorligi ekanligini ta'kidlaydi. Bu fikr ham izoh talab qiladi. Umuman olganda, har bir badiiy asarni ma'lum dialekt bilan bog'lab qo'yish mumkin emas, chunki avval ta'kidlaganimizdek, badiiy asar til an'anasi asosida yuzaga keladi, ya'ni ma'lum dialektning badiiy asari haqida so'z yuritib bo'lmaydi. Shu ma'noda «Xusrav va Shirin» dostonining tili Xorazm dialekti asosida yaratilgan deb aytish qiyin. Ikkinchi tomondan, har bir asar muallifi muayyan dialektning vakili bo'lganligi uchun ham asarida o'z dialekti unsurlaridan foydalanishi aniq. Bu esa badiiy asarni ma'lum dialekt bilangina bog'lab qo'yish uchun asos bo'la olmaydi. N.M. Mallaevning yuqoridagi fikri adabiyotchilarga xos mubolag'a bilan aytilganini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Asar tilining fonetik jihatdan qaysi dialektga aloqadorligi masalasii ham e'tiborni tortadi. Bu masalada ham ixtilofli fikrlar mavjud. A.M.Shcherbak asar tilida qorishiq undoshining keng qo'llanishini ta'kidlaydi. Asarda hamon dz - lashish saqlanadi. Misollarga murojaat qilamiz: *adz—ism, egarlamog, ədzgarlamak—egarlamoq, ədzgulik —yaxshilik, udzimaq -uxlamoq umidz—umid, shadzliq—shodlik, qudzi - quyi, kudzəku —kuyov, pochcha* va boshqalar.

Adaqi yer yuzini barcha kezmish,

Felek anih ishin roy'shcha tuzmish. (138)

Og'ul ədgu yaman che qilsa andin,

Kəru əz og'li yandurg'ay jazasin. (141)

E.Najib doston tilida 2500 turkiy so'zlar qo'llanganligini qo'rsatadi. Bu raqam ichiga so'zlarning turli variantda yozilishini ham kiritgan. Masalan: aktachi, tabib), (ev) va boshqalar. Doston leksikasda umumturkiy so'zlar 39 % ni tashkil etadi, qolgan so'zlar esa o'g'uz (12), qipchoq (8), janubiy-sharqiy dialektga oid (21), o'g'uz (3), sharqiy qipchoq (14) unsurlaridan iborat. Turkiy so'zlar doston tilida taxminan 65 % tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda doston leksikasida quyidagi qatlamlar ko'zga tashlanadi:

1. Turk-mo'g'ul tillari davriga oid so'zlar. Ma'lumki, turkiy tillar mo'g'ul tillari bilan birgalikda Oltoy tillari oilasni tashkil etadi. Shuning uchun ham asar tilida (umuman, har bir turkiy tilda) turkiy va mo'g'ul tillari uchun umumiy leksik qatlam mavjud. Buni quyidagi so'zlar misolida ko'rsatish mumkin: *Adaq, idi (hokim), eren (kishilar), arpa, art, erte (erta), asan (eson), al (qizil), altun, aldag' (aldoqchi), alms, alma, empək, uminj (umid), anbar (saroy), av (ov), uzuk (g'am), ork (asos), urug' (oila), ulus, elchi, bag' (bog'ich), bal (asal), bilik, tabaq (ovqat), tabg' (xizmat), sormaq (so'rmoq), sunmek (taklif qilmoq), qatn (qattiq), qan, qaraq (ko'z qorachig'i), qarshm (saroy), qarg'u (ko'r), qamug' (barcha), qonrag'u (qo'ng'iroq), qir (cho'l), kerək, kəks (ko'krak), kichi (kichik), mal (boylik), yyrək, yəz, yil, yimish (meva)* va boshqalar.

2. Arabcha-foscha so'zlar. Doston tilida arabcha-forscha so'zlarning bo'lishi ikki munosabat bilan izohlanadi, ya'ni asar bevosita fors-tojik tilidan tarjima qilinganligi tufayli ham fors-tojikcha so'zlardan foydalanish zaruriyati bo'lgan; ikkinchidan, muallif yashagan vohada turkiy til fors-tojik tilini allaqachon siqib chiqargan bo'lsa-da, bu til unsurlari hali iste'molda bo'lgan. Arab tili unsurlari esa bevosta islom dini ta'sirida hamda fors-tojik tili orqali o'zlashib qolgan. Asar tilida quyidagi arabcha so'zlar qo'llanadi: *ajal, āxir, āadam, asbāb, atrāf, imin (tinchlik), hukm, xazina/azaz, adl, fələk, quvvat, qaysar, vasiyat, yas (motam)*. Quyidagi kabi forscha so'zlar qo'llangan: *ārām, āzād, tāj, taxt, xasta, xumār (maslik), dushvār, rustā (qishloq), magar* va boshqalar. Asarda sinonimlarni qo'llashga ham e'tibor berilgan. Quyida sinonimlar qatoridan ba'zilarini keltiramiz: *adih-əhın (boshqa), əkysh-ingən-təlim (ko'p), yig'li-səgəl (kasallik), ۇzaq-alis-yirak (uzoq), el-ulus (el), yazmaq-yanshmaq (yanglishmok)*. Juft so'zlar ham qo'llangan: *arti-arqasi, ash-su altun-kymysh, ayaq-chanaq (idish), ichi-tashi, erkək-tishi (er-xotin), barim-yoqim (mol-dunyo), biru bar (xudo), kəz-qulaq, malu tavar (boylik), artuq-əksyk (ortiq-kam)*.

Doston tilida asosan 9 ta unli, arab-fors so'zlaridagi ā bilan birgalikda 10 ta unli qo'llangan :

Adabiyotlarda (dz) -d undoshining turkiy tillarda qo'llanishi haqida aynan bir xil fikr bayon qilinadi, ya'ni bu undoshning qadimgi turkiy tilda bo'lmaganligi, lekin turkiy urug'lardan biri bo'lgan chigillar dialektiga xos ekanligi aytiladi va d-d-z taraqqiyoti ko'rsatiladi. Haqiqatan ham, qadimgi turkiy til bo'yicha yaratilgan darsliklarda (dz) undoshi haqida ma'lumotlar uchramaydi. Ayrim

ishlarda undoshining paydo bo'lishi XI—XII asrlar bilan belgilanadi. Endi bu undosh keyingi hodisami degan haqli savol tug'iladi. Shuni aytish kerakki, tilda tovush tarkibi aslida murakkablik tomoniga emas, balki soddalik sari taraqqiy etadi, agar bu fikrdan kelib chiqadigan bo'lsak, undoshi *d* undoshining taraqqiyotidan hosil bo'lgan deb hisoblash mumkin emas. «Xusrav va Shirin» dostoni tilida sngarmonizm qonuniyati to'la amal qilgan. Ma'lumki, sngarmonizmning ikki turi mavjud. Turkiy so'zlarda tanglay uyg'unligi to'la saqlanadi:

Kel, emdi sen bu o'pkalarni qoyg'ul,

Bir ancha ham nifāq, bilo'uzr qil.

Bu baytda *emdi*, *opkelerni*, *koyg'sh*, *ancha*, *bile* so'zlarida tanglay uyg'unligi saqlangan lekin arab, fors tillarida o'zlashgan so'zlarda (o'zak va qo'shimchalarda) bu qonuniyatning amal qilishi qat'iy emas. Lab uyg'unligiga ham amal qilingan. Barcha bo'g'inlarda lab uyg'unligi saqlanadi:

Qamug' turluk kerkuk bir illakim darig'ul,

Tabar tekma kishilar tabg'ihā yol. (256)

Lab uyg'unligidan chekinish holatlari qonuniy emas, balki uning qonuniyatlarini o'rganish til bilimimizning navbatdagi vazifalaridan biridir.

Doston morfologiyasida, bir tomondan, eski turkiy til an'analari saqlandi, ikkinchi tomondan, keyinchalik u eski o'zbek adabiy tilida me'yorga aylangan morfologik shakllar bilan boyidi. Doston tilida ham «Devonu lug'atit turk», «Qutadgu bilig», «Hibatul xaqoyiq» tiliga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarini ko'ramiz: Qaratqich kelishigi *-im* qo'shimchasi bilan ham hosil qilingan:

Qulin g'ura menim yetkengə berdi,

Shəkər shura menim tekəngə berdi. (140)

Tushum kelishigining ba'zan *-g* /—*ig* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shakli uchraydi:

Jahān tapti ersə jānni ushbu yerik (g), 29

Nedin bizlərgə kərinyr tushdə aytek. (310)

Bu misolda **yerik** so'zidagi *-ig* qo'shimchasi keyingi satrdagi *aytek* so'ziga qofiya qilinishi munosabati bilan jarangsz undosh bilan berilgan, lekin yozuvda har ikkala so'z kof (≤) bilan yozilgan. Demak, muallif yozuvdagi qofiyani saqlash uchun kofni ishlatishga majbur bo'lgan. Asar tilida chiqish kelishigi *-din -din -tin -tin* qo'shimchalari bilan hosil qilinganligi normaga muvofiq keladi. Shu bilan bir qatorda doston tilida qadimgi turkiy tilda bu qo'shimchalar bilan yondosh qo'llangan *-dan/ -dən* qo'shimchas uchraydi.

Sabaq almish havāda qushlar andan,

Jo'nalish kelishigani shakllantiruvchi ko'rsatkichi sifatida *-kə -qa* qo'shimchalarining qo'llanishi asar tilining me'yorini aks ettiradi, ya'ni til oldi unlili asosga *-kə*, til orqa unlili asosga *-qa* varianti qo'shilgan.

Ukush sōz barcha hālda yaxshi bolmaz,

Teyu sabr ishkə bag'lab qild'lar rāz. (181)

Demak, qadimgi turkiy tilga xos bu hodisa «Xusrav va Shirin» asarida ham davom etgan. *hg'a - xizimating'a, tobing'a* (184) kabi ko'rinishga ega bo'lgan o'rinlarga ham duch kelish mumkin. Bu ko'rsatkich arab alifbosda ham nunu kofu alif, nunu g'aynu alif bilan berilgan. Fe'ning amaliy shakllarida hozirgi davrda mavjud bo'lgan qo'shimchalar bilan birga qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan qo'shimchalar ham qo'llangan: *-ig'li /—ig'li* sifatosh qo'shimchasi.

3. Xorazmiy o'zbek adabiyotida nomachilik janriga asos solgan san'atkordir. Ayni vaqtda she'riyatda ikki tillilikka ham asos solgan so'z ustasdir. U Jonibekning mahalliy beklaridan bo'lgan Muhammad Xojabekning iltimosga ko'ra hijriy 754, melodiy 1353 yilda mashhur «Muhabbatnoma» asarini yozgan. Ma'lum kirish qism, asarning yozilish tarixi, «Muhammad Xojabek madhiyasi», ulardan keyin esa nomalar yozilgan. Nomalarning tuzilishi ham eski an'anaviy tartibda: oldin noma, keyin g'azal, undan keyin masnaviyalar berilgan va har qaysi noma: Saburdin yaxshi yo'qtur pesha qilsam, Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam -degan baytli naqorat bilan

xotima qilingan. «Muhabbatnoma»ning 3 nomas fors-tojik tilida yozilgan. Bu asar dastlabki reja bo'yicha 10 nomadan iborat edi, lekin noma tugatilgach, muallif qo'shimcha sifatida yana bir noma yozib, asarni 11 nomadan iborat qiladi. Xorazmiy asarning xalqqa tushunarli bo'lishi uchun o'sha davr o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalangan. She'r yor vasli oshiq kechinmalarini tasvirlashda xilma-xil badiiy til vostalaridan mohirlik bilan foydalanadi. Shoir xalq tiliga xos o'xshatishni, metofora va jonlantirish bilan bog'lab bera olgandir:

Shakkarmu ʻerniʻiz yo qand, yo jān,

Uyalur k'lingizdin ābu hayān.

O'zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalangan shoir omonim so'zlar vostasda original so'z o'yinlari hosil qiladi: Ashar yeldin sening yelgəndə atih,

Quyash yangliq jahānim tutti atih.

Boyung sarvu sanubartek beling qil,

Vafā qilg'an kishilərgə vafā kil.

«Muhabbatnoma» XIV asr adabiy tilining yodgorligi bo'lib, unda g'arbiy va janubiy tillarga xos xususyatlar uchraydi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ə//nə, -a//na*, tarzida: *əllinə* (qo'liga), *gavharina* (gavhariga), *nurinə* (nuriga), *bu tənə* (bu tanga). Tushum kelishigi affiksi *-i* variantida: *kənglymi, əzimi*. Ravishdoshning *-gəch//g'ach*, buyruq-istak mayli *fe'li -əli//ali* (*barali, ketəli*) shart *fe'li -sar/-sər* (*solisar, bolsar*) affiksillari bilan shakllanadi. Hozirgi kelasi zamon *fe'lining* bo'lishsizligi qisqargan holda keladi: *yavutman* (*yaqinlashtirmaydi*), *unutman* (*unutmayman*). Sifatning (kelas-zamon) - *yʻr//yur* affiksi bilan yasalgan turi ham uchraydi: *sayrayur, yasanlaytur-siginar*. Asar leksikasida o'ziga xos xususyatlar ko'zga tashlanadi: *Shunqar-burgut, boyla-shunday qilib, yuban-ikkilanmoq, ukush-ko'k, asru-juda, yaqtu-yoru. Yavut-yaqinlashmoq, taqin-jumladan, dudaq-lab*. Yuqoridagi til hodisalarining ayrimlari uyg'ur tiliga ham xosdir, ko'rinib turibdiki, «Muhabbatnoma» asarida ham XIV asrning oxiri va XV asrning boshlarida Xorazm va Muvaraunnahrda hukm surgan kitobiy-lirik til an'ana davom ettirilgan. Shuning uchun unda qipchoq-o'g'uz va qisman uyg'ur tili xususyatlarini uchratamiz. «Muhabbatnoma» XIV asr o'zbek adabiy tiliga katta xissa bo'lib qo'shildi va ayni zamonda eski o'zbek tilining keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Buyuk Alisher Navoiy «Muhokamat-ul lug'atayn»da o'zbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus «meng» so'zi borligini aytib, «Muhabbatnoma»dan quyidagi baytni keltiradi: Aning kim al enginda meḡ yaratti,

Boyi birlə sachina teḡ yaratti.

Ko'rinadiki, Navoiy tomonidan «Muhokamatul-lug'atayn» asarida shu misralarning keltirilishi shu davrda asarning til jihatdan boy ekanligidan dalolat beradi. «Muhabbatnoma» eski o'zbek adabiy tilini boshlab beruvchi asar sifatidagina emas, balki ayni zamonda o'zbek adabiyoti tarixiga, ayniqsa, nomachilik janri taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan asardir. Uning bevosita ta'sirida Said Ahmadning «Taashshuqnoma» (XV asr), Xo'jandiyning «Latofatnoma» (XIU-XU asr), Amiriyning «Dahnoma» (XV asr) kabi asarlar yaratilgan. Demak, Xorazmiy o'zbek adabiyotida nomachilik janriga asos solgan shoirdir.


4. Eski o'zbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biri Qarshi shahrida topilgan «Tafsir» asari hisoblanadi. Bu asar «O'rta Osiyo Tafsiri» deb ham yuritiladi «Tafsir» - «Qur'on»ning so'zma-so'z tarjimasii, izohlar, sharxlar va tushuntirishlardan iboratdir. «Tafsir»da 18-suradan boshlab «Qur'on» tarjimasii va sharxlar va izohlar beriladi. Asarning birinchi qismida har bir suradan keyin uning mazmuni bilan bog'liq hikoyalar berilgan. Ikkinchi qismida esa suralardan izohlar va she'riy parchalar berilgan. Kitobda «Tafsir»ni tartib bergan va ko'chirgan kishilarning nomi ko'rsatilmagan. Asarning yozilgan vaqtini belgilash juda qiyin, uning matnida bu haqda hech qanday ma'lumot yo'q. Shuningdek, asarning birinchi asl nusxa qo'lyozmasi ham aniqlangan emas. «Tafsir»ning til xususyatlariga asoslanib, V.V.Bartold uning XI asrda yaratilgan «Qutadg'u bilig» dostonidan ham ilgariroq yozilgan bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. Turk olimi A.Erdogan «Tafsir»ning lug'at tarkibi jihatidan «Devonu lug'otit turk» leksikasiga yaqin ekanligiga, unda diniy tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralarning turkiy tilga tarjima qilib berilganligiga asoslanib, uning asl nusxasi X-XI asrlarda yozilgan degan fikrni bayon qiladi. «Tafsir» tiliga xos bir qator leksik va morfologik xususyatlarining «Hibatul haqoyiq» asarining tiliga ancha yaqinligini hisobga olib, S.E.Malov bu asarni XII asr yodgorligi deb hisoblaydi. Bu asarning tili to'g'risda katta ish olib borgan A.K.Borovkov «Tafsir»ning dastlabki davri X asr oxiri bo'lib, asarda

mo'g'ullar va keyinroq Temuriylar davriga xos so'z va atamalarning qo'llanishi hamda uning fonetikasi va morfologiyasida uchraydigan yangiliklar mazkur Qarshi ko'lyozmasi XV asrda qayta ko'chirilgan bo'lishi mumkin, deb izohlaydi. Shunga ko'ra u «Tafsir»ni XI-XIII asrlarning yodgorligi deb qaraydi. Shuni qayd etish kerakki, til xususiyatlari jihatidan «Tafsir, asosan, adabiy *d/dz*/ tiliga xos bo'lgan XI-XIII asr yodgorliklariga yaqin turadi. Shu bilan birga bu asarda juda ko'p xollarda *d/dz*/ning *y* ga o'tishi hodisas ham uchraydi. Bundan tashqari, asarning bir qator leksik va morfologik xususiyatlari ham uning tili shu davrlarda yaratilgan «Devonu lug'otit turk», «Hibatul haqoyiq», «Qutadg'u bilig» kabi yodgorliklarning tiliga yaqin ekanligidan guvohlik beradi. Masalan, «Tafsir»da *tabaru* (tomon), *bodun* (xalq), *arig'*, *asig'* (foйда), *tumlug'* (sovuq) sngari ko'plab o'sha davr yodgorliklari tili uchun xos bo'lgan so'z va iboralar qo'llangan. Tushum kelishigining *-ig'*, *-ig* affiksili shakllari uchramaydi. Kishilik olmoshining jo'nalish kelishigida anar (aydi, anar) shakli uchraydi. Aniq o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs ko'pligi *bardimiz*, *kaldimiz* (*qamug' bardimiz ahar hikmat bilig*) shaklida ham kelgan. Asar tilida ham sharqiy turkiy (qarluq-uyg'ur), ham g'arbiy turkiy (o'g'uz-turkman) fonetik, morfologik va leksik unsurlarning muvoziy holda qo'llanishi ko'p uchraydi: inkor bildiruvchi *ermas*, va *ermaz*, *tagul* va *dagul*, *ant* va *and*, *tarig'* va *darig'* *tagara* va *dagara* (*tevarak*) qabilar. Sharqiy turkiy va g'arbiy turkiy til unsurlarining bunday aralash holda ishlatilishi faqat «Tafsir» tili uchungina xarakteri emas. Shu davrlarda maydonga kelgan Alining «Qissai Yusuf», Xorazmiyning «Muhabbatnoma», Qutbning «Xisrav va Shirin» kabi qator adabiy yodgorliklarida shunday hodisani - sharqiy va g'arbiy «turkiy unsurlarning aralash holda qo'llanganligini ko'rish mumkin. Bu hol XIII-XV asrlarda sharqiy qarluq-chigil-uyg'ur tili va g'arbiy o'g'uz-qipchoq tillarining qo'shilib ketishi asosida eski o'zbek adabiy tili tashkil topganligini tasdiqlaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. XIV asrdagi tarixiy jarayon va adabiy til an'anasi haqida gapirib bering?
2. Bu davrning tayanch dialekti deganda nimani tushunasz?
3. XI-XIU asrlarda adabiy tilning «Qoraxoniylar», «Oltin O'rda» va «Chig'atoy» nomlari bilan atalishi va uning sabablari nimadan iborat?
4. Bu davr yozuv yodgorliklarini sanang?

REJA:



******Slaydda bor******

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	○ Eski o'zbek adabiy tilining manbalari va tili. ○ Lutfiy asarlarining ba'zi til xususyatlari. ○ O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni. ○ Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: XIV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilining ahamiyati, Lutfiy asarlarining ba'zi til xususyatlari, o'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni, Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli haqidagi bilimlarini shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- XIV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilining ahamiyati haqida ma'lumot berish; -Lutfiy asarlarining ba'zi til xususyatlari haqida tushuntirish; - o'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni, asarlarining til xususyatlarini yoritish; - Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli xususida tushuncha berish;	- XIV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilining ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - Lutfiy asarlarining ba'zi til xususyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - o'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni, asarlarining til xususyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli xususida o'rganib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. XIV-XVI asrlarda ijod bilan shug'ullangan qaysi ijodkorlarni bilasiz? 3.2. XIV-XVI asrlardagi o'zbek adabiy tilining ahamiyati haqida ma'lumot beradi. 3.3. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususiyatlari haqida tushuntiradi; 3.4. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni, asarlari ning til xususiyatlarini nazariy jihatdan yoritib beradi. 3.5. Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli, asarlarining tili xususida ma'lumot beradi.	3.1. XIV-XVI asrlardagi ijodkorlar haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususiyatlari haqida tushuncha oladi va kerakli ma'lumotlarni yozib oladilar; 3.4. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni, asarlari ning til xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlarni yozib oladilar; 3.5. Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli xususida ma'lumot oladi, nazariy fikrlarni yozib oladi.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

XIV -XVI ASRLARDA O'ZBEK ADABIY TILI

REJA:

1. Eski o'zbek adabiy tilining manbalari va tili.
2. Lutfiy asarlarining ba'zi til xususyatlari.
3. O'zbek adabiy tili taraqqiyotida shoir Atoiyning o'rni.
4. Sakkokiyning o'zbek tili taraqqiyotidagi roli.

Tayanch tushunchalar:

Arxaizm – hozirda mavjud narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamasi.

Qasida –arab tilidagi قصيد so'zidan olingan niyat, intilish, ma'nolarini ifoda qiladi. Qasida muhim tarixiy voqealar va mashhur tarixiy shaxslar haqida tantarali uslubda yoziladigan asar saraladi.

1. Turkologiya adabiyotlarida o'zbek adabiy tilining XIV-XV asrlar hatto XIX asrning II-yarmiga qadar bo'lgan davrini nomlash va talqin qilishda turli fikrlar mavjud. Ma'lum bo'ladiki, hozirgi fanda eski o'zbek tili deb atalib kelgan adabiy tilning xronologik doirasni belgilash masalasii haligacha hal etilgan emas. Ba'zi turkologlar eski o'zbek tilining xronologik doirasni XI-XIX asrning II yarmiga qadar davr bilan belgilaydilar. Bu fikrni venger turkologlaridan G.Vamberi maydonga tashlagan. Ayrimlari esa shu tilning xronologik doirasni XIV-XV asrlar bilan chegaralaydilar. Shuningdek, shu asrlar tilini maxsus nom bilan, ya'ni chig'atoy nomi bilan ataydilar. Bu fikr turkshunoslik adabiyotlarida ancha tarqalgan fikr bo'lib, bu hozir ham ba'zi turkologlar tomonidan qo'llanib kelmokda. chig'atoy nomi chig'atoy ulusidagi adabiy til bilan bog'langan edi. O'rta Osiyo turkiy tillaridagi o'ziga xoslik va ajralish prosess Temur va temuriylar davrida yanada sur'atlashgan edi. Shu o'lkada yangi adabiy til an'anasi shakllangan. Bu an'ana qoraxoniylar zamonidagi adabiy an'anadan o'zining «y» lashish an'anasi bilan farq qilgan, ya'ni bu an'ana «y» dialekti zaminida shakllangan edi. Mo'g'ul davlatining siyosiy jihatdan zaiflashishi va hokimiyat mahalliy hukmdorlar qo'lga o'tishi bilan bog'liq ravishda adabiy tilga mahalliy dialektlarning ta'siri yanada kuchaydi. Shu ta'sirning yorqin namunasini «Xisrav va Shirin» asarida ham ko'rgan bo'lsak, Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asarida yanada yorqinroq ko'ramiz. «Xisrav va Shirin» dostonida qoraxoniylar adabiy tili an'anasining ta'siri kuchliroq sezilsa, «Muhabbatnoma» asarida fonetik va morfologik shakllarda shu an'ana mag'lubiyatga uchraydi.

2. O'z davrining «Malik-ul-kalomi» deb atalgan Lutfiy o'zining ulkan faoliyatini o'zbek dunyoviy adabiyotiga bag'ishladi va shu yo'l bilan o'zbek adabiy tilining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi. U o'zbek va fors-tojik tilidagi lirik she'rlar, devonlari, «Gul va Navro'z» hamda «Zafarnoma» tarjimalarining muallifidir.

Lutfiy g'azallari, dostonlarining tili juda yengil va xalqqa tushunarlidir. Lutfiy g'azallarida va umuman she'riyatida mazmunlilikini, badiiyligini xalq og'zaki ijodi materiallaridan hamda jonli tilga xos bo'lgan so'z va iboralardan unumli foydalangan. Lutfiy she'ridagi misralar ma'nosini kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun ko'proq turkiy so'z va so'z birikmalaridan radif sifatida foydalanadi. Masalan; Partavedur ul tabassumdinki jän derlar ani,

Soyai sarving durur hamki ravān derlar ani.

Yoki Mahvashim, bir nazar etsəng, ne niməñ öksygys,

Banda sari guzar etsəng, ne niməñ öksygys.

Lutfiy asarlari leksikasda asosiy o'rinni turkiy so'zlar tashkil etadi. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti asarlari leksikasda fors-tojik va arabcha so'zlar umumleksikaning aksariyat qismini tashkil qiladi. Lekin Lutfiy ijodida buning aksi ko'rinadi. Masalan, «Tā jamāliḥdin tushubturmen», «Öltyrur hijrān meni» jumalari bilan boshlanuvchi g'azallarida 191 leksema qatnashgan bo'lib (ayrim so'zlarning takrori ham hisobga olingan), shundan 104 tasi turkiydir. Ma'lum bo'ladiki, Lutfiy ijodida turkiy so'zlar 55 va undan ortiqroq foizni tashkil etadi. Lutfiy asarlarining dialektal negizi masalasii ham ancha chigal masalalardan biridir. Lutfiy ijodini ma'lum bir shevaga keskin ravishda bog'lab bo'lmasa-da, unga sngarmonizmi shevalar asos bo'lganligini aniqlaymiz. Uning she'rlarida lab va palatal sngarmonizmga ko'plab misol keltirish mumkin. Masalan, til oldi lablangan unlilar uyushib keladi; Kəñyl tā ārazıñg'a boldi mushtāq,

Közymdə gāh qizil gyldyr, gāhi aq (128-bet).

Til orqa lablangan unlilar uyushib keladi.

Meni kerdrygali ul kezi otluk (o'tluk)

Kongylhi tash etar, g'amzani chaqmaq (128).

Lutfiy asarlarida qadimgi turkiy hamda o'g'uz gruppasi tillariga xos leksik morfologik xususiyatlar aks etgan. O'g'uz gruppasi tillar va shevalarga oid grammatik shakllar: jo'nalish kelishigining -ə (a) affiksi bilan ifodalanishi.

Aqiqini sorayin desam, ayur: «Yaman andishalikni fikrina baq».

Qadimgi turkiy tilga oid vosta kelishigi elementlari ham uchraydi:

Nigārā, sensizin mandin (har kimdin) ne hāsīl? Agar jān bolmasa tandin ne hāsīl? Kelasi zamon fe'lining g'arbiy tillarga xos formasii Lutfiy ijodida ko'plab qo'llangan:

Tapqamen deb vaslidin bir kun davā

Tartaram dāim firāqih dardini. (310-bet)

Ma'lum bo'ladiki, Lutfiy asarlari tili eski o'zbek tili xususiyatlarini boshlab beruvchi vosita bo'lib xizmat qilsa, asarlarining soddaligi xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanishi asar tilining ham sodda va xalqqa tushunarli bo'lishini ta'minlagan.

3. «Nazm dengizining tubiga sho'ng'ib, she'riy durlar» yaratishga intilgan Atoiy o'zbek dunyoviy adabiyotining Navoiyga qadar yetishgan atoqli namoyandaligidir. Atoiy adabiy merosi bilan tanishar ekanmiz, uning xalq og'zaki ijodini yaxshi bilganligi va ulardan ijodiy foydalanishini sezamiz. Atoiy xalq qo'shiqlarining tili soddaligi, ravonligi va musiqiylikidan ham ilhomlanadi va uni o'rganadi. U o'zining 260 ta g'azalidan 109 tasini xalq qo'shiqlari vaznida yaratgan. Bu narsa uning xalq tili boyliklaridan bahramand bo'lib, ijod etganligini ko'rsatadi. Atoiy xalq maqollari va ta'birlariga katta e'tibor beradi. U xalq maqollaridan foydalanish bilan o'z g'azallarining mazmunini ham, tilining badiyiligi ham boyitdi. Atoiy xalq maqollarini aynan keltiradi va ularning mazmunini she'riy misralarga singdyradi: Boldi bag'rim suv g'amingdin, yaxshiliq, sal sug'a,

Axir, ey gyl, xirmānni, albatta, zar ekkən orar,

Vasl no'shi dunyāda bo'lmas, Ataiy, nishsz.

Bundan tashqari, Atoiy xalq tiliga xos hazil-mutoyiba tarzida aytilgan misralardan, kontrast usulidan foydalandi. Lekin u yengil kulgiga jiddiy tus beradi.

Yyzigə kəp tikə baqsam, maḥa kylib ayur:

«Ataiy, ne ko'zi to'ymas gadā emishtuksen?»

Atoiy xalq tili boyliklaridan ustalik bilan foydalanib, original o'xshatish, kinoya, mubolag'a, tajoxuli orifona, lof kabi badiiy tasvir vositalarini yaratadi. Shoir omonim so'zlar va turli birikmalar vastasi bilan chiroyli so'z o'yinlari yasaydi va go'zal mumtoz tuyuqlar namunasini yaratdi.

Desangkim: «Jān sipar qilg'il Atayim». Turubmen ushmunaq əldyr, at ayim...

Yyzingni, ey malāhat xani, bir ach, Toya kərsyn seni bu mustāxiq ach.

Atoiy asarlarining tili Oltin O'rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Chunki Atoiyda qipchoq tili unsurlari ustun darajada edi. Uning g'azallarida quyidagi til xususiyatlarini uchratish mumkin. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga (-gə, -kə) —qa affiksillari bilan birga -a shaklida ham uchraydi: *kənlȳmə, yȳzimə, yȳzinə, bizə, sizə*, kabi.

Mim ag'zi bila zulfi qaddi lam – alifdan, Ey vay, netəy xasta kəngəl qaldi alamg'a

Jo'nalish kelishigining -a, -na, -ma kabi qo'shimchalari hozirgi j-lovchi o'zbek shevalarida ham uchraydi. Lekin bu shakl aslida o'g'uz tiliga xos xususiyatdir. O'rin -payt va chiqish kelishigi qo'shimchalaridan oldin bir n tovushi orttiriladi.

Garchi āhuyi Xotandir bexatā bilman nedin, Chinu Māchin lālazārinda qilur sayrān kōziḥ.

Ul sanamkim syv yaqasinda paritek olturur, G'āyati nāzuklikindin syv bilē yytsē bolur.

Sifatdosh yasovchi qo'shimcha *-gan* shaklida ham, *-an* shaklida ham uchraydi. Masalan: *qilan* — *qilg'an, alan - alg'an* kabi. Buyruq fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga *-aling* affiksini qo'shish orqali yasaladi: *boraling, kelaling, alaling* kabi. Bu holat «Muhabbatnoma» da ham uchraydi. Atoiy g'azallarida leksik jihatdan quyidagi so'zlarni uchratish mumkin: *ukush -ko'p, ariq - toza, baqmaq-qaramoq, meḥ-xolning kattais, qamuq-hamma, usruk-mast, dudoq-lab, ajun-dunyo, neḥ-narsa, iydgāh-sayilgoh* qabilar. Umuman, Atoiy g'azallari tilida XV asr boshidagi o'zbek adabiy tiliga xos xususyatlar uchraydi. Shoir o'z asarlari bilan XV asr o'zbek dunyoviy adabiyotiga emas, balki o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shdi.

4. Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, Movarounnahrda shuhrat topgan shoirlardan biri Sakkokiydir. U Ulug'bek zamonida yashab ijod etgan. Shoir g'azallar va qasidalar bitgan. Sakkokiy ham Atoiy kabi xalq tili unsurlaridan ustalik bilan foydalanib, original tasviriy vositalar yaratishga intiladi. U tazod, tanosub, jonlantirish, laf va nashr kabi usullardan foydalanadi, o'xshatish, mubolag'a, majoz va boshqa turdagi tasviriy vostalarga murojaat qiladi. Natijada, xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan xalq, qo'shiqlari uslubida g'azallar yaratdi. Sakkokiy tuyuq janrida asarlar bitmagan bo'lsa-da, yozgan g'azallaridan uning so'z o'yiniga usta shoirliги ko'zga tashlanadi. U xalq maqollari bilan o'z g'azallarining mazmunini ham, tilini ham boyitadi. Sakkokiy siyosiy lirikaning adabiy janri bo'lgan qasida yozish sohasida ham qalam tebratdi. Ma'lumki, qasida davlat arboblariга, siyosiy va harbiy voqealarga bag'ishlab yoziladi. Ulug'bekka atab yozgan qasidalarida shoir uning ilmiy va siyosiy faoliyatini maqtaydi. Ulurbekni «Sulaymāni zamān», «No'shiravān», «Musatek», «Shubān», «Atādin mehrībān», «Xurshidi zamān» kabi sifatlar bilan ulug'laydi. Qasidaga xos bunday uslubni Sakkokiyan keyingi shoirlar ham davom ettirdilar. Sakkokiy asarlarida qipchoq tili unsurlariga nisbatan o'g'uz tili yoki g'arbiy adabiy til an'anasining ta'siri kuchlidir. Bu asarlarda *ayla, qalma* kabi ko'makchi fe'llarda uchraydi:

Gyl yyzingni ārzulab yyz kōzni gulzār ayladi.

Shuningdek, o'tgan zamon sifatdoshi fe'l negiziga *-mish* affiksini qo'shish orqali yasalgan.

Ma'lumki, bu qo'shimcha Urxun-Enasoy yozuvlarida ham, undan keyingi yodnomalar tilida ham keng qo'llanadi. Sakkokiyan keyingi shoirlarda esa bu qo'shimcha siyrak uchraydi. Masalan, «Tun chaman ichrē niqābin almish ul gyl yuzidēn». «Bo'b» fe'li va uning o'g'uz tillariga xos bo'lgan «o'b» shakli shoir asarlarida parallel qo'llanadi:

Adālat bag'i sabz o'ldi, chy No'shiravān keldi.

Sakkokiy asarlarida keluvchi «bikin», «yaḥlig'» so'zlari «kabi», «o'xshash» degan ma'nolarni ifodalaydi. Bu so'zlar Alisher Navoiygacha bo'lgan shoirlarning hammasida uchraydi. Sakkokiy asarlarining yana o'ziga xos tomoni shundaki, Atoiy tiliga nisbatan unda tojikcha-forscha so'z va iboralar ko'p uchraydi. Masalan: *ko'hkan - tog' qo'poruvchi, jankan-jon oluvchi, garat-barbod* qabilar. Umuman, Sakkokiy ham o'zbek adabiy tilini rivojlantirishga samarali xissa qo'shgan shoirlardan biridir.


Savol va topshiriqlar:

1. Bu davrdagi ijtimoiy-madaniy hayot haqida gapirib bering?
2. Bu davr o'zbek tilining tayanch dialekti masalasi haqida to'xtaling?
3. Eski o'zbek adabiy tilining bu davr manbalariga oid bo'lgan xususyatlari nimalardan iborat?

1-ilova


Eski o'zbek adabiy tili bilan Sharqiy Turkiston adabiy tilidagi o'xshash va farqli

jihatlar:




2-ilova

Sharqiy Turkiston adabiy tilida kelishiklar




3-ilova

Eski o'zbek adabiy tilida kelishiklar nomi va miqdori




4- ilova

Atoiy asarlarining til xususiyatlari



5-ilova

Lutfiy asarlarining til xususiyatlari



1. Aqiqiḥni sorayin desam, aytur: «Yaman andishalikni fikrina baq».

2. Nigārā, sensizin mandin (har kimdin) ne hāsīl?
Agar jān bolmasa tandin ne hāsīl?

3. Tapqamen deb vaslidin bir kun davā
Tartaram dāim firāqiḥ dardini.

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. 2. Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi. 3. Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati. 4. Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili, Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi, Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati, Navoiyning nazmiy asarlaritili va uslubi haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili haqida ma'lumot berish; - Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi haqida tushuntirish; - Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati, qarashlarini tahlil etish; - Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi haqidagi bilimlarni shakllantirish;	- Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - Navoiy nazmiy asarlarining tili va uslubi haqida bilib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Nima uchun Alisher Navoiy eski o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida e'tirof etiladi? 3.2. Alisher Navoiy va uning o'zbek adabiy tiliga qo'shgan hissi haqida ma'lumot beradi. 3.3. Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi haqida tushuncha beradi. 3.4. Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati, qarashlarini tahlil etadi, to'liq ochib beradi. 3.5. Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi tahlil qilinadi.	3.1. A.Navoiy eski o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati, qarashlarini yozib oladilar. 3.5. Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

ALISHER NAVOIY ASARLARINING TILI

Reja:

1. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili
2. Alisher Navoiy asarlarida o'zbek tili me'yorlarining belgilanishi.
3. Alisher Navoiyning arab va fors tillariga munosabati.

Tayanch tushunchalar:

Leksika – tildagi so'larning jami leksikani tashkil etadi. *O'g'uz tili* –turkiy xalqlarning g'arbiy tillar guruhiga kiradi.

1. A.Navoiy zamonasidagi badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod etgan va shu sohalarda original asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkoridir. Navoiy o'z asarlari orqali sermazmun maktab yaratgan buyuk iste'dod egasidir. Navoiy Husayn Bayqaro saroyida ish ko'rgan adabiyot jamiyatining tashkilotchisi va ustoz edi. Shu jamiyatdan o'z atrofiga zamondosh shoir va yozuvchilarni to'plab ular bilan fors-tojik va turk-o'zbek shoirlarining ijodlari haqida, adabiyotning turli masalalari to'grisida, til va uslub haqida sermazmun va jozibali suhbatlar olib borar edi. Bu suhbatlar Navoiyning aytishicha, jonli munozaralarga aylanib ketar edi. Bundan esa Navoiy har choq xursand va mamnun bo'lgan. Navoiy zamondosh shoir, yozuvchilarning buyuk homiysi va ustoz edi. Shoir va yozuvchilarning shaxsiy munozaraviy suhbatlarida biror chigil masala tug'ilib qolgudek bo'lsa hamda o'rtada hal qilinmasa, shu masalani uzil-kesil hal qilish uchun suhbatdoshlar Alisher Navoiyga murojaat qilardilar. Ular Navoiyning tiyan fikridan har doim o'zlariga kerakli fikrlarni topa olar edilar. Deyarli 40 yil davomida olib borilgan shu suhbatlar turk-o'zbek badiiy adabiyotida to'plangan boy tajriba, adabiyotning turli janrlarida to'plangan o'zining shaxsiy tajribalari keyinchalik «Hamsa», «Xazoyinul maoniy», «Mezon-ul avzon», «Majolis-un-nafois», «Muhokamat-ul-lug'atayin» kabi asarlarini yozish uchun Navoiyga asos bo'lgandir. Shu yuqorida ko'rsatilgan asarlarning yozilishi uchun bo'lgan boshqa sabablar Navoiy yashagan va ijod etgan davrdagi tarixiy sharoitlar bilan bog'liqdir. Bir vaqtlar shuhrat qozongan va qo'shni davlatlarga ko'rqinch tug'dirib kelgan temuriylar davlati Navoiy ko'z oldida inqirozga yuz tuta boshladi. Temuriylar o'rtasidagi uzoq davr kurashlar davlatning harbiy- iqtisodiy qudratini zaiflashtirib yuborgan edi. Adabiyotda va adabiy tilda yetakchilik hamon fors-g'oy shoirilar qo'lida edi. Maktab va madrasalarda arab va fors tili o'rganilib, ular bilan birga fors poeziyasi haqida ma'lumot olinar edi. O'zbeklar orasidan chiqqan shoirilar o'zlarining dastlabki asarlarini ona tilida emas, balki fors tilida yozar edilar. Fors tili esa asrlar mobaynida fors tilida yozgan so'z ustalari tarafidan ishlanib, sayqal berib kelingan til edi. Shuning uchun ham fors poeziyasida tarbiyalangan turk-o'zbek shoirilari uchun o'z ona tilida yozishdan ko'ra badiiy jihatdan ishlangan fors tilida yozish oson edi. Bunga odatlanib qolgan ko'pgina turk-o'zbek shoirilari o'z asarlarini forsiy til bilan yozib kelgan. Alisher Navoiy «Majolis-un-nafois» asarida 459 ta shoir haqida ma'lumot berib, shundan 2-majlisda 91 shoirdan 16 ta shoirning turk-o'zbek tilida, 3-majlisda 175 ta shoirdan faqat 3 tasigina turkigo'y ekanligini aytadi. Shu keltirilgan ma'lumotdan ham ko'rinib turibdiki, o'zbeklar ichidan yetishib chiqqan so'z ustalari o'z ona tilida asar yozishga kam e'tibor berganlar. Bu hol siyosiy jihatdan ham temuriylar davlatiga ma'lum darajada putur egkazar edi. Shunday sharoitda o'zbek tilini mensmas, uning burdini tushirishga, bu til avom tili, dag'al til, ilmiy va badiiy tushunchalarni ifoda qilish qudratiga ega bo'lmagan til, degan fikrlar ilgari surilar edi. Shularga qarshi Navoiy o'zbek tilining badiiy qudratini adabiyotning butun vositalari orqali isbot etdi. U yuksak badiiy ijodiyotning timsoli sifatida «Xazoyinul maoniy», «Hamsa» va shu kabi sharq poeziyasida shuhrat qozongan mavzularda asar yozib, o'zbek tilining qudratini keng namoyish qildi va shuhratini yoydi. Shu asosida yozuv tilini umumxalq tiliga moslashtirdi. Bu haqda Navoiyning o'zi ham ko'p asarlarida ko'rsatib o'tgan. O'zbek tilining qudratini oshirgani va xalq tilini kitobiy til bilan yaqinlashtirgani haqida «Lison-ut-tayr» asarida shunday deydi.

Tyrk nazmida chy tartib men alam, Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Navoiy xalq madaniyatini ko'tara olishdagi qudratli vostalardan biri ona tili ekanini zamondoshlari orasda birinchi bo'lib tarixiy jihatdan tushundi va o'zining shu fikriga butun faoliyatida sodiq qoldi. Navoiyning maqsadi badiiy jihatdan ishlanmagan xalq tilini badiiy ishlash va uni forsiy til darajasiga ko'tarish hamda shu asosida ona tilining shon-shuhratini keng yoyish edi. Navoiy deyarli har bir dostonida, til masalasiga alohida e'tibor bergan. Masalan: «Layli va Majnun»da shunday deydi:

Chyn fors erdi nuqta shavqi,

Azraq erdi anda tyrk zavqi.

Men tyrkchə bashlaban rivāyat, Qildi bu fasānani hikāyat.

Kim shuhrat chyn jahāng'a bolg'ay Tyrkiy ilə dag'i bahra olg'ay.

Navoiy badiiy adabiyotning butun sohasida ijod etib, har sohada o'ziga xos originallik yaratgan va shu asosida o'zbek tilining badiiy qudratini, imkoniyatini keng namoyish qilgan. Navoiy o'zbek tilining himoyachisi va targ'ibotchisi sifatida ham nazariy ham amaliy ishlarni amalga oshirdi, Shuning uchun buyuk turkolog N.I.Ilminskiy uni «Ona tili uchun kurashda yagona va bahodir jangchi edi», -deb ta'riflagan edi.

2. Alisher Navoiy ilmiy asarlar arab tilida va badiiy asarlar fors-tojik tilida yozish an'anaga aylangan bir davrda o'zbek tilining ham badiiy, ham ilmiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsata bildi. Fors-tojik tilining qaysi janr va uslubida asarlar yaratilgan bo'lsa, Navoiy ham o'sha janr uslubda asarlar yaratib, bu masalada fors-tojik shoir va yozuvchilari bilan ijodiy musobaqalashdi. «Mezon-ul-avzon» asarida shunday yozadi: «Ajam shuaro si va fors fusahosi (chiroyli so'zlovchilar) har qaysi uslubdakim, so'z arusi g'a (keliniga) jilva va namoyish berib edilarkim, ma'ni abkori g'a (yuzlariga) ziynat va oroyish ko'rguzub erdilar, chig'atoy lafzi bilan raqam urdum». O'z asarlarida Navoiy o'zbek tilining leksik jihatdan fors-tojik tili kabi boy ekanligini ta'kidlaydi va uning misoli sifatida bir necha sinonim qatorlarni keltiradi. Bu haqda «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida «Bu gaz lafzdurki, g'arib maqosid (maqadlar) adosda (bayonida) ta'yin qilibturlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yusamaydurlar». Ya'ni bu asarda keltirilgan 100 ta fe'lning noaniq formasi haqida gap boradiki, ularning har qaysisi o'zining sinonimik qatoriga ega ekanligi bu kabi xususyat forsiy tilda uchramasligi qayd qilingan. Masalan, *ichmoq fe'liga sipqarmoq, tomshimoq* kabi fe'llarning sinonim bo'lishini uqtiradi:

Sāqiyo tut bādakim, bir lahza ozymdin baray

Shart bu kim, har nechə tutsang labālab sipqaray.

Yoki: Soqiyo, chy ichib, mengə tutur qo'sh,

Tamshiy-tamshiy

ani

qilay

no'sh.

Shuningdek, *yig'lamaq* so'zining ham *bohsamaq, iħramaq, siħramaq, siqtamaq, inichkirmək* kabi sinonimlarini keltiradi. Navoiy o'z asarlarida faqat omonim, sinonim so'zlarni emas, balki fors tilida bo'lmagan so'zlardan foydalandi. Masalan, *cho'kur (jiyda), qabaq, meħ, ildirin (yaxshi), chaqin (yashin)*. Bunday so'zlarni leksik norma sifatida adabiy tilda qo'lladi. Navoiy leksik normalarni belgilashda hayotning turli sohalariga tegishli bir qancha turkiy so'zlarni o'z asarlariga sngdirdi. Ular quyidagilar:

1. Oziq-ovqat nomlari: *qaymaq, qatlama, bulamiq, qurut, ulaba, mantu, o'rkamach, qimiz, suzma, boza, umach, komach*.

2. Chorvachilikka oid so'zlar: *tubuchak, arg'umach, yaqa, yabu, taju, toy, gunan, tulan, chirg'a, lang'a, jabildir, xāna, toqum, chilvir*.

3. Kiyim-bosh nomlari: *dastār, qalpaq, navro'zi, tōppi, shirdaq, jalak, dakla, qur, terlik*.

4.Ov hayvonlari nomlari: *kiyik, tong'uz, huna, qilchaqchi, suykun, bug'u, maral, āhu, gavazi, xuk, guraz* va boshqalar.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Alisher Navoiy o'zbek tili leksik boyliklari bilan birga fors-tojik, arab tili leksik boyliklaridan ham o'z o'rnida foydalandi. Ayrim tushunchalarni (adabiy) belgilashda ajnabiy til leksik boyliklaridan foydalanishni shart deb bildi, chunki adabiy janr va uslub fors-tojik va arabcha so'zlardan foydalanishni shart qilib qo'yar edi. A.Navoiy adabiy tilning grammatik normalarini belgilashda ham samarali ishlar qildi. Buni quyidagi hollarda ko'ramiz.

1.Tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigi affiksilar o'z o'rnida qo'llangan. Ma'lumki, Navoiyga zamondosh bo'lgan shoirlar ijodida qaratqich o'rnida tushum kelishigi ko'rsatkichi qo'llangan o'rinlari ham bo'lgan Masalan, *Ushbu yerda saħ to'dani(ng) ustiga chiqib* (B N), *Lutfiyni(ng) niyati uldurki* (L) va h.o.

2. Chiqish kelishigi faqat —*din//-din//-tin/-tin* variantlarda qo'llandi.Ma'lumki, Navoiygacha bu kelishik —*dun//-dyn//-tun/-tyn, -dan//-dān//-tan//-tān* kabi variantli affiksilariga ham ega edi.

3. Birgalik nisbat — *sh* affiksii bilan ifodalanadi: *qachishmaq, tapishmaq, chapishmaq*.

4. Ortirma nisbat *-t*, affiksi bilan ifodalanadi *gugurt, buyurt*

5. Sifatdosh *-gu// -qu// -ku* *barqu, bilgy, aytku*;

6. Navoiy asarlarida ravishdosh yasovchi *-gach/-gach, -kach// -qach* affiksii keng qo'llangan: *aylagach, yetkach*

Yuqoridagilardan tashqari so'z yasovchi affiksilarining qo'llanish doirasi kengaygan: *-chi// -chi* affiksi kasb-hunarga, lavozim va ovchilik bilan bog'liq so'zlarni yasagan *qushchi, barschi, qo'riqchi, qorchi, suvchi, yurtchi, xazinachi, axtachi, turnachi* va h.o. *-vul* saroy lavozimlari otlarini yasagan *yakkovul (yo'l boshlovchi), kiptavul (qo'rgon qorovuli) bakāvul, qaravul, yasavul*. *-l* affiksi abstrakt oti yasagan *qabāl (qamal), tutqal (xazinachi) tusqal (soqchi)*. Yuqoridagi faktlar shundan dalolat beradiki, A Navoiy o'zbek tili imkoniyatlaridan juda keng foydalanishi natijasida o'zbek tili leksikasi va grammatik qurilishi ma'lum bir normaga tushdi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyni haqli ravishda o'zbek adabiy tilining asoschisi deb ataymiz. Navoiy asarlari orqali eski o'zbek adabiy tili o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Navoiy asrlar mobaynida turkiy tillarda qo'llanib kelgan boy manbalardan keng foydalandi. Uning tili qadimgi sharqiy Turkiston tilidan, shuningdek, qadimgi uyg'ur tili ta'siridan, asosiy leksik va grammatik xususiyatlaridan qutulgan bo'lsa ham, ba'zi lirik talablarga ko'ra uning tilida arxaik elementlar ishlatilgandir. Arxaik elementlar deyilganda, Sharqiy Turkiston, shu jumladan qadimgi uyg'ur va qadimgi turkiy tillarga oid leksik va grammatik hodisalar kiradi. Arxaik elementlar lirik nutqda ko'p vaqt dabdabali tus berish, tildagi ta'sirchanlikni, ekspressivlikni oshirish uchun xizmat qilib keldi. Shu nuqtai nazardan Navoiy o'z asarlari tilida bunday elementlarga murojaat qilgan Navoiy tilida *ari, o'gon, ugush, qamu, uksuk-kom, bitik as* kabi leksik arxaizmlar qo'llangan. Misollar;

Kalāmi nechōakim, sāfu arig'dur

Mang'a nuqsāndin o'zga ne asig'dur. (Farhod va Shirin)

Yoki

Nag'malar turkāna sez etildi ugush

Mastlig'din oylakim, xushnag'ma kush (Lison-ut-tayr)

Shuningdek, Sharqiy Turkiston tiliga xos bo'lgan *-gu/-g'u// -qu// -ku* kabi morfologik elementlar ham uchraydi *o'qig'u, degu, yaqqu, eshitku*. Navoiy tilida tartib sonning *-inch (birinch, uchinch)* affiksi bilan ifodilangan varianti ham qayd qilinadi. Yuqoridagi leksik va grammatik elementlar Navoiy tilida o'z o'rnida va uslub talabi bilangina qo'llangan.

Alisher Navoiy turkiy tillar madaniy merosi va boyligidan ham ustalik bilan foydalandi. Uning tilida qipchoq, o'g'uz elementlari alohida o'rin tutadi. Bular keng tarqalgandir. Bu hodisa yolg'iz Navoiy asarlari tili uchunгина emas, balki eski o'zbek lirik tili uchun ham xosdir. Akademik Radlov Navoiy tilidagi g'arbiy yoki o'g'uz tili elementlari masalasida ikki fikrni ilgari suradi. Birinchi fikrga qaraganda, Navoiy tili o'g'uz deb atalgan adabiy tillar, ya'ni, ozarbayjon, turkman, usmonli turk kabi tillarga ta'sir qilib, buning natijasida mazkur o'g'uz elementlari yuqorida ko'rsatilgan tillarga tarqalgan. Bunda akademik Radlov Navoiy tilining g'arbiy tillarga ta'sirini ko'zda tutadi. Ikkinchi fikrga qaraganda, Navoiy zamonida g'arbiy turklarda shunday bir adabiy til markazi bo'lganki, bu adabiy til turli yo'llar bilan Navoiy tiliga ta'sir ko'rsatgan bulishi mumkin. Masalan, Navoiy asarlari uchun tayanch bo'lgan dialekt asosida hal qilinishi mumkin. Navoiy tilida, shuningdek, eski o'zbek lirik tilida o'g'uz tilining elementlari keng miqyosda qo'llangan, lekin bu elementlar Navoiy va unga zamondosh adiblar tiliga tashqi jarayonning ta'sirida paydo bo'lib qolmagan, aksincha, bunday elementlar o'zbek tilining o'g'uz shevalari orqali tilga kirgandir. Ma'lumki, XIII-XIV asrlarda Xorazmda adabiy til markazi paydo bo'ldi. Bu markaz «y»lashgan dialekt zaminida vujudga kelishi bilan birga o'g'uz tilining leksik elementlarini va qator morfologik shakllarini o'zlashtirgan edi. O'g'uz dialektining bevosita ta'siri «Muhabbatnoma», «Xisrav va Shirin» va XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan shoirlar tilida keng tarqalgandir. Bu an'ana tabiiy Navoiy tilida ham davom etgan. Masalan, *ev(uy), o'l (bo'l), uyumag' (uxlamoq)*.

Ishq dardig'a Navāiy kibi mag'rur o'lmang

Özni har mahvash uchun shiftai hāl aylāmāñiz. (T.A.II, I 405-bet)

Yuqoridagi kabi hodisa Lutfiy va boshqa shoirlar ijodida ham keng tarqalgandir. Navoiy tilida tarixan qadimgi turkiy tilga tegishli, lekin Navoiy davrida g'arbiy tillar xususiyatiga aylangan sifatdoshning —*mish*

affiksi bilan ifodalangan formasi qayd qilinadi:

Har yaram jisiminda bir xayrān kēz olmish hālīma

Turfā kerkim, muncha hayrān kēzgā hayrāndur kēzgā.

Gʻarbiy tillarga xos yana quyidagi morfologik xususiyatlar uchraydi: I shaxsda shaxs-son affiksining qisqargan shakli: Sarvi āzādīmni bagʻ ichrā xirāmān istērēm,

Sabzasin sarsabzu gyl bargini xandān istērēm. (II, 1 239-bet)

Navoiy tilida oʻgʻuz elementlaridan tashqari qipchoq tillariga xos elementlar ham uchraydi. Lekin ular juda oz miqdordadir hamda ular Navoiy tilining umumiy taraqqiyotiga u qadar taʼsir qilmaydi.

3. Navoiy turkiy til elementlaridan tashqari fors va arab tillarining madaniy merosdan ham keng foydalangan. Arabcha-forscha elementlarning koʻpchiligi Navoiy tilini tabiiy ancha murakkablashtirgan. Mumtoz janr sistemasida va poeziyaning arabcha vazn oʻlchovlaridan foydalanish Navoiyga lirik erkinlik bergan. Bundan tashqari oʻsha davr talabiga koʻra lirik asarlar koʻtarinki, dabdabali uslub bilan yozilishi kerak edi. Badiiy anʼana taʼsiri natijasida lirik uslub xalq tilidan qisman boʻlsa-da, uzilib qolganligi taassurotni beradi. Shuning uchun Navoiy lirik tematika sohasida eski anʼanadan chetga chiqqan boʻlsa-da, til va uslub masalalarida mumtoz anʼana chegarasidan chetga chiqa olmadi. Alisher Navoiy oʻzining lirik asarlarida, jumladan, «Chor devon», «Hamsa» asarlarida oʻzbek tilini fors-tojik adabiy tili kabi ishlashga va unga dabdabali tus berishga harakat qildi. Bularning hammasi arab va fors tillarining elementlariga keng yoʻl ochib berdi. Navoiy asarlarida arabcha-forscha leksik elementlar bilan birga morfologik elementlar qoʻllangan. Navoiy tilida otlarning aniqlik va noaniqlik shakllari mavjud. Noaniqlik formasi -i affiksi bilan hosil qilingan. Bu affiksi oʻzbek tiliga tojik tilidan oʻtgan boʻlib, eronshunoslikda «yoyi vaxdat» (birlik yoyi) deb ataladi. Masalan, «*Karam (saxovat) bir jafākashni shiddati (qiyinchilik) yugin kytarmakdyr va ani ul suhbatdin (qiyinchilik) yetkarmakdyr*» («Mahbubul qulub»). Yoyi vahdat tarixan qadimgi fors tilida «bir» soʻzi maʼnosida qoʻllanuvchi «ayva» soʻzidan kelib chiqqan. «Ayva» soʻzi qadimgi fors tilida otdan keyin qoʻllanib, unga birlik, noaniqlik maʼnosini bergan. Chunonchi, «bir shoh» deyilmoqchi boʻlsa, «xiloyotiya ayva» deyilgan. Mana shu yoyi vahdat eski oʻzbek tiliga ham oʻtib, oliy uslubda noaniqlik maʼnosini anglatgan. Bu affiksi Navoiyning «Mehribone topmadim» gʻazalida ayniqsa ravshan koʻrinadi. Aniqlik formasi dariy tilidan oʻzlashtirilgan «yoyi ishorat» deb ataluvchi aniqlik affiksi -i bilan ifodalangan. Bu affiks hozirgi oʻzbek tilida *nimaiki* soʻzidagina saqlanib qolgan. «Yoyi ishorat» noaniqlik affiksi «yoyi vahdat»dan grafik ifodasi jihatidan ham, talaffuzda ham farq qilmaydi. Yoye ishorat ham urgʻusiz choʻziq i kabi talaffuz qilinadi. Bu affiks shaklan yoyi vaxdatga oʻxshasa ham, oʻzicha mustaqil affiksi boʻlib, tarixan va maʼno jihatidan undan tamomila farq qiladi. Yoyi ishorat qadimgi fors tilida mustaqil soʻz-koʻrsatish olmoshi «ayva» soʻzidandir.

Navoiy tilida arab tilidan oʻzlashtirilgan xotin-qizlar jinsini bildiradigan -a affiksi keng qoʻllangan: *salita (uyatsz qiz), qabiha, mayxoʻra, badkāra* va boshqalar. Koʻplik shakllarida. Arabcha flektiv shakllar qoʻllangan: *hāl-ahvāl, faqir-fuqarā, kitāb-kutub, muallimun-muallimuna, ārif-ārifin*, va boshqalar. Ikkiplik affiksi -ayn lugʻatayn, *kavnayn (ikki dunyo) kātibayn (ikki kātib)* va ho.

Aytib oʻtilganidek, Navoiy tilida arab-fors tillarining soʻz va iboralari koʻp uchraydi. Shunisi xarakterliki, bunday elementlar faqatgina dabdabali uslub talabiga koʻra emas, balki bunday soʻzlarning koʻpchiligi maʼnoni kuchaytirish, obrazni va lirik taʼsirchanlikni oshirish uchun ham qoʻllangan. Navoiy qoʻllagan arabcha-forscha soʻzlarning maʼlum qismi adabiy tilda keng oʻzlashgan va asrlar osha hozirgi zamon tilida ham tub soʻzlar qatoriga kirib ketgandir.


Savol va topshiriqlar:

1. Alisher Navoiy tilining dialektal xususiyatlari nimalardan iborat?
2. XV asrning II-yarmidagi tarixiy sharoit haqida gapirib bering?
3. Alisher Navoiy asarlarida oʻzbek tili meʼyorlari qanday belgilangan?

Ushbu fikrga e'tibor bering, izohlang va davom ettirishga harakat qiling!

N.I.Ilminskiy <i>Alisher Navoiyga</i> ushbu ta'rifni bergan:	«Ona tili uchun kurashda yagona va bahodir jangchi edi»
Evropalik geograf olim M. Belin	«Navoiy milliy tilga murojaat qilib, uni rad etib bo'lmaydigan darajada asoslab, vatanparvarlikni boshlab berdi»
Z.M.Bobur	«Alisherbek naziri yo'q kishi erdi. Turkiy til bilan to she'r bitubdurlar, hech kim oncha ko'b va xo'b aytqon emas»
Davltshoh Samarqandiy	«Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqqaviy ma'lum emaskim, xargiz paydo bo'lmish bo'lmag'ay»
...	
...	
...	

Alisher Navoiy shoirlar haqida



A.Navoiy adabiy tilning grammatik meʼyorlarini belgilashda ham samarali ishlar qilgan.

1.	Tushum kelishigi bilan qaratqich kelishigi affiksilari o'z o'rnida qo'llanadi.	-ni, -ning	
2.	Chiqish kelishigi faqat ushbu variantlarda qo'llanadi.	-din, - tin	
	Navoiygacha bu kelishik quyidagi variantli affiksilarga ham ega edi.	-dun // -dyn // - tun // -tyn, -dan // -dən // -tan // -tən	
3.	Birgalik nisbat	-ish, -sh	qachishmaq, tapishmaq, chapishmaq
4.	Orttirma nisbat	-t	yugurt, buyurt.
5.	Ravishdosh yasovchi affiksi keng qo'llangan:	-gach/-gəch, - kəch// -qach	əyləgəch, yetkəch

8- mavzu	«MUHOKAMATUL-LUG’ATAYN» ASARI
----------	-------------------------------

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Navoiyning til haqidagi qarashlari. 2. “Muhokamatul-lug’atayn” va uning o’zbek tili taraqqiyotidagi o’rni. 3. “Muhokamatul-lug’atayn” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.
O’quv mashg’ulotining maqsadi: Navoiyning til haqidagi qarashlari, “Muhokamatul-lug’atayn” va uning o’zbek tili taraqqiyotidagi o’rni, “Muhokamatul-lug’atayn” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O’quv faoliyatining natijalari
- Navoiyning til haqidagi qarashlari haqida ma’lumot berish; - “Muhokamatul-lug’atayn” va uning o’zbek tili taraqqiyotida tutgan o’rni haqida tushuntirish; -“Muhokamatul-lug’atayn” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatini tahlil etish;	- Navoiyning til haqidagi qarashlari oid ma’lumotga ega bo’ladi; - “Muhokamatul-lug’atayn” va uning o’zbek tili taraqqiyotidagi o’rni haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - “Muhokamatul-lug’atayn” asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati haqida ma’lumotlarga ega bo’ladi;
O’qitish uslubi va texnikasi	Ma’ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O’qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O’qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O’qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta’minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. "Muhokamatul-lug'atayn" asari haqida qanday ma'lumotga egasiz? 3.2. Navoiyning til haqidagi qarashlari ga oid ma'lumot beradi. 3.3. "Muhokamatul-lug'atayn" va uning o'zbek tili taraqqiyotida tutgan o'rni haqida tushuncha beradi. 3.4. -"Muhokamatul-lug'atayn" asarining ilmiy-tarixiy ahamiyatini tahlil etadi, to'liq ochib beradi.	3.1. "Muhokamatul-lug'atayn" asari haqida ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. "Muhokamatul-lug'atayn" va uning o'zbek tili taraqqiyotida tutgan o'rni haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. "Muhokamatul-lug'atayn" asarining ilmiy-tarixiy Navoiyning boshqa tillarga munosabati, qarashlarini yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

8- MAVZU
«MUHOKAMAT-UL-LUG'ATAYN» ASARI

REJA:

4. Navoiyning til haqidagi qarashlari.
5. «Muhokamatul-lug'otayn» va uning o'zbek tili taraqqiyotidagi o'rni.
6. «Muhokamatul-lug'otayn» asarining ilmiy-tarixiy ahamiyati.

1. Alisher Navoiy «Chor devon», «Hamsa», «Mahbubul- qulub», «Majolisun- nafois», «Mezonul- avzon» kabi asarlari bilan o'zbek adabiy tilini amaliy jihatdan isbotlagan bo'lsa, «Muhokamatul- lug'atayn» asarida uni nazariy jihatdan tushuntirib berdi. Shu jihatdan uning mazkur asari zo'r ilmiy qimmatga egadir. «Muhokamatul-lug'atayn» Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgandir, ya'ni hijriy 905, melodiy 1499 yilda yozilgan. Asarda turkiy (o'zbek) tili bilan sort (fors-tojik) tilini muqoyasa qiladi. Asar muallifning kirish so'zidan boshlanadi. Bunda avvalo tilning mazmuni, shakli haqida gapirib, uning birligini, ya'ni til shakl, mazmun jihatdan bir bo'lgandagina o'z vazifasini o'tay olishligini aytadi. So'ng inson tilining vazifasi haqida so'zlab, bunda arab tilining ahamiyatiga alohida e'tibor beradi. So'ngra tilning kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Bu sohada Navoiy islom diniga asoslanadi. Tillarning kelib chiqishini Nuh payg'ambarning umumjahon to'fonida yolg'iz qolishi va tillarning manbaini uning o'g'illari Yofas, Xom, Som nomlari bilan bog'laydi. Navoiyning bu qarashi qadimgi grek falsafasida ham, Islom falsafiy-tarixiy asarlarida ham keng tarqalgan edi. Navoiy esa ulardan unumli foydalangan. Shundan keyin turklarning kelib chiqishi, turkiy tilning xususiyatlari, uning sort (tojik) tili bilan munosabati haqida fikr yuritadi. Buning isboti sifatida turkiy tildagi sinonim, omonimlarning taraqqiy topganligini keltiradi. Umuman, Navoiyning mazkur asarida olg'a surilgan asosiy g'oyalar quyidagilardan iboratdir:


1. O'zbek tilini fors-tojik tili bilan chog'ishtirib, uning fors tilidan qolishmasligini ko'rsatib, o'zbek tilida asarlar yozishga boshqalarni ham chaqiradi.
2. Navoiy **ikki** tilni chog'ishtirar ekan, o'zbek tili lug'at boyligining ustunligini ko'rsatdi. Asarda 100 ta fe'l keltirilib tahlil qilinadi, Shuningdek, o'zbek tilining boshqa leksik qatlamlarida, ya'ni qushchilik, chorvachilik, kiyim-kechakka oid ko'pgina so'zlarning rivoj topganligini isbotlab beradi. Shuning uchun ham turkiy tilni u xazina deb ataydi. Lekin bu xazinaning atrofini, shoir tili bilan aytganda, «ilonlar» va «tikonlar» o'rab olgan. Navoiy ana shu so'zlarni «ilon va tikonlar» dan tozalab o'z asarida qo'llaydi hamda bu ishga boshqalarni ham chaqiradi.
3. Ikki tilni qiyoslar ekan, Navoiy o'zbek tilining so'z yasash borasda ustun ekanligini namoyish qildi. Bunda -chi va -vul affiksilarining so'z yasashdagi roli, ayniqsa, buyuk ekanligini ko'rsatadi.
4. Grammatik shakllarning hosil qilinishida -sh, -t, -l affiksilarining ahamiyati haqida ham qimmatli ma'lumot beradi.
5. O'zbek tilining tarixiy fonetikasiga doir qimmatli fikrlar mavjud: vov harfining to'rt xil (undosh bilan besh xil) talaffuz qilinishi, yoyning uch xil (y,i,e) talaffuz qilinishi haqida fikr yuritadi.
6. Omonimlar haqida shunday deydi: «*Va kək lafzini ham necha ma'ni bilə iste'māl qilurlar. Biri kək-āsmānni derlər. Yana kək āhangdur. Yana kək tegrədə kəkləmdyr. Yana kək qadag'ni ham derlər, yana kək sabza va olangni dag'i derlər*» va h.o.
7. O'zbek tilining yuqoridagi imkoniyatlarini isbotlashda Navoiy fors-tojik tilini hech vaqt kamstmaydi, balki unga hurmat bilan qaraydi.

«Muhokamatul-lug'atayn»da Navoiyning dialogik qarashlari o'zining yorqin ifodasni topgan. Navoiy til masalalariga tilshunos sifatida emas, balki adabiyotshunos sifatida yondoshgan. Bu asari bilan o'zbek adabiy tilini nazariy jihatdan ishlab chiqish zarur ekanligini o'rtaga tashlab, bu masalani hal qilmasdan turib, adabiy tilni yaratish va uni rivojlantirish masalasi bilan shug'ullanish mushkul ekanini ta'kidlaydi. Shu jihatdan «Muhokamatul lug'atayn» o'zbek adabiy tilining balog'atga yetishi va uning keyingi taraqqiyotida muhim ahamiyatga molik bo'ldi.


Savol va topshiriqlar:

- 1. Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschisi deganda nima nazarda tutiladi?*
- 2. "Muhokamatul-lug'atayn" asarida o'zbek tili tarixi uchun qanday fikrlar olg'a surilgan?*


Alisher Navoiyning adabiётshunoslik va tilshunoslikka doir asarlarini sanang



Alisher Navoiyning tilshunoslikka doir qarashlari



Alisher Navoiy omonim so'zlar haqida



9- mavzu	BOBUR, MUHAMMAD SOLIH ASARLARINING TILI
-----------------	--

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1. XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi. 2. Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi. 3. Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari 4. XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so'zlar.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi, Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi, Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari, XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so'zlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi haqida ma'lumot berish; - Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi haqida tushuntirish; - Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari tahlil etish; - XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so'zlar haqidagi bilimlarni shakllantirish;	- XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so'zlar haqida bilib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Bobur shaxsi va uning adabiy merosi haqida qanday ma'lumotga egasiz? 3.2. XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi haqida ma'lumot beradi. 3.3. Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi haqida tushuncha beradi. 3.4. Muhammad Solih dostonining til xususyatlari to'liq ochib beradi. 3.5. XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forscha so'zlar tahlil qilinadi.	3.1. Bobur shaxsi va uning adabiy merosi haqidagi ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Bobur asarlari tili va ularda turkiy so'zlarning qo'llanishi haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. Muhammad Solih dostonining til xususyatlari yozib oladilar. 3.5. XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forscha so'zlar haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

9-MAVZU

BOBUR, MUHAMMAD SOLIH ASARLARINING TILI

REJA:

1. XVI asrda Alisher Navoiy yaratib qoldirgan an'ananing davom ettirilishi.
2. Bobur asarlari tili. Bobur asarlari tilida turkiy so'zlarning qo'llanishi.
3. Muhammad Solih dostonining til xususiyatlari
4. XIV-XVI asrlar adabiy tilida arabcha, forsha so'zlar.

Tayanch tushunchalar:

An'ana – ajdodlardan meros bo'lib qolgan hatti-harakatlarni avlodlar tomonidan davom ettirilishi. Masalan, qoraxoniylar davrida yaratilgan adabiy til an'anasini XIV asrning birinchi yarmigacha davom ettirildi. *Ibora* – ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi. *Munshaot* – arabcha so'z bo'lib, yozishma, maktub degan ma'noni bildiradi.

1. XVI asrga kelib uzluksiz davom etgan ziddiyatlar, mamlakat ichidagi turli xarakterga ega bo'lgan qarama qarshiliklar temuriylar davlatining iqtisodiy-siyosiy hayotini, harbiy qudratini zaiflashtirib yubordi. Tarixdan ma'lumki, XV-XVI asrlarda temuriylardan bo'lgan, Boburning otasi Umar Shayx Mirzo Farg'ona ulusning hukmdori bo'lgan. U aka-ukalari - Hisor hokimi Sulton Maxmud Mirzo, Samarqand hokimi Ahmad Mirzo, Qobul hokimi Ulug'bek Mirzolar bilan taxt talashib, jiddiy kurashlar olib borar edi. Bularning hammasi tashqi hujum uchun hamda uning yengil muvaffaqiyati uchun keng imkoniyat tug'dirardi. Natijada temuriylar davlati yemirilib, uning o'rnida Shayboniylar hukmronligi boshlandi. Lekin bu davrlarda adabiy harakatchilik so'nmadi, aksincha ulug' Navoiy an'anasini davom qilib keldi. A.Navoiy ijodiga bo'lgan hurmat uning o'z zamonida boshlangan edi. Badiiy adabiyotda va adabiy tilda uning an'anasini ayniqsa uning kichik zamondoshi Z.M.Bobur tomondan davom ettirildi.

2. Bobur o'zining lirik shoirligi va XVI asr prozasining namunasi bo'lgan «Boburnoma» asari bilan o'zbek adabiyoti va tili tarixida o'chmas iz qoldirgan so'z san'atkoridir. Bobur tili va uslubi xalqchilligi bilan xarakterlanadi. U yaratgan asarlar tor intelligentlar doirasida emas, balki ko'pchilikka tushunarli bo'lgan. U sodda yozish bilan birga boshqalarni ham sodda yozishga chaqirdi. Shu jihatdan uning o'z o'g'li Xumoyunga yozgan maktubidagi bir fikri xarakterlidir. Xumoyun tili otasi tiliga qaraganda ancha og'ir, uning asarlarida arabcha-forsha so'z va iboralar ko'p ishlatilgan. Xumoyunning shu xatini tanqid qilib, Bobur shunday yozadi: «Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'uchig'a». Boburning sodda uslub va til bilan yozishning talab qilishi va bunga o'zining amal qilishi progressiv voqeadir. Badiiy uslubning soddaligi Bobur asarlarining o'quvchiga tez anglashilarli bo'lishiga, badiiy tasvir vositalarining ommabop bo'lishiga olib keldi. Lirik she'rlarining tili haligacha tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Shunga qaramasdan, uning lirikasi xalqqa tushunarli til va uslubda yozilganligini ko'ramiz. Masalan, Tushumda chyn quyashdek āraziqni kerdim otrudin

Tilarmen tā qiyamat achmag'aymen kēzni uyqudi

Bobur lirikasida ham arabcha-forsha so'zlar qo'llangan. Lekin Navoiy asarlaridagiga nisbatan kamroqdir. Masalan, «Ne hush bo'lg'ayki» matlali g'azalda 63 ta so'z qatnashgan bo'lib, undan 5 tasi kishi nomlari, 35 ta turkiy, 23 ta arabcha-forsha so'zlardir. Ayrim g'azallarida bu nisbat yana ham ortib borishi qo'llangan arabcha-forsha so'zlar ham hozirgi davr o'quvchilariga tushunarlidir. Bu xususiyat «Boburnoma» asari tili uchun ham xarakterlidir.

«Boburnoma»ning 14 ga yaqin qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi XVII-XVIII asrlarda ko'chirilgan. Bular hozir Leningrad, Kalkutta, Haydarobod, London kabi shaharlarda saqlanadi. Uning bir nusxasi 1737 yilda ko'chirilgan bo'lib, shu nusxa asosida N.Ilminskiy Qozonda 1875 yilda nashr qildi. Haydarobod nusxasi asosida asarni ingliz olimi A.Beverij 1905 yilda Londonda nashr qilgan. «Boburnoma» XVI asr prozasining nodir yodgorligi bo'lib, faqat XVI asr boshlaridagi tarixiy voqealarni to'g'ri aks ettirish jihatidagina qimmatli bo'lib qolmay, u o'sha davrdagi o'zbek tilining xususiyatini ko'rsatib beruvchi manba hamdir. Z.M.Bobur bu asar orqali xalq jonli tilining boyliklarini chuqur o'rganib adabiy tilni xalq jonli tiliga

yaqinlashtirish uchun harakat qilganligini ko'ramiz. Bunda u xalq og'zaki ijodiga xos maqol va iboralarni ko'plab qo'llaydi. Masalan, *Dushman ne deməs, tushga ne kirməs. Deh kujavu, daraxshon kujo?* Va boshqalar.

Bobur tilining muhim xususyatlaridan biri shundaki, ifodaning ixchamligi, soddaligi va ravonligidir. Buning uchun u so'zlarni tanlab ishlatishga oz so'z bilan ko'proq fikrni bayon etishga harakat qildi. O'zbek tilining so'z boyligidan ijodiy foydalanib, undagi sinonim, omonim va antonim so'zlardan keng va o'rinli foydalandi Bobur asarida sodda gapni ko'proq qo'lladi, qo'llangan qo'shma gaplar ham tuzilishiga ko'ra sodda gaplarga o'xshash bo'lib, osonlik bilan tarkibiy komponentlarga ajraladi. Masalan, *Tā anda yetkuncha, mening bilən sekiz kishi qalib edi va h.o.* Bobur badiiy mahorat va uslub jihatdan emas, balki til faktlaridan foydalanish masalalarida ham Navoiy an'alaridan davom ettirdi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

1. Bobur ham arabcha-forscha so'zlarni o'z asarlarida ma'lum maqsadda-ifoda kuchini oshirish, lirik ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida qo'llagan.

2. Navoiy vasiyatiga amal qilib, turkiy til imkoniyatlaridan yana ham kengroq foydalandi va xalq, tilida ayrim bor til faktlarini adabiy tilga olib kirdi. Ular tubandagilardir;

a) *-lar* affiksi fe'l oldidagi sifatlarda keltirildi. Bu esa shu sifat ma'nosini kuchaytirilishini ta'minladi. O'zga tofang andāzlar atmaqqa kōrsōtib yaxshilar atdilar.

b) *-tadan* affiksi orqali taqsim son hosil qilindi.

g) belgilash olmoshlaridan tugal, bor (borcha) so'zlari qo'llandi va h.o.

d) *dag'i, va, yo, -ki* kabi bog'lovchilari keng qo'llandi va h.o.

Z.M. Bobur Navoiy kabi uyg'ur tiliga xos bo'lgan *-qu* affiksidan foydalandi: *kelgym, kelgysi* va h.o. Bunda ham u ijodiy foydalanib, uning murakkab shakllarini - *gylık, -gysi, -gydek* kabi so'z yasovchi affiksilar hosil qildi. «Boburnoma» leksikasi ham juda boy unda hayvonot olami, tabiat hodisalari, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid ko'plab leksik elementlarni uchratish mumkin. Bobur asarida ko'p uchraydigan so'zlar quyidagilardir: *yavuyq (yaqin), cherik (askar), qabamaq (qamamoq), ilik (qo'l), ulus (xalq), qazaqliq (darbadarlik), qasaba (shaharcha)* va h.o.

Shunday qilib, Bobur lirikada turkiy so'zlarni ko'plab qo'llab, o'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qilgan bo'lsa, «Boburnoma» asari bilan o'zbek badiiy prozasi sohasida yetarli tajribaga ega bo'lmagan bir davrda proza tilida katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi.

3. «Shayboniynoma» XVI asr adabiyoti va tilining nodir yodgorligidir. Bu asar avtori Muhammad Solih esa o'z zamonasining eng ma'rifatli kishilaridan bo'lishi bilan birga talantli shoiri ham bo'lgan. U o'z ijodini g'azallar yozish bilan boshlagan, lekin uning g'azallari bizgacha yetib kelmagan. Doston 76 bobdan iborat bo'lib, 4456 baytdan tashkil topgan. Dostonning 1-bobi munojot, 15 bobi lirik chekinishlar va qolgan 60 bobi esa tarixiy voqealarga bag'ishlangan. Asarning boshqa dostonlardan farqi shundaki, bunda asar asosiga afsonaviy voqea va hodisalar emas, balki shoir o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealar olingan. «Shayboniynoma»ning qo'lyozma nusxalari ko'p emas. Hozirgacha 1510 yilda Qosim ismli kotib tomonidan ko'chirilgan Vena nusxasidan foydalanib kelinmoqda. Shu nusxa asosida 1885 yilda Vamberi dostonni Venada nemischa tarjimai bilan nashr qildirdi. Vamberi nashri asosida P.M.Melioranskiy 1904 yilda Peterburgda ikkinchi marta chop qildi. P.M.Melioranskiy nashri asosida ba'zi aniqliklar bilan hozirgi o'zbek grafikasida nashr qilindi. «Shayboniynoma» tilida o'zbek adabiy tili boyliklarining barcha tomonlari ko'rinadi. Navoiy an'alaridan unumli foydalangan Muhammad Solih adabiy tilni xalq jonli tilida qo'llanayotgan grammatik va leksik elementlar hisobiga boyitdi. U tildagi sinonimlardan maqsadga muvofiq foydalandi. Masalan, *dushman so'zi — xasm, jov, aduv, yogi; xalq so'zi — ulus, el, raiyat* kabi sinonimlar bilan berilgan. Muhammad Solih quyidagi til elementlarini adabiy tilga olib keldi;

1. Jamlovchi son *-ala* affiksi bilan hosil qilingan; Mashvarat aylādīlēr tōrtōlēsi

Fikrini sayladilar tōrtōlēsi. (157-bet)

2. Buyruq fe'lining ikkinchi shaxs birlik shakli *-g'il, -gil* affiksilar bilan qo'llangan.

3. Buyruk-istak mayli birinchi shaxs ko'pligida *-ali, -alin* affiksi qo'llangan: *kechāli, alali, alalin*.

4. Ko'makchilardan *qat(i), yzā, tegi* kabi so'zlar qo'llangan.

5. Singarmonizmning lab garmoniyasi turi 2 bo'g'indan keyin ham qo'llanadi:

Yygryshyb har saridan yettilər

Qorim ag'zida maqām ettilər. (252)

M.Solihning «Shayboniynoma» asariga leksik jihatdan yondoshsak, u o'z asarida forscha-arabcha so'zlarni ozroq ishlatishga, mumkin qadar jonli tildagi so'zlarni ko'proq ishlatishga harakat qilganini ko'ramiz. Dostonda iste'moldan chiqqa boshlagan, badiiy adabiyotda siyrak uchraydigan quyidagi so'zlarni uchratamiz, *ob ag'a (bobo), abag'a (amaki), qabqa (darvoza), yag'i (dushman)*. O'zbek adabiy tiliga mazkur doston orqali maishiy sohaga, harbiy texnikaga va boshqa sohalarga oid so'z va terminlar kirib keldi. Masalan, qurol nomlari - *sag'it, dubulg'a, maqlayliq, zānuband*; jangchilar turadigan joy nomlari - *peshxāna, sarāparda, bavarjixāna, shāmiyona*; ot-ulov nomlari - *qo'tos, ejishi, ubchin*; may idishi nomlari - *ko'raki, mashraba*; mato nomlari - *joja, alocha*; palos nomlari — *debā, gāli, mafrash, nāmādi shatranjip*; urug' va qabila nomlari - *burqut, mang'it, nayman, do'rmon, o'tun, jaloyir, qorliq, sulduz, nukuz* va boshqalar.

Umuman, Muhammad Solih Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili taraqqiyoti uchun kurash yo'lini davom ettirgan shoirlardan biridir.

4. Akademik V.Radlov eski o'zbek tilini - chig'atoy, usmonli turk tili kabi turkiy, arab va fors elementlarining aralashuvidan hosil bo'lgan sun'iy bir til degan fikrni ilgari suradi. Ma'lumki bunday elementlarning shu davr adabiy tilida mavjud bo'lishi turli tarixiy sharoitlar bilan bog'liqdir. Albatta, bunga sabab fors-tojik adabiyoti bilan o'zbek adabiyotining yaqinligi bo'ldi. Shu tufayli XIV asrning 2-yarmi va XV asrdan boshlab qadimgi turkiy so'zlar zamona talablariga muvofiq arabcha va forscha so'zlar bilan almashtiriladi. Bularning ko'pchiligini tabiiy diniy-ilohiy tushunchalar ifodasi bo'lgan so'zlar tashkil qiladi: *idi-ega, xudo, oll- taolo; uchmaq-jannat, behisht, tamug-do'zax* qabilar. Qadimgi turkiy so'zlarning arabcha-forscha so'zlar bilan almashtirishi diniy tushunchalar doirasida emas, balki hayotiy so'zlar doirasida ham yuz bergan: *baliq-shahar, asg-fāyda, achun-dunyo, irin-lab* va h.o. O'zbek tili o'zining shakllanishi va rivojlanishi jarayonda qadim zamonlardan buyon O'zbekiston tarixi bilan taqdir bog'lab kelgan ko'pgina tillar bilan munosabatda bo'lib keldi. Shu jarayonda aloqador tillardan zaruriy so'z va iboralar o'zbek tilining lug'at sostaviga kelib qo'shildi.

O'rta Osiyo va O'zbekistonning sho'rolar tuzumi davrigacha qabul qilingan so'zlarning asosiy qismini arab, fors-tojik tilidan olingan so'zlar tashkil qiladi. Bu so'z va iboralar hamda ular bilan bog'liq holda kirib kelgan ayrim grammatik shakllar zamonlar o'tishi bilan o'zbek tilining tub elementlari qatoriga o'tib ketgandir. Arab va fors tillarining ta'sir doirasi ayniqsa XV asrda kuchaydi. Ma'lumki, o'zbeklar o'ratasida feodal munosabatlarning rivojlanib borishi va u bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy hayotning rivojlana borishi arabcha va forscha so'z, iboralarning tilga kirib kelishi uchun keng yo'l ochib berdi. Tojik va o'zbek adabiyotining o'zaro yaqinlik munosabati o'zbek tilidagi badiiy adabiyotning misli ko'rinmagan darajada rivoj topishi, o'zbek mumtoz adabiyotining tug'ilishi va taraqqiy etishi bilan arabcha va forscha so'zlar o'zbek tilida keng va chuqur ildiz yoyib keldi. O'zbek adabiy tilida bu hol XIV asrdan boshlab XU-XU1 asrlarda ochiqroq ko'rindi. Xuddi shu davrga kelib fors tili deb atalgan eski tojik adabiy tili va adabiyoti o'zbek savodxonlari orasida keng tarqaldi, shuhrat qozondi. Bu hol o'zbek adabiyotiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Arab tilining lirik elementlari ham o'zbek tiliga tojik tili orqali kirib keldi. O'zbek tilida yozilgan yodgorliklarning syujet va janriga qarab ularning lug'at sostavi har xil bo'lgan. Ba'zi yodgorliklar tilida arabcha va tojikcha so'zlar 95 foiz va undan ortiq edi. Lekin ular grammatik struktura jihatidan shubhasiz o'zbek tilining qonuniyatlariga bo'ysnar edi. Shuning uchun ham ularni o'zbek tili yodgorligi deb yuritiladi. Bunday hodisani lirik asarlar tilida uchratish mumkin. Masalan Navoiyning:

Harārat jonima ul ātashin la'l āhgarindindur

Aḥa taskin ham iz ravzasiniḥ kavsarindindur

Sachiḥniḥ tiyra shāmidan yūzūḥ subhida yol tapmaq

Bināgo'shuḥ dag'i durri tabafro'z axtarindindur.

Taxurā bādasi derlār erur jānbaxshu ruqafzā

Magarkim chachini ul mayg'a la'liḥ sag'arindindur.

Yuqoridagi uch baytda 33 ta so'z formasi qatnashgan bo'lib, shundan 9 tasgina turkiy (o'zbekcha) qolganlari esa arabcha-forscha so'zlardir. Atoyidan olingan quyidagi 2 baytda esa so'zlarning deyarli barchasi arabcha-forschadir.

Dilrabā la'liḥ sharābi āb kavsardin latif

Qāmating naqli dag'i sarvu sanubardin latif

Sarhai xusnung qashida munfail avrāqi gul

Nuqtai xāliḥ abiri mushki anbardin latif.

Bunda faqat dag'i, qosh, xol so'zlarigina o'zbekchadir. Shu davrda ijod etgan o'zbek shoirlarining ba'zi asarlari tili ham yuqoridagidan qolishmaydi. Hatto o'zbek tilining himoyachisi sifatida nom chiqargan Navoiy ham arab, fors-tojik so'z - iboralarni ma'lum sabab va sharoitlarga ko'ra ko'p ishlatgandir. Bu davr adabiy tilida arab, fors-tojik so'z va iboralarining haddan tashqari ko'p ishlatib yuborilganligi o'zbek tilining kambag'al va ma'lum tushunchalarni ifodalay olish inkoniyatiga ega bo'lmagan til ekanligini bildirmaydi. O'zbek tili arab va fors-tojik tillaridek murakkab tushunchalarni ifoda qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tillardan bo'lgan. Lekin bu til zamonasiga ko'ra adabiy-badiiy jihatdan, ilmiy terminologiya jihatdan ishlanmagan edi. Ma'lum tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlar o'zbek tilida mavjud bo'lishiga qaramasdan xorijiy tillardan so'z va iboralar, ilmiy tushunchalarni bildiruvchi terminlar qabul qilingan. Buning o'ziga yarasha tarixiy sabablari mavjud. Ma'lumki, arab tili asrlar mobaynida faqat islom dinining tili bo'lib qolmasdan, balki musulmon sharqida fan hamda madaniyat tili ham bo'lgan. Arab tilida asrlar mobaynida ishlangan va ilmiy jihatdan slliqlangan tayyor terminlardan o'zbek shoirlari va madaniyat arboblari foydalanganlar. Arabcha ilmiy termin, so'z-iboralar o'zbek tilida yozilgan ilmiy, falsafiy, tarixiy, adabiy-badiiy asarlar tilida keng qo'llanilgan. Shu so'z va terminlardan Navoiy ham keng foydalangan. Navoiyning ko'pchilik asarlari nomi ham arabcha berilgan. Buning o'ziga xos sabablari bor. Birinchidan, Navoiy tomonidan mavjud an'ananing saqlanishi bo'lsa, 2-si o'zbek tilida yaratilgan asarlariga ko'pchilik diqqatini jalb etish bilan bog'liq. O'zbek tilining murakkab tushunchalarni ifoda qila olish qudratiga ega ekanligi Navoiyning «Muhokamat-ul-lug'atayn asarida keng isbotlab berilgan.

Yozuv yodgorliklarida fors-tojik va arab tillari madaniyati merosiga yondashish va ulardan foydalanish prinsiplari turlicha bo'lgan. Bu prinsiplar shoir va yozuvchilarning ijtimoiy hayot taraqqiyotidagi tutgan o'rni va yo'llariga qarab hamda asarlarining janr va uslublariga qarab har xil shaklga ega bo'lgan. Shoir va yozuvchilar asarlarida arab va fors so'zlarini o'rinsiz ishlatgan jihata va g'oyat darajada ajnabiy til elementlariga mehr qo'yib yuborgan o'rinlar ham uchraydi. Bunday hol ayniqsa diniy asarlar uchun xarakterlidir. O'zbek adabiy tili o'zining shakllanish va rivojlanish jarayonida arab va fors-tojik tillaridan qanchalik ko'plab so'z va iboralar olib kelgan bo'lmasin, lekin u shu bilan birga o'zining tub xususyatini yo'qotib yubormadi, balki o'zining grammatik strukturasini va asosiy lug'at fondini saqlab, taraqqiy etib keldi.

Savol va topshiriqlar:


1. XVI asr adabiy yodgorliklarida Alisher Navoiy an'anasi qaysi adiblarning ijodida aks etgan?
2. Bobur asarlari tilining xarakterli xususyatlari nimalardan iborat?
3. Muhammad Solih dostonining til xususyatlari nimalardan iborat?

Bobur tili va uslubi xalqchilligi bilan xarakterlanadi

- U sodda yozish bilan birga boshqalarni ham sodda yozishga chaqirdi.
- Xumoyun tili otasi tiliga qaraganda ancha og'ir, uning asarlarida arabcha-forscha so'z va iboralar ko'p ishlatilgan.
- Shu jihatdan uning o'z o'g'li Xumoyunga yozgan maktubidagi bir fikri xarakterlidir:
- «Mundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti, ham senga tashvish ozroq bo'lur, ham o'qug'uchig'a».

<u>«Boburnoma»ning 14 ga yaqin qo'lyozma nusxalari mavjud</u>	Ularning ko'pchiligi XVII-XVIII asrlarda ko'chirilgandir
--	---

«Boburnoma» nusxalari Evropa va Osiyo kutubxonalarida saqlanadi:




Bobur ijodida o'zlashmalar

Bobur lirikasida ham arabcha-forscha so'zlar mavjud, lekin Navoiy asarlaridagiga nisbatan kamroq qo'llangan.

Masalan:

- «Ne xush bo'lg'ayki» matlali g'azalda 63 ta so'z qatnashgan:
- undan 5 tasi kishi nomlari;
- 35 ta turkiy;
- 23 ta arabcha-forscha so'zlardir;
- Ayrim g'azallarida bu nisbat yana ham ortib boradi;
- Qo'llangan arabcha-forscha so'zlar ham hozirgi davr o'quvchilariga tushunarlidir.
- Bu xususiyat «Boburnoma» asari tili uchun ham xarakterlidir.

«Shayboniynoma» XVI asr adabiyoti va tilining nodir yodgorligidir.



10- mavzu**XVII-XIX ASRLAR ESKI O'ZBEK TILI****1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1. Davr adabiy tili haqida. 2. Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining tili va uslubi. 3. Turdi hajviy asarlarining tili va uslubi. 4. Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi. 5. Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslubi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: davr adabiy tili, Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining tili va uslubi, Turdi hajviy asarlarining tili va uslubi, Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi, Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslubi haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
-davr adabiy tili tili haqida ma'lumot berish; - Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlari ning tili va uslubi haqida tushuntirish; - Turdi hajviy asarlari ning tili va uslubini tahlil etish; - Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi haqidagi bilim larni shakllantirish; - Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslubi haqida ma'lumot berish;	- davr adabiy tili haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining tili va uslubi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - Turdi hajviy asarlarining tili va uslubi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi haqida bilib oladi; - Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslub haqida ma'lumot oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Davr adabiy tili tili haqida ma'lumot beradi. 3.2. Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining tili va uslubi haqida tushuntiradi. 3.3. Turdi hajviy asarlari ning tili va uslubi haqida tushuncha beradi. 3.4. Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi haqidagi bilimlarni to'liq ochib beradi. 3.5. Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslubi tahlil qilinadi.	3.1. yozib oladilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Turdi hajviy asarlari ning tili va haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi haqidagi bilimlarni yozib oladilar. 3.5. Gulxaniy va Mahmur asarlarining tili va uslubi haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

10 - MAVZU

XVII-XIX ASRLAR ESKI O'ZBEK TILI

REJA:

1. Davr adabiy tili haqida.
2. Abulg'ozi Bahodirxon tarixiy asarlarining tili va uslubi.
3. Turdi hajviy asarlarining tili va uslubi.
4. Muhammad Xoksoning «Muntahabul lug'at asari.
5. Nishotiy va Munis asarlarining tili va uslubi.
6. Gulxaniy va Mahmud asarlarida til va uslub muammolari.

Tayanch tushunchalar:

1. *«Shajarai turk», «Shajarai tarokima» - tarixiy asar.*
2. *Hajviy she'r- kishilar yoki ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni kulgu yo'li bilan tasvirlash.*
3. *“Muntahabul lug'at”- ilmiy atamashaunoslikka oid lug'at.*
4. *“Zarbulmasal”- ramzli hikoya, masal.*
5. *Satira- hayotdagi yaramas hodisalar, kamchiliklarni qattiq qoralaydigan o'tkir hajviy asar.*

1. O'rta Osiyoning siyosiy, madaniy hayotida ro'y bergan tushkunlik XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yana chuqurlashdi. Feodal jamiyatining iqtisodiy, siyosiy hayotida kuchli tanglik holati vujudga keldi. Shayboniylardan keyin hukmronlik qilgan ashtarxoniylar ham o'lkada umumiy osoyishtalik, obodonlik va madaniy taraqqiyotning garovi bo'lmish markazlashgan hukumat tuza olmadilar. O'rta Osiyo uch xonlik (Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari) va bir qancha mayda bekliklarga bo'lingan edi. Bu xonliklar o'rtasda qonli kurashlar davom etardi. Buning ustiga Eron shohi Nodirning XVIII asr o'rtalaridagi bosqinchiligi mamlakat xo'jaligini izdan chiqardi. Bu davrda har uchala xonlikdagi mehnatkash ommaning feodal jabr-zulmiga qarshi kurashi keskin tus oldi. Mamlakatning xo'jalik hayotidagi tushkunlik madaniy va adabiy hayotda o'z ifodasni topdi.

Bu davrning adabiy tili mahalliy shevalarga tayangan holda rivojlandi. XVII-XIX asrlardagi o'zbek adabiy tilini o'rganishda o'sha davrda yaratilgan tarix asarlari, tazkiralari, shoirlarning ijodlari asosiy manba bo'ladi.

XVII-XIX asrlarda O'rta Osiyo tarixchilari tarix va jo'g'rofiyaga doir bir qancha asarlar yaratdilar. Said Muhammadtohir bin Abulqosmning «Ajoyibut-taboqat», Abulqosm bin Shohmirzo ibn Sa'dulla al-Husayniy al-Qasbaviyning «Natoyijul-fikr», Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», Muhammadamin Yaroqchining «Muhitut-tavorih», Mullo Sharafiddin A'lam ibn Nuriddin Oxund Mullo Farhod Samarqandiyning «Tavorixi kasra», «Tarixi Roqimiy», Mahmud ibn Valining «Bahrul-asror fi manoqibul-axyor», Suhaylning «Imomqulinoma», Mutribiyning «Tazkiratush-shuaro», Muhammadbade' Maleho Samarqandiyning «Muzokirul-ashob», Muhammad Xoksoning «Muntaxabul-lug'at», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Munisning «Firdavsul iqbol» kabi tarixiy, jo'g'rofiy, ilmiy asarlari shu davrning mahsuli hisoblanadi.

Bu asarlar XVII-XVIII asrlarga doir siyosiy leksika va ilmiy atamashunoslik bilan tanishishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'sha asrlar adabiy tilini o'rganishda mazkur davrda yashab ijod etgan shoirlar ijodi ham etarli manba bo'ladi. Bu davr adabiy tilini rivojlantirishda Turdi Farog'iy, Boborahim Mashrab, Mavlono Vafu, G'oziy, Shavqiy, Pahlavonquli Ravnaq, Muhammadniyoz Nishotiy, Munis, Gulxaniy, Maxmur, Ogahiy, Mujrim Obidlar munosb hissa qo'shdilar. Bu ijodkorlar asarlari tilida Navoiy an'anasi bilan birga, g'arbiy adabiy til shakllari ham uchraydi. Bu narsa Fuzuliy she'riyati tilining ta'siri natijasida paydo bo'lgan.

2. Feodal hukmdor Abulg'ozi Bahodirxon siyosiy, harbiy ishlar bilangina cheklanib qolmay, ilm-fan, san'at va adabiyot bilan ham shug'ullandi. Natijada u zamonasning etuk tarixchisi bo'lib etishdi. Uning «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari Xorazmning XIV-XVII asrlardagi tarixini o'rganishdagina emas, balki o'sha davr tilini o'rganishda ham muhim manbadir.

Abulg'ozining «Shajarai tarokima» asari so'zboshi va 9 bobdan iborat bo'lib, turkman xalqi tarixining

afsonalardan tortib XVII asrgacha bo'lgan davrini yoritadi. Bu asarni birinchi bor olimlar dunyosga tanishtirgan kishi A.G.Tumanskiydir. U asarning Mulla Qurbonkeldi O'razmuhammad mulla tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma nusxasdan tarjima qildi. Bu qo'lyozma Toshkentda saqlanadi.

Abulg'ozining ikkinchi asari «Shajarai turk»dir. Bu asar yozib tugallanmagan. «Shajarai turk»dagi voqealarni «Shajarai tarokima»dagi kabi uch qismga bo'lish mumkin:

1. Diniy mazmundagi Odam ato haqidagi afsonalar.
2. O'g'uz-turkmanlarning o'g'il haqidagi ma'lumotlari.
3. Real asosga ega bo'lgan, lekin afsonaviy tarzda etib kelgan voqealar bayoni.

«SHajaray turk» asari asrlarda yurgan shved ofiseri Tabbert tomonidan ilmiy hayotga ma'lum qilinadi. U XVIII asrning boshlarida Sbirda qisman rus tiliga, 1726 yilda fransuz tiliga, 1780 yilda nemis tiliga, 1770 yilda rus tiliga, 1780 yilda ingliz tiliga tarjima qilinadi va nashr etiladi. Shundan keyin ham bu asarning to'ldirilgan tanqidiy matnlari turli tillarda nashr etiladi. «Shajarai turk» asarining ettitadan ortiq qo'lyozma nusxas mavjud bo'lib, ular Toshkent, Sankt-Peterburg va Ashgabatda saqlanadi. Abulg'ozining «Shajarai tarokima», «Shajarai turk» asarlari yuzasdan A.N.Kononov katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borib, doktorlik dissertasiyasni yoqladi. Bu asarlarning rus tilidagi tanqidiy matnlarini tayyorladi va «Shajarai tarokima»ning tanqidiy matnini 1958 yilda nashr ettirdi.

Abulg'ozini Bahodirxon o'z asarlarini omma tushunadigan qilib sodda tilda yozishga alohida e'tibor bergan. Muallif o'z tarixiy asarlarining boshqa tarixchilar asarlaridan til jihatidan farq qilishini ta'kidlab, quyidagilarni yozadi: «Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug'atlarni qoshib tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar. O'zlarining hunarlari va ustazlarini xalqqa ma'lum qilmaq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduq aning uchun kim, bu kitabni o'qug'uchi va tinglag'uchi albatta turk bo'lg'us turur: bas, turklarga turkana aytmag kerak, ta ularning barchas fahm qilg'aylar». «SHajaray tarokima»dan keltirilgan bu parchada Abulg'ozini o'z asarining o'quvchi va tinglovchiga tushunarli bo'lishiga intiladi. Shuning uchun «turkona aytmog» kerakligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, u o'z asarlarini yozganda bevosta jonli tilga murojaat qiladi va o'z oldiga «andoq aytmog kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib, ko'ngullariga ma'qul bo'lg'ay» degan maqsadni qo'yadi. «Shajarai turk» asarini ham xuddi shu maqsadga amal qilgan holda yozadi. Abulg'ozini chig'atoy tili deb xalqning jonli so'zlashuv tilidan uzoq bo'lgan tilni tushunadi. U chig'atoy turkiyisidan foydalanmaganligini «Shajarai turk» asarida shunday yozadi: «Hamma ulug'lar ham, oddiy kishilar tushunsn deb men bu tarixni turkiy tili bilan aytdim. Turkiyni ham andaq ay tubmankim, besh yashar O'g'lon tushunur. TuShunish asan bolsun deb, men chig'atay turkisndin farscha va arabchadin bir dana ham so'z qoshmadim». Ko'rinadiki, bu erda Abulg'ozini o'zining oddiy, sodda bayon qilish uslubini dabdabali chig'atoy uslubiga qarama-qarshi qo'yadi. Abulg'ozini tarix asarlarini bayonidagi ixchamlikka, ifodaning izchilligiga, voqealarni latifa va rivoyat uslubida sodda qilib bayon etishga e'tibor bergan holda yozgan. Uning asarlari o'zining grammatik qurilishi, lug'at tarkibi bilan so'zlashuv tiliga yaqin turadi. Hatto Abulg'ozini asarlarini muallif tomonidan mohirlik bilan badiiy qayta ishlagan xalq so'zlashuv tili namunas desa bo'ladi. Abulg'ozini o'z asarlarida xalq maqollaridan ham o'rinli foydalanganligini ko'ramiz. Masalan, «O'ksuk o'z kindigini o'zi kesar tegan», «Atang evi yav chapsa, birga chap tegan turur qara so'zi», «Yaxshilar aytib turur: «O'n darvesh bir palas ustig'a sig'ar, ikki padshah jahang'a sig'mas», «It semirsa egasni qapar» qabilar.

Abulg'ozini asarlarining morfologik va sintaktik xususiyatlari XV-XVI asrlar adabiy tilidan ancha ilgari ketganligini ko'rsatadi. Ularda xalq so'zlashuv tiliga xos morfologik ko'rsatkichlar ko'proq, arabcha-forscha sintaktik qurilmalar kamroq uchraydi. Uning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlarida quyidagi fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarni uchratish mumkin:

Fonetik xususiyatlari: «d» tovushi bilan boshlanuvchi so'zlarda ko'pincha bu tovush «ð»ga o'tadi. Bu holni A.N.Kononov ham alohida ta'kidlaydi. Masalan: *degan* — *tegan*, *deb* — *teb*, *dedik* — *teduk* qabilar. Ba'zi o'rinlarda so'z boshida keluvchi «y» tovushi «j» tovushiga o'tadi: *yav* — *jav*, *yo'l* — *jo'l*.

Morfologik xususiyatlari: ot yasovchi qo'shimchalar hozirgi o'zbek tilidagi ot yasovchilarga o'xshaydi. Ammo -chi qo'shimchas kam qo'llaniladi va u bilan parallel holda -ji qo'shimchasi ham keladi: *elchi*, *tevaji* (tuya boquvchi) kabi. Hozirgi o'zbek tilidagi kabi Abulg'ozini asarlari tilida olitita kelishik bor. Tushum kelishigining qo'shimchas -ni dan tashqari -n shakli ham ko'p qo'llanadi. Masalan: *kuchlarin va kelinlarin chaqirib*. (xotinlarini va kelinlarini chaqirib). Chiqish kelishigi -din, -tin qo'shimchalariga egadir: *Har turluk turpaqdin alib* . . .

Sonlar, ularning turlari, yasalishi hozirgi o'zbek tilidagiga o'xshaydi. Ammo tartib sonlar hozirgi o'zbek tilidagidan farq qilib, -lanchi/-lenchi affiksi bilan ham yasaladi: *bashlenchi, yetilenchi, toquzlenchi*. Abulg'ozi asarlaridagi olmoshlar hozirgi olmoshlarga o'xshaydi. Lekin kishilik olmoshlarining uchinchi shaxs *anlar, alar* tarzida, ko'rsatish olmoshlari *shul, ul, oshul, ushbu* tarzida keladi. Kim va nima so'roq olmoshlarining birikishidan hosil bo'lgan *kimarsa, nimarsa* kabi so'roq-gumon ma'nosini bildiruvchi olmoshlar ishlatiladi.

Buyruq — istak maylining birinchi shaxs ko'pligi *-aling, -ali* affiksi bilan yasaladi. Masalan: *Emdi shah Malikni aytaling. Yurti buzali tesalar*. «E» o'zagidan bo'lgan to'liqsiz fe'llar: *erdi, erkan, erur* shakllari uchraydi. Masalan: *Tevaga minib keyningdin bara erdim*. Yordamchi so'z turkumlari Abulg'ozi asarlarida xuddi «Boburnoma»dagi kabi shakllarda ishlatiladi.

Sintaktik xususiyatlari: sodda gap qurilmalari ko'proq ishlatiladi. Masalan: *Qara xanning Bug'ra atliq og'li bar erdi. Mir Yavi olturub erdi*. Qo'shma gaplar ham asar tilida etarli darajada keng qo'llangan. Masalan: *Atas va anas yoq va xatini yoq turur. Bizning ichimizda og'uz nami kob turur, amma xech yaxshis yoq*.

Leksik xususiyatlari: «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» asarlarida quyidagi so'zlar uchraydi: *ulkan, bitmek* (yozmoq), *ulus* (xalq), *yalavach* (payg'ambar), *tilmach* (tarjimon), *ushaq* (mayda), *charlatmak* (chaqirmoq), *ko'rkluk* (chiroyli), *ko'chlari* (xotinlari), *kent* (qishloq), *boluq* (bo'lim), *kimarsa* (kimdir), *nimarsa* (nimadir) qabilar.

Umuman olganda, Abulg'ozi o'z asarlari tilida Zahiriddin Muhammad Boburga nisbatan ham adabiy til bilan so'zlashuv tilini bir-biriga yaqinlashtirish uchun harakat qildi va adabiy tilda xalq tili unsurlarining mustahkamlanishi uchun munosib hissa qo'shdi.

3. Shoir Turdi XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoroda yashab ijod etgan, u demokratik adabiyotning yirik namoyandaligidan biridir. Turdining hayoti va ijodi haqida juda oz ma'lumot saqlangan. Uning bizgacha etib kelgan asarlari 1924 yilda topilgan 28 betli she'rlar to'plamidan iboratdir. Bu to'plam O'zbekiston Fanlar akademiyas Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi, unda hammas bo'lib 450 misraga yaqin 17 ta she'r bor. She'rlarning 15 tas o'zbek tilida, 2 tas tojik tilida yozilgan. Turdining nomi hech qaysi tarixiy va adabiy manbada tilga olinmagani uchun uning tarjimai holini o'rganish qiyindir.

Turdi XVII asr saroy adabiyotidan aloqasni uzgan o'zbek she'riyatining yirik namoyandasi. Turdini ko'p she'rlari tanqidiy mazmunda bo'lib, o'z zamonasining kuchli hajvchis hisoblanadi. Shoir bu she'rlarida zolim Subxonqulixon va uning amir-amaldorlari, ularning zulmi va o'zboshimchaligini fosh qiladi. Mamlakat va xalq manfaatini kuylaydi.

Xalq qo'liga tama' bila tikib ko'z,

So'zlamas ul g'amidin yuzi qarolar bir so'z.

Turdining hajviy she'rlari fikr va maqsadning aniqligi, rostgo'yligi bilan ajralib turadi. Ularning bayon qilish uslubi va tili sodda, pishiq, tasvir vostalari o'tkirdir. Masalan:

Yurtning molini chaynab edi bu bedumlar,

Bo'lmadi kam bu raiyat boshidan hech tayoq.

Turdi o'z badiiy uslubi va tilining xalqqa yaqin va tushunarli bo'lishiga intildi. U amir va amaldorlarni o'z tilidan so'zlatish orqali fosh etish usulidan san'atkorlik bilan foydalandi. Mamlakat va xalq hayotidan uzoqda turgan «ko'r», «kar» beklar «bo'g'izlarini poraga tegirmon novidek tutib, og'izlarini ajdahodek ochadilar», «tomoq fikri»dan o'zgani bilmaydilar, deb fosh qiladi. Uning ko'tarinki ruh bilan yozilgan she'rlarida ohang muhim o'rin tutadi. Uning hajviy qalami zolimlarga qaratilganligi uchun, ohangida uqtirish, xitob va undashlar ko'pdir. U beklarga: «Ey yuzi qora, qulog'i kar beklar» deb xitob qiladi. Turdi «El rabotu to'ra qo'noq» maqolini ishlatish bilan, amaldorlarning o'zgarib turishi va xalqning qolaverishini ta'kidlaydi. O'z tilini soddalashtirishga, xalq maqollari va ifodalaridan keng foydalanishga intilgan Turdi o'z she'rlarida «gardan shikasta mondi», «yavg'an qazan astinda qalg'an yundi», «syqa chaqa» kabi omma tez tushunadigan o'xshatish va metaforalar qo'llaydi.

Turdi she'rlarida xalq jonli tili xususiyatlari bilan birga ozarbayjon tili, ya'ni Fuzuliy she'riyatining samarali ta'sirini ham ko'ramiz. Ana shu ta'sir natijasida ba'zi so'zlarda, ko'pincha so'zning boshida keluvchi «d» tovushi «d»ga o'tadi. Masalan:

Fitnayu shor hama rub ila maskun **dutdi**,

Xublar masnadini sfla bilan **dun dutdi**.

Yaxshiliq qilma tama', zulm ila **doldi** afaq.

Bu misollardagi *dun, dutdi, doldi* so'zlari g'arbiy adabiy tilning, ya'ni ozarbayjon tilining adabiy me'yori

asosida berilgan.

Ko'p o'rinlarda, asosan affiksilarida (-ib, -dir, -lik) qisqa «i» unli tovushi «u»ga o'tadi:

Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,

Toqsan ikki bari ozbek yurtidur, tenglik qiling.

Qaratqich kelishigining qo'shimchas -ning, -ing shakllarida ishlatiladi. Ma'lumki, -ing morfemasi qaratqich kelishigining eng qadimgi shakllaridandir: *Bularming oldida bardur bo'ring insafi*. Tushum kelishigi qo'shimchas -ni, -ni bilan birga, n, i shakllarida ham uchraydi. Masalan:

Qani bir xisravi adilki, angla dad etsam,

Sorsa ahvalimi g'am xirmanini, bad etmas.

Chiqish kelishigining qo'shimchas -din/-din shaklida, jo'nalish kelishigining qo'shimchas -g'a/-ga, -a shaklida qo'llanadi. Bunday jo'nalish kelishigining -a formasi g'arbiy adabiy tilga xos xususyatdir. Masalan:

Yetmadim hech yera bu qafiya paymalig'indin ...

Kas ul g'arzanlar salsa quruq so'zga quloq ...

Aniq o'tgan zamon fe'lining birinchi shaxs birligi -diman affiksi bilan yasaladi: *Yet mandin kim berur yaxshi zamanlar ko'rdiman*. Hozirgi kelas zamon fe'lining bo'lishz shakli ba'zan -man affiksi bilan ham yasaladi. Masalan:

Bila alman bu duldul raxshi Rustam ya parizadi,

Ki adam og'lig'a ram olmag'an, ne yerda arami?

Siftdosh yasovchi -g'an/-gan affiksi bilan birga -an shakli ham qo'llanadi. Bu shakl o'g'uz tillariga xos bo'lib, ozarbayjon tilida ham uchraydi. Masalan: *Barcha boynig'a salan bu rishtani kat etmadi*. Harakat nomlari jo'nalish kelishigi bilan turlanganda fonetik o'zgarish yuz beradi. Negizdagi q tovushi tushirilib, keyin -ga affiksi qo'shiladi. Masalan:

Zarni jam aylamag'a hirsu hava besh tutib,

Yuzini ko'rmaga hasratda boldim eshitib namin.

Bundan tashqari, jonli tilning leksik boyligidan keng foydalanish Turdi satirik asarlarining g'oya va mazmunini hamda badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Turdi o'z asarlarida o'sha davr saroy shoirlari tilidan sqib chiqarilgan *to'g'anaq, mashaq, o'raq, tamaq, mag'zava, bangi, qirchang'i, chikka-pukka, yapalaq, sak, shum, supruni, mundi, yundi, bedum* kabi so'zlarni qo'llaydi.

Turdi asarlari tilida Sa'diy va Navoiy g'azaliyoti, qardosh ozarbayjon shoiri Fuzuliy she'riyati tilining samarali ta'sirini ko'rish mumkin. Bu narsa Turdi she'rlarining sodda badiiy uslubda yozilishiga yordam bergan, ularning yuksak darajada xalqchilligini ta'minlagan va xalq jonli tiliga yaqinlashishiga olib kelgan.

4. Muhammad Xoksor XVIII asrning buyuk olimi va donishmandi sifatida bir qancha asarlar ijod etdi. Uning «Muntahabul lug'at» asari o'sha davr ilmiy atamashunosligini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi. Xoksor bu asarini yaratishda diniy dostonlardan, diniy-mistik adabiyot vakillari asarlaridan, Firdavsy, Nizomiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlaridan foydalandi.

Muhammad Xoksorning «Muntahabul lug'at» asarida turli kasb-hunarlariga doir so'z va atamalar, ijtimoiy-iktisodiy va tabiiy fanlarning ayrim sohalari bo'yicha so'zlar beriladi. Muallif bu so'zlarning ma'nosini alfavit tartibida izohlaydi. Ularning ma'nosini aniqlashtirish uchun turli uslublarda yozilgan o'zbek, tojik, eron va ozarbayjon adabiyoti namunalaridan, mashhur adabiyot yodgorliklaridan misollar keltiriladi. Masalan, Xoksor *hasab* so'zining «faz va hunar» hamda «ulug'lik» ma'nolarida ishlatilishini izohlab, Navoiy ham shu ma'noda ishlatganini aytadi, «Saddi Iskandariy» dostonidan quyidagi baytni keltiradi:

Nasab birla yetsa anga shahlik,

Hasab birla yetmish menga mahlik.

Muhammad Xoksor o'z asarida falsafaga doir *baxir, xurafat, basarat, basrat* (mutlaq borliq), *danishmand* va *xiradmand* so'zlariga ham izoh beradi. *Basarat* va *basrat* so'zlarini izohlar ekan, u so'zlar haqida quyidagi falsafiy fikrlarni yozadi: «*Basarat* va *basrat* asl lug'atda «*mutlaq ko'rmoqlik*» ma'nosida. CHunonchi, *ahli basratga vazeh va ravshandir*. . . *YA'ni aql bila idrak qilaturg'an ishlarni*. . . *ko'zi bilan ko'rar*. *Xata janibig'a eylanmas*. *Andaqki, kishi ko'zi bilen ko'rgen nimarsada sahva va xata bolmas, balki mahsulatdin maqulatni (mavhumdan ma'lumni) yaxshi ko'rar*.

Asarda astronomiya va trigonometriyaga doir bir qancha atamalarga ham o'z davri saviyasda izoh beradi. Unda trigonometriya faniga doir *sath, qutr* (fazo), *vatar* (kamon), *mintaq* (zona), *mehvar* (charx o'qi), *hatti ustuva* (ekvator) kabi so'zlar izohlanadi.

Xoksor asarida biologiya va zoologiyaga doir soʻz va atamalarga ham keng oʻrin berilgan: *ashkar, abrash, ashhab, markab, tanibat, shamus* kabi. Bu soʻzlar miniladigan otlardagi turli belgilarga qarab qoʻyilgan nomlardir. Xoksor ularning har birini alohida-alohida izohlaydi.

Xoksor musqa, adabiyot va meʼmorchilikka mansub soʻz hamda atamalarni izohlaydi: *hija, fasahat, majaz, mizmar* kabi. U *balagʻat* soʻzini shunday izohlaydi: «balagʻat — soʻzga yaxshi yetishmek va sozni muhatabga yaxshi ada birla bayan qilmaq». Xoksor bu fikri bilan adabiyotning birinchi unsuri boʻlgan tilga eʼtibor berish, soʻz sanʼatida kamol topish uchun soʻz durlarini mohirona ishlatish kerak, deb uqtiradi.

Umuman, Xoksorning «Muntahabul lugʻat» asari XVIII asr ilmiy atamashunosligi haqida yetarlicha maʼlumot beradi. Shuning uchun bu asar bir necha marta koʻchirildi. Xoksor asari yaratilgan bir davrda Mehdixon «Sangloh» va «Maboniul lugʻat» asarlarini yozdi. Bu asarlar faqat Alisher Navoiy asarlari taʼsirida yozilganligi bilan Xoksor asaridan farqlanadi.

Yuqoridagi asarlarni oʻrganish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, u davrdagi ilmiy atamashunoslik asosiy qismini arabcha, forscha soʻzlar tashkil qilishi bilan hozirgi ilmiy atamashunoslikdan farqlanadi va ilmiy atamashunoslik har bir davrning emas, balki butun tarixiy jarayonning mahsuli hisoblanadi.

5. Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asrda etishgan isteʼdodli lirik va epik shoirdir. U adabiyotdagina emas, balki adabiy til sohasida ham Alisher Navoiy anʼanasini davom ettirdi. Nishotiyning ijtimoiy-siyosiy fikr va mulohazalari «Husnu Dil» dostonida oʻz ifodasini topdi. Bu asar shoir tilini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi. Nishotiy oʻz dostonini xalq ogʻzaki ijodidan ustalik bilan foydalangan holda yozdi. Xalq ogʻzaki ijodidagi qoliplash usulidan foydalanib, uning ichiga taʼlimiy tarzdagi bir qancha masalalarni kiritdi. Ular Nishotiy tilining sodda xalq tiliga yaqinlashishiga olib keldi. «Husnu Dil» dostonining tili mumtoz epik sheʼriyat uslubi bilan chambarchas bogʻliqdir. Bundan tashqari, dostonning ayrim boblari qofiyalangan nasr uslubida yozilgan. Masalan: «Husni dilnavaz, Vafobanum Sahib eʼzaz va Nazi Tannaz, Gʻamzai gʻammaz Gesui fusunsaz va Mahliqai aynapardaz va SHAhtakallumi sehrparva va Mehribanui basoʻzu gudaz, Qamatsardari balandparvaz, Sarvi sarafraz, yaʼni Faudi sahibniyaz... xizmatga tayyar ediler». Ayrim oʻrinlarda xalq ertaklarida uchrovchi muqaddimani ham koʻramiz:

Bar edi Yunanda birav padshah,

Erdi jahan shah anga haki rah.

Nishotiy xalq ogʻzaki ijodi uslubiga ergashdi, doston tilini ham ommabop qilishga intildi. Shuning uchun xalq maqollari, hikmatli soʻzlari va iboralarini asar misralari mazmuniga ustalik bilan sngdirdi. Masalan:

Lek demish kimsaki diqqatlidir,

Ash egas birla yesa tatlidir.

Har kishining bar esa gar aqli tuz,

Avval ancha koʻz keragu soʻngra soʻz.

Keltirilgan misralarda «Osh egas bilan totli», «Avval oʻyla, keyin soʻyla» maqollari keltirilgandir. Nishotiy oʻz asarlarida xalq maqollaridan foydalanar ekan, ulardan ilhomlanib, oʻzi ham xalq maqollari darajasda iboralar ijod qiladi:

Toyu aza xush turur ahabab ila,

SHadiyu gʻam ham yana atrab ila.

Shoir dostonida omonim soʻzlardan ham oʻrinli foydalanadi. Bir soʻz bilan bir necha maʼnoni ifodalashga harakat qiladi:

*Yuz uza churuk yagʻach erdi **burun**.*

*Har yera barsa, bariban ul **burun**.*

Bu parchada birinchi misradagi «*burun*» soʻzi odam aʼzolaridan biri maʼnosida, ikkinchi misrada *avval, ilgari* maʼnosidadir.

XVII-XVIII asrlarning boshqa shoir-yozuvchilarida boʻlgani kabi Nishotiyning «Husnu Dil» dostonida ham mahalliy shevalarga xos xususyatlar uchraydi. Doston tilida Buxoro va Xorazm shevalariga xos soʻz va iboralar hamda grammatik unsurlar topiladi. Masalan: *margi nav mubarak, himmati spahdar, husni dilnavaz, Nazi Tannaz* qabilar.

Nishotiy asarlari tilida **morfologik jihatdan quyidagi xususyatlarni** uchratish mumkin.

«Husnu Dil» dostonida turlanish kategoriyas hozirgi oʻzbek tiliga oʻxshaydi. Ammo qaratqich kelishigining qoʻshimchas *-ning, -ing* shaklida ishlatiladi.

Arshning astida erur ganji raz ...

Qamating ag'ushiga qildi nigah ...

Tushum kelishigi qo'shimchas -ni/-ni, -m /-i shaklida, chiqish kelishigi qo'shimchas -dig'i / -din shaklida keladi:

*Qorqusidin tashladi hamlani sher,
Kelturung aqli dedi kishvarstan.*

Navoiy va Fuzuliy asarlarida bo'lgani kabi Nishotiy asarida jo'nalish kelishigi qo'shimchas -ga/-a tarzida ishlatiladi:

*Har **biriga** nam edi bir ehtiram,
Har **yera** barsa, bariban ul burun.*

Olmoshlar Nishotiy asarlari tilida hozirgi o'zbek tilidagi olmoshlarga o'xshaydi. Uchinchi shaxs kishilik olmoshlari *ul, an* tarzida, Shuningdek, *qayu* so'roq olmoshi, *nimarsa, kimarsa* so'roq-gumon olmoshlari ishlatiladi:

*Har ne yoq, **andin** yaman, **andin** yaman —
Parvarish aylar **ani** ayvan ara,
Vah **qayu** ayvanki dilu jan ara.*

Nishotiy tilida ravish -lik affiksi bilan hosil qilinadi. Ravishdosh esa -iban affiksi orqali ifodalanadi:

***Talpiniban** oylaki suvsiz baliq,
Jan yoq edi anga bugun tanglaliq.*

Yordamchi so'zlardan *bilan, birla, ila* dag'i kabi ko'makchilar; *kim, -ki, gar, agar, ne, lek* kabi bog'lovchilar ishlatiladi. Bog'lovchilardan *na* Nishotiy dostoni tilida ko'p qo'llanadi:

*Anda **na** zavqu, **na** huzuru, **na** nur.,,
Anda **na** ilmu, **na** amal, **na** yaqin...*

«Husnu Dil» dostoni leksikasda *ulus, kabir, qapu* (eshik), *g'ulg'ula, valvala, dag'i, karam* kabi so'zlar uchraydi. Mazkur asar XVIII asr o'zbek dostonchiligidagina emas, balki o'sha davr o'zbek adabiy tili tarixida ham muhim o'rin egallagan ajoyib she'riy qissa hisoblanadi.

Munis Xorazmiy o'z ijodiy faoliyati bilan o'zbek adabiyoti va adabiy tili tarixida salmoqli o'rin tutadi. Munis madaniyatimiz tarixida shoir, tarixchi, tilshunos, pedagog va tarjimon sifatida hurmat bilan tilga olinadi. Munisning lirik she'rlari devon sifatida to'plangan bo'lib, u «Munisul ushshoq» deb ataladi. Shuningdek, uning «Firdavsul-iqbob» nomli tarixiy asari, yana tilshunoslik va tarbiyashunoslikka oid «Savodi ta'lim» risolas mavjuddir. U XV asr tarixchis Mirxondning «Ravzatus safo» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Munis adabiy ijodda ham, o'z asarlarining tili sohasida ham Alisher Navoiyni o'ziga pir (ustoz) deb bildi.

*So'z ichra Navaiyki jahangir durur,
Munisg'a maani yolida pir durur.*

Demak, u til va uslubda Navoiy an'anasini davom ettirib, ommaga tushunarli tilda yozishga harakat qildi. Munis o'z asarlarining sodda, ravon, tushunarli va ta'sirchan bo'lishi uchun kurashib, ularda xalq iboralari va maqollarini ko'p qo'llaydi. Masalan:

*Ahbab tapdi vaslingu yad etmadi meni,
CHindur bu so'zki, yoq xabari toqning achdin.*

Shoir o'z asarlarida o'sha davr uchun xos bo'lgan badiiy vosta sifatida *aqli donish, guli gulshan, otashi ishqing, ganji husn, guli latif, mehrobi tarh, motami oshufta* kabi izofali qurilmalardan ko'p foydalandi. Munis Xorazmiy, asarlaridagi o'ziga xos tomonlardan biri uniig xalq so'zlashuv tilida mavjud bo'lgan leksik boyliklardan ustalik bilan foydalanishdir. Masalan: *umach, atala, tang, lang, hamsang, yavg'an, taqir-tuqur, shaqir-shuqir, qabag', tapuq, qapu, evur, evrulay, evurdi, yurusa, yurumaq, batan* kabi so'zlar Munis asarlarida anchagina uchraydi. Bu xil so'zlar asarning tanqidiy-satirik kuchini, badiiy qiymatini ancha oshiradi va uni soddalashtiradi.

Bulardan tashqari, Munis asarlarida turli grammatik shakllarni uchratamizki, ularning ba'zilar hozirgi adabiy tilimizdagi morfologik belgilardan qisman farq qiladi. Munis asarlari tilida qaratqich kelishigi qo'shimchalari -ning / -ning, -nung, -nun -ing tarzida qo'llanadi.

***Muning** birla bas qilmayin zulmu azar,
Itning julidin kimsaga sajjada bolurmi?*

Tushum kelishigi qo'shimchas -ni va -n shaklida uchraydi:

Kesb boshlarin mahv etib namini,

Ayaq astig'a tashlab ansamini. . .

Jo'nalish kelishigi *-ga, -qa, -g'a, -a* shakllarida uchraydi:

Behudlig' alamig'a tushdim . . .

Kimga dod aylayki, bir begi humayunfal ...

Malamat qilmangiz **nuqsanima** gar balsangiz vaqif.

Chiqish kelishigi *-din* shaklida qo'llangan:

Xasm atani og'lg'a, og'lin **atadin** bashqalab.

Munis asarlari tilida o'g'uz tilining ba'zi unsurlari ham uchraydi. Alisher Navoiy asarlarida bo'lgani kabi Munis asarlari tilida *-mish* affiksi va u orqali yasalgan sifatdosh va o'tgan zamon fe'l shakllari uchraydi. Masalan:

Faramush olmisham ahabab yadidin aningdekim. . .

Valolar ichki kim **salmish** firaqing.

Munis asarlari tilida *bol* — fe'li bilan birga xuddi shu ma'noda *ol* — fe'li ham ishlatiladi. Masalan: *Gulshanda gul olsa xar ham bolg'usdir*. Navoiy va Bobur asarlarida bo'lgani kabi birinchi shaxs birlikda tushlangan fe'lining bo'lishsiz shakli *-man* affiksi bilan beriladi. Masalan: *Har necha qilsam taammul bilman aning illatin*. O'tgan zamon ravishlarining *-ban* affiksi bilan yasalgan shakli ham uchraydi. Masalan: *Kop yeban hayvan kibi tanni semirturmak nedur*.

Kelasi zamon fe'li *-g'ay/-gay* affiksi bilan yasaladi: *Qilmag'ay ul shu'la dudi rog'aring qap-qara*. Kishilik olmoshining uchinchi shaxs birligi *on, an* shaklida uchraydi: *Aning bedadidin boldi ajal tufrag'iga nayab*. Munis asarlari tilining o'ziga xos tomoni shundaki, unda qo'shma va murakkab bog'lovchi so'zlar ishlatiladi: *lekin, vagarna, valek, magarki, vale, vagar* kabi. *Vagar bu nokas ul in'amin alsa*.

Umuman, Munis o'z zamonasning adabiy doirasda ahli donishmandlarning shohi va o'z ona tilining buyuk himoyachis edi.

6. O'zbek adabiy tili taraqqiyotining XIX asr boshlaridagi ahvolini aniqlashda Gulxaniy asarlari muhim o'rin tutadi. Gulxaniy iste'dodli sho'ir sifatida bir qancha lirik she'rlar, «Zarbulmasab» asarini yozgan. U o'z asarlari tilini sodda va tushunarli qilishga harakat qildi. Buning uchun xalq tili boyligidan foydalanib, o'z g'azallarida original badiiy vostalar ishlatdi. Bundan tashqari. uning she'rlarida ozarbayjon tili xususyatlarini uchratamiz. Masalan: *dasha* (toshga), *istaram* (istayman), *aylaram* (qilaman), *cho'g'* (ko'p) qabilar.

Mehnatkash xalq manfaatini himoya qilgan Gulxaniy o'z asarlarining ommabop bo'lishi uchun xalq og'zaki ijodidan foydalandi. Ayniqsa, «Zarbulmasab»da u folklor materiallariga murojaat qildi. «Zarbulmasab»dagi Yapaloqqush hikoyasi xalq badiiy ijodi materiallari asosida yozilgan. Gulxaniy «Zarbulmasab»ni «hikoya ichida hikoya» kompozitsiyasidan foydalangan holda yozdi. U xalq og'zaki ijodi asarlarini qayta ishlash bilan birga, ularning uslubi, badiiy usullari, tili va boshqa xususyatlarini saqlashga intildi. Bu narsa quyidagi holatlarda ko'rinadi:

1. «Zarbulmasab»ning ayrim hikoyalari xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan so'zlar bilan boshlanadi: «Bar edi Farg'anada bir sarban» («Tuya va bo'taloq» masali) kabi.

2. «Zarbulmasab»da folklorning ommaviy janrlaridan hisoblangan maqollardan o'rinli foydalangan. Gulxaniyning «Zarbulmasab» asari asosida o'zbek va tojik xalqlari folklorining yaxshi bilimdoni desa bo'ladi. U «Zarbulmasab»da xalq maqollarini har ikki tilda keltiradi. Masalan: *Bo'ynida illati borning oyog'i qaltirar. Yoriki ahlast, kori u saxlast* qabilar.

«Zarbulmasab» quyidagi til xususyatlari bilan ajralib turadi: ayrim hollarda qaratqich va tushum kelishiklari ma'nosi bir shakl orqali ifodalanadi:

Hasli umri edi ul bayni ,
Ati Gunashbanu oshal oyni.

k, q tovushlari bilan tugagan so'zlar egalik va kelishik affiksilarini qabul qilganda, bu tovushlar o'z holicha qoladi: *Farasat ayaqi aqsaq. Qizni ashiqiga berdi*.

Ko'rsatish va so'roq olmoshlariga qo'shimcha qo'shilganda quyidagi shakllarda keladi: *ul-ana, anda, alar; bu- bo'yla, bunda, munda, buyda; nima- nimarsa* kabi.

Istak fe'lining birinchi shaxs ko'pligi fe'l negizlariga *-ali* affiksini qo'shish bilan yasaladi: *Siz bir Shirin javab bering. Anglab barib taraddud qilali*.

O'tgan zamon sifatdoshi *-mish /- mush* bilan yasalgan: *Anda bir Boyog'li degan vatan tutmish erdi*.

«Zarbulmasab»da Gulxaniy adabiy asarda qo'llanilishi nuqson hisoblangan «avomcha» so'zlarni ko'plab ishlatadi. Bundan tashqari, Gulxaniy kitobiy adabiy til an'anasi ta'sirida arabcha-forscha so'zlarni ham ishlatadi: *abir* (qora tusli xushbo'y modda), *ajuz* (kampir), *anjum* (yulduzlar), *bargah* (saroy), *xastakarlik* (sovchilik), *sabuq* (ertalab), *sarban* (tuyakash) qabilar. Gulxaniy o'sha davr tilida mavjud bo'lgan sinonimlar va sinonimik qatorlardan ustalik bilan foydalanadi: *g'am*, *g'ussa*, *anduh*; *asman*, *ko'k*, *falak*; *xalq*, *ulus*, *el*; *ism*, *ot*; *yo'ldash*, *hamrah*; *noma*, *xat*; *ay*, *qamar*, *aftab*, *quyash*, *shams*, *xurshid*; *chayan*, *aqrab*; *taraf*, *janib*; *yuz*, *araz*, *jamal*; *darya*, *nahr* kabilar. Masalan: «Sangpusht Iraqdin Hijaz sari barur erdi. Yol uzasida nachar bir chayanga yoldosh bo'ldi. Ikkisi zaruratdin hamrah bo'ldilar. Ul yuzini yashirur erdi. Arazidin shamsu qamardur hijil. Avval barib, Kulankir Sulton jamalini ko'rib.. .»

Gulxaniy jonli tilning leksik va grammatik imkoniyatlaridan keng foydalanadi. U jonli tilning ta'birlari va iboralarini ham keng qo'llaydi. Gulxaniyning badiiy tili va uslubi saroy zodagonlar adabiyotining tili va uslubidan tubdan farq qiladi. Shoirning ijodiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, u adabiy tilni xalq ommasiga tushunarli, turmush uchun zarur bo'lgan so'zlar va grammatik shakllar bilan boyitishga tirishgan.

Maxmur XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida ijod etgan o'zbek taraqqiyparvar adabiyoti vakillaridan biridir. U bir qancha lirik she'rlari bilan birga, satirik asarlar ham ijod etgan. Maxmurning ko'pchilik satirik she'rlarida faqat ayrim illatlarga tanqid qilinib qolmasdan, balki «alamon» deb nido qilgan isyonkor qalbning hamlisi ham o'z ifodasini topgan. Bu narsa til va uslubda yangilikni vujudga keltirdi. Maxmur o'z satiralarida obraz yaratishda badiiy tasvirning turli usullaridan va xalq tili materiallaridan samarali foydalanadi.

Maxmur turli xil shaxslarning kirdikorlarini fosh etish uchun obrazlar tabiatiga mos keluvchi so'zlarni topa bildi. Masalan, «Itboqar qozi» satirasda qozi obrazini chizar ekan, uning oshi itlar bilan «bir taboqda» ekanini, «bir yaloq»dan ovqatlanishi va «bir katak»da yotishini ko'rsatadi. Ularning itlarcha hayotini tanqid qiladi. Hakim Turobiy, Lovubol O'ratepagiy va Fazliy Namangoniy obrazlarini chizganda ularning kasb-koriga doir so'z va atamalarni ishlatadi.

Maxmur satirik obrazlar siymosini chizar ekan, turli badiiy usullardan: mubolag'a, o'xshatish, takrorlash, istioralardan foydalanadi. Qozi Muhammad Rajab Avjning obrazini chizganda, xalq tili boyligidan foydalanib, quyidagi mubolag'ani ishlatadi:

Dame gar buzilsa bu dastari zar,

Tuzatmaqqa salg'ay anga mardikar.

Shoir g'azallarida ayrim obrazlarning sifatlarini kuchaytirib ko'rsatish maqsadida bir so'zni ataylab juftlaydi va so'zning ta'sir kuchini oshiradi. Masalan:

Jurm desang qabat-qabat, fisq desang sabat-sabat,

Nahs desang namat-namat, so'fiyi xonaqah o'zim.


Shoir satirik obraz tilini xususiylashtirishga alohida e'tibor beradi. O'ziga xos til va obraz yaratish uchun shevalarga doir so'zlardan, fe'l shakllaridan foydalanadi va ularni o'rinli ishlatadi. Masalan: *qisa*— *qilsa*, *boma*—*bolma*, *qig'an*—*qilg'an*, *kegey* — *kelgey*, *bosam* — *bolsam*, *yanilmadim* — *yanmadim*, *ayilmadim* — *ayrilmadim* qabilar. Bundan tashqari, Maxmur keng xalq ommasi qo'llaydigan, ammo kitobiy uslubga kiritilmagan so'z va iboralarni ko'plab ishlatadi: *katalak*, *kamalak*, *katak*, *kana*, *alachuq*, *zaminkan yertola*, *ajriq*, *og'ur*, *sumalak*, *falakzada*, *biyaban*, *alato'rtko'z*, *ko'ppak*, *burush* (burda), *yalaq*, *tabaq* kabi. Uning asarlari tilida ba'zan tushunilishi qiyin bo'lgan o'zbekcha va tojikcha aralash qurilmalar, lug'atsiz anglashilishi mushkul bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Shuningdek, g'arbiy adabiy til unsurlari ham ishlatiladi. Masalan, *yaxshi* so'z o'rnida *cho'h* so'zi ishlatiladi.

Umuman, Maxmur ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asoslab bergan adabiy tilni jonli xalq tili negizida rivojlantirdi. Maxmurning realistik satiralari uslubidagi vositalarni demokrat shoir Muqimiy davom ettirdi.


Savol va topshiriqlar:

1. XVII-XIX asrlardagi ijtimoiy- siyosiy ahvol haqida gapiring?
2. XVII-XIX asrlarda yaratilgan qaysi adabiy manbalarda Alisher Navoiy an'anasi davom ettirilgan?
3. Bu davrning dialektal murakkabligi nimadan iborat?
4. Bu davr adabiy tilining demokratlashuvi deganda nimani tushunasiz?


XVII-XVIII asrlarda o'zbek adabiy tili rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlarlar:




«Shajarai turk» asarining yettitadan ortiq qo'lyozma nusxasi mavjud



«Shajarai turk» turli tillarga tarjima qilinadi va nashr etiladi



Abulg'ozzi Bahodirxon «Shajarai turk» asari haqida:

Turdi asarlarining morfologik xususiyatlari

Qaratqich kelishigi	-ning, -ing	<i>Bularning oldida bardur bo'ring insafi</i>
Tushum kelishigi	-ni, - n,- i	<i>Qani bir xisravi adilki, angla dad etsam, Sorsa ahvalimi g'am xirmanini, bad etsam.</i>
Chiqish kelishigi	-din/-di'n	<i>Yetmadim hech yera bu qafiya paymalig andin.</i>
Jo'nalish kelishigi	-g'a/-ga, -a	<i>Kas ul g'arzanlar salsa quruq so'zga quloq ...</i>
Aniq o'tgan zamon fe'lining I shaxs birligi	-diman affiksi bilan	<i>Yet mandin kim berur yaxshi zamanlar ko'rdiman.</i>
Hozirgi kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli ba'zan	-man affiksi bilan	<i>Bila alman bu duldul raxshi Rustam ya parizad...</i>
Sifatdosh yasovchi	-g'an/-gan -an	<i>Barcha boynig'a salan bu rishtani kat etmadi.</i>

Munis asarlarining til xususiyatlari

Qaratqich kelishigi	-ning, -nung, -nun, -ing	<i>Muning birla bas qilmayin zulmu azar, Itning julidin kimsaga sajjada bolurmu?</i>
Tushum kelishigi	-ni, - n	<i>Kesib boshlarin mahv etib namini, Ayaq astig'a tashlab ansamini. . .</i>
Chiqish kelishigi	-din	<i>Xasm atani og'ilg'a, og'lin atadin bashqalab.</i>
Jo'nalish kelishigi	-g'a/-ga, -qa, -a	<i>Behudlig' alamig'a tushdim... Kimga dod aylayki, bir begi humayunfal ...</i>
Kelasi zamon fe'li	- g'ay/-gay affiksi bilan	<i>Qilmag'ay ul shu'la dudi rozg'aring qap-qara.</i>
O'tgan zamon ravishi shakli ham uchraydi.	-ban affiksi bilan yasalgan	<i>Kop yeban hayvan kibi tanni semirturmak nedur.</i>
Sifatdosh va o'tgan zamon fe'l shakllari	-mish	<i>Faramush olmisham ahbab yadidin aningdekim ... Valolar ichki kim salmish firaqing.</i>

11- mavzu	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiy tili
------------------	--

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. O'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar. 2. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari. 3. O'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlari. 4. Bu davr ijodkorlari asarlarining til xususyatlari, uslublari. 5.Gazeta-publisistik uslubining paydo bo'lishi va takomil lashishi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar, bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari, o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlari, davr ijodkorlari asarlarining til xususyatlari, uslublari, gazeta-publisistik uslubining paydo bo'lishi va takomillashishi haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatini natijalari
- o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida ma'lumot berish; - bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalarini tushuntirish; - o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlarini tahlil etish; - davr ijodkorlari asarlarining til xususyatlari, uslublari haqidagi bilimlarni singdirish; - gazeta-publisistik uslubining paydo bo'lishi va takomillashi haqidagi bilimlarni shakllantirish;	- o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - o'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - davr ijodkorlari asarlarining til xususyatlari, uslublari haqida bilib oladi; - gazeta-publisistik uslubining paydo bo'lishi va takomillashi haqida yangi ma'lumot oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. XIX asr oxirlarida o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida nimalar bilasiz? 3.2. O'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida ma'lumot beradi. 3.3. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari haqida tushuncha beradi. 3.4. O'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlarini tahlil etadi. 3.5. Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi tahlil qilinadi.	3.1. XIX asr oxirlarida o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalarini haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. Alisher Navoiyning boshqa tillarga munosabati, qarashlarini yozib oladilar. 3.5. Navoiyning nazmiy asarlari tili va uslubi haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

11-MAVZU

MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK ADABIY TILI

REJA:

1. O'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rsatgan omillar.
2. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari.
3. O'zbek adabiy tili rivojida Muqimiy va Furqatning xizmatlari.
- 4 Bu davr ijodkorlari asarlarining til xususatlari, uslublari.
5. Gazeta-publisistik uslubining paydo bo'lishi va takomillashishi .

1. Bu davrdagi adabiy til O'rta Osiyoning chor Rossyasi tomonidan bosib olinishi bilan yuz bergan tarixiy sharoitda taraqqiy etdi. Chor Rossyasi bosib olgan o'lkalardagi xom-ashyo manbalaridan to'liq foydalanish va shu boyliklarni o'z foydasiga hal qilish uchun qator tadbirlarni ko'rishi kerak edi. Bu tadbirlar mamlakat hayotiga iqtisodiy va madaniy xususiyatdagi o'zgarishlarni kiritish bilan bog'liq edi, iqtisodiy muammoni hal qilish uchun mamlakatda katta va kichik xajmdagi ishchi korxonalar (paxtachilik bilan bog'liq, bo'lgan fabrika va zavodlar), O'rta Osiyoni Rossya bilan bog'laydigan temir yo'l, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun sun'iy irrigasiya inshootlarini qurish kabi tadbirlar amalga oshirilishi lozim edi. Bularning hammasi chorizmning kolonial siyosatini tashkil qilar edi. Haqiqatan ham, mamlakatda asta-sekin turli ko'rinishdagi ishchi korxonalari paydo bo'ldi. Temir yo'l qurildi. Eski shaharlar yonida yangi tipdagi shaharlar qad ko'tardi. Shu asosida o'zbeklar orasiga yangi madaniy elementlari kirib keldi. Xalqimiz rus va ular orqali Evropa madaniyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bular esa o'z navbatida milliy ishchilar sinfining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Mamlakatning tarixi, etnografiyasi ilmiy asosda o'rganila boshlandi. Bu davrda tosh bosmalarining vujudga kelishi bilan o'zbek tilidagi vaqtli matbuot paydo bo'ldi. 1870 yilning 28 apreldan o'zbek tilida 1-marta «Turkiston viloyatining gazetisi» degan gazeta nashr qilina boshladi. U Turkiston general-gubernatorining organi bo'lib, uning siyosatini tarqatar edi. O'rta Osiyo inqilobiy harakatlarning o'sishi natijasida yangicha siyosiy-leksika va terminologiya hamda rus tili ta'sirida yangicha grammatik konstruksiyalar paydo bo'ldi. Bu hol Hamza, S.Ayniyning dastlabki ijodida, M.Behbudiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Adabiyot va vaqtli matbuotdagi davrning turli ta'sir kuchini hisobga olib yuqorida ko'rsatilgan asarlardagi adabiy tilni ikki davrga bo'lishi mumkin:

1. XIX asrning 60 yillaridan 1905 yilgi inqilobgacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili tarixi:

2. 1905 dan Oktabr inqilobigacha bo'lgan davrdagi o'zbek adabiy tili tarixi.

2. Davrning adabiy tiliga diqqat qilsak, undagi o'zgarish va burilish avvalo leksikada ko'rinadi. XIX asrning II yarmida so'z san'atkorlari yangi tushunchalarni ifodalash uchun rus tiliga, mahalliy shevalarga va o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyatlariga murojaat qildilar. So'z tanlash va ijod qilishda o'sha davrda uch manbaga asoslanib ish tutdilar. Ular quyidagilardir:

1. O'zbek tili o'z ichki imkoniyatlari va qonunlari asosida yaratilgan so'zlar hisobiga boyidi. Ma'lumki, jamiyatda paydo bo'lgan yangi tushunchalar yangi so'zlarni yaratish uchun turtki bo'ldi. Bunday so'zlarning bir qismini semantik neologizmlar tashkil etadi. Rus voqeligidan kirib kelgan yangi so'z va hodisalarni o'zbek tilida berishda quyidagicha ifoda qilingan:

a) Ruscha so'z va tushunchalarning ma'nosini berish uchun o'zbek tilida avvaldan bo'lgan so'zlar moslashtirilgan. Masalan, *jahonnoma* so'zi *geografiya* ma'nosida (Furqat. Tanlangan asarlar, II, 1960, 123-bet), *manzil-stansiya* (TVG, 15, 1889), *ustadirijor* (Furqat. Tanlangan asarlar, II, 1960, 28-bet), *bosmaxona-tipografiya* (Furqat. O'sha asarlar, II, 1960, 141-bet), *tabib-vrach* (Muqimiytanlangan asarlar, II, 1960, 67-bet), *nishon-orden*. (TVG, №9, 1903) kabilar.

b) Rus tilidagi atamalarni kalka yo'li bilan o'zbek tiliga tarjima qilish orqali yangi tushunchalar ifoda qilingan: *poxvalnaya gromata-ta'rifnoma*, *ambulatoriya* - *tabibxona*, *upravitel* - *boshqaruvchi*, *jeleznaya doroga* — *temir yo'l*, *beli sar- oq poshsho*, *povestka* - *chaqiruv qog'ozi*, *kerosin* - *er yog'i*, *shtraf* - *jarima puli*, *ruchka* - *fulod qalam*, *poezd* - *otash arava*, *paroxod* - *otash kema*.

2. Xalq jonli tilidan foydalanib, adabiy tilni boyitdilar, Bu davr so'z san'atkorlari XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan Maxmur, Gulxaniy an'analarini davom ettirib, «avomcha» hisoblangan xalq tilidan foydalanib adabiy tilning boyishiga xizmat qildilar. Professor Karimov ta'kidlaganidek, adabiyotning jonli tilga intilishi va uning xazinasidan samarali foydalanish bu

adabiyotning hayotga yaqinlashayotganidan, realizmga qarab intilganidan dalolat beradi. Haqiqatan ham, demokratik adabiyotda realizmning g'alaba qilayotganligi adabiy til taraqqiyotida ham, uning leksik tarkibida ham ko'rinib turadi. Shunday ekan, demokratik adabiyot vakillarining asarlarida jonli so'zlashuv tiliga xos bo'lgan so'zlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, *bo'zchi, kosov, bezgak, paxsa, loy, arava* va boshqalar.

3. Adabiy til taraqqiyotida 3-manba rus tili bo'ldi. «Turkiston viloyatining gazetisi» da mahalliy ziyolilar ayrim asar va maqolalarni rus tilidan tarjima qilib nashr qila boshladilar. Bunda ko'pgina ruscha so'zlar o'z holicha qabul qilindi. Bundan tashqari, madaniy va siyosiy hayotdagi boshqa o'zgarishlar rus tilidagi so'zlarning o'zbek tiliga o'zlashishiga olib keldi. Shu davrdagi ilg'or-demokrat shoir va yozuvchilar asarlarida «Turkiston viloyatining gazetisi» sahifalarida quyidagi sohalarga oid ruscha va rus tili orqali kirgan so'zlar qo'llangan:

1. Ijtimoiy-siyosiy, harbiy-polisiya rejimiga tegishli bo'lgan so'zlar: *uyezd, volost, дума, пристав, konsul, солдат, tyurma, shtraf, general, gubernator. Mas: ... general, gubernatorning va uyezdnoy (uyezd) hokimlarining farmoyishlarini o'qibilmog'imiz zarurdir. (Turkiston viloyatining gazetisi, 1883, № 3);*
2. Transportga oid so'zlar: *poyezd, vagon, kolyaska, vokzal, stansiya. Mas: Huqand vokzalidan 28 chaqirim relstemirlarni boshlab bosgan ekan (TVG, 1901, №69);*
3. Pochta va telegraf bilan bog'liq bo'lgan so'zlar: *pochta, telegraf, adres, marka, konvert. Mas: Mening ismimga adris etib yuborsalar (TVG, 1901, № 30);*
4. Sanoat va moliya ishlari bilan bog'liq so'zlar: *zavod, fabrika, kupes, magazin, bank, veksel. Mas: Bobo, hoji bo'lsing, kupas moldor (TVG, 1908, №2);*
5. Fan va madaniyat bilan bog'liq so'zlar: *gimnaziya, teatr, musiqa, muzey, gazeta, shkola kabilar. Mas: Bolalarni ushqo'lg'a bermoq uchun xohish qildilar. (TVG, 1902, № 12);*
6. Tibbiyotga oid so'zlar: *gospital', doktor, lazaret, feldsher;*
7. Sud ishlariga oid so'zlar: *sudya, sud, zakun kabi. Mas: ...o'z asrida bo'lg'on narudnuy sudyalarg'a qorog'andao'zi boshqa odamdur. (TVG, 1893, № 26);*
8. Hujjat va mukofotlarga oid so'zlar: *bilet, pasport, orden, medal kabi;*
9. Kundalik turmushda kerak bo'lgan buyumlar va ust bosh kiyimlarining nomlari: *samovar, stol, stul, padnos; tarelka, lamp, fonar, pech, galosh, dran, sites kabilar;*
10. O'ltov birliklari nomlari: *pud, sajen, vershok, minut kabi;*
11. Oziq-ovqatga doir so'zlar: *pivo, kvas, limonad, kofe, konfet, kartoshka, suxari kabilar;*
12. Etnik va toponomik nomlar: *Moskva, Rossiya, ingliz, fransuz, rus kabilar.*

Bu davrdagi rus tilidan o'zbek tiliga so'z qabul qilinishining asosiy sababi shundan iboratki, madaniy turmushda bir qancha yangiliklar paydo bo'ldi. Bunday tushunchalarni ifodalash uchun o'zbek tilida so'zlar yo'q edi. Shuning uchun bu so'zlar rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri qabul qilingan.

XIX asrning II-yarmida rus tilidan o'zlashgai so'zlarning bir qismi aslida turkiy so'zlardir: Ular yangicha ma'no va ba'zi fonetik o'zgarishlar bilan qabul qilingan. Bularga *tovar, istikon (stakan), karandash (qalam), boyarin, bek, bashmak, qolpoq, kabluk, chulan, cherdak, dengi, karaul, yarlik, kabak, altin, yam, yamshik* va h.o. O'zlashgan so'zlar ichida etimologik jihatdan arabcha va Evropaning boshqa mamlakatlari tillariga oid so'zlar ham bor. Yuqoridagi kabi so'zlarning aksariyat qismi jonli so'zlashuv nutqi orqali va vaqtli matbuot orqali o'zbek tiliga kirib kelgan.

Turli tildagi tarjimalar faqat rus tilidan emas, balki fors-tojik tilidan ham bo'ldi. Ayniqsa bu davrda Bedil ijodi bilan qiziqish va unga ergashish kuchaygan edi. Shu tufayli demokrat shoirlar zullisonaynlikni davom ettirdilar. Natijada mumtoz adabiyotda fors-tojikcha, arabcha leksik va grammatik unsurlardan foydalanish an'anasi ham davom ettirildi.

3. XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshida yashab ijod etgan O'zbek demokrat shoirlari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tarlarning asarlari o'zining g'oyaviy mazmundorligidan tashqari, tilining soddaligi va ravonligi bilan ajralib turadi. Demokrat shoirlar o'z asarlarining ommaga tushunarli bo'lishiga va unga tezroq borib

yetishiga katta ahamiyat berdilar. Adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtirishga, jonli til elementlaridan foydalanib, adabiy tilni boyitishga intildilar.

O'zbek adabiy tili ko'p asrlik an'anaga ega bo'lib, u A.Navoiy tomonidan shakllantirilgan va rivojlantirilgan edi. Biroq zamonlar o'tishi bilan Navoiy tilidagi ayrim shakllar o'zgarib, eskira boshladi. Muqimiy asarlari tili Navoiy tilining eski o'zbek adabiy tilining davomi hisoblansa-da, undan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Bu farq asos-e'tibori bilan tildagi xalqchilikda ko'rinadi. Muqimiy mehnatkash omma hayotidan faqat mavzu, syujetnigina olmadi, balki shu bilan birga bitmas-tuganmas manba bo'lgan xalq tilidan ham unumli foydalandi. Bu hol Muqimiy asarlari tilida xalqchilik xalqning jonli tiliga xos bo'lgan kichraytish, erkalash kabi ma'nolarni ifoda qiluvchi so'z shakllarini qo'llashda ko'rinadi.

Zulfu kəkilchələri yuzginəsığə tushgan

Anga oxsharki, tutar oyginani holigina.

So'z turkumlaridan ot, sifat va ravishga *-gina*, *-cha*, affiksilarini qo'shish orqali yuqoridagi ma'nolarni ifoda qilishga erishgan.

Muqimiy juda ham rang-barang bo'lgan jonli so'zlashuv tili vostalaridan ustalik bilan foydalandi va adabiy tilni yangi so'zlar, frazeologik birikmalar bilan boyitdi. Bunday so'z va iboralardan quyidagilarni ko'rish mumkin: «Yotqizib tilsəḡ banāḡāḡ qarnidan chiqmas alif», «Kocha darbāza toy kuni zanjir», «zanchalish», *rudāpa*, *daguli*, «shalag'i chiqqan», «luchchak», «hangu mang», «nosu bang».

Shoir satiralarida xalq so'zlashuv tiliga oid qator so'zlarni uchratish mumkinki, ularning ekvivalenti shu davrgacha adabiy tilda bo'lgan emas. Masalan,

Oshiqidin choyxo'rini bexabar **qolg'ich** olur,

Paqir so'zi (chaqa pul ma'nosida).

Satar olsaḡ, ʻozim bahā qoysam,

Bir miri atu bir **paqir** aravang.

Tag, joy so'zi.

Mag'ur xassu beshu kam,

Har yerda yuz ichkay qasam,

Tag jāy alur maxāvdin ham,

Hāji ʻezi murdār ekan.

Muqimiy asarlarida jonli tilga xos leksik elementlarigina emas, balki fonetik xususiyatlari ham aks etgan: Nogoh kayfi uchkay kelsa agar **taroxlab**, Ichkan giyahi bo'lsa ko'knor, aroba qursun. Bu fonetik hodisa Farg'ona vodiysi shevalari uchun xarakterlidir. Muqimiy ijodida so'zlashuv tilida bo'lgan *yeng uchida*, *ʻepkəḡni bas*, *kəzḡə bizi ilməḡəy*, *ashi misāli tabaqda kəz yashi*, *changi chiqdi* kabi frazeologik birikmalardan unumli foydalangan.

Muqimiy asarlarida *-zor* affiksi jonli tildagidek shaxs otlariga ham qo'shilib kelgan:

Yetdim ul oqshom g'am yutub, Dashti qaraqchizār ekən.

Muqimiy asarlari tili eski o'zbek tilining davomidir. Muqimiy asarlari tilida mumtoz shoirlarda uchrovchi leksik elementlar, grammatik shakllarni uchratish mumkin. Navoiy va boshqa shoirlar leksikasida qatnashgan so'zlar Muqimiy lirikasidan ham o'rin olgan. Uning asarlari grammatik qurilishida esa Navoiy tilida qayd qilingan barcha shakllar uchraydi: erur, -dur, -ibon, -mish, o'lmoq kabi shakllar ishlatiladi. Hozir otamlariga birodar **erur**. O't **qo'yibon** kuydiradurg'on o'zim. Bu kunda kimiki imonin sotar, ul e'tibor **o'lmish**.

Muqimiyning satirik asarlarida mavjud ruscha so'zlarning 32 tasi ot turkumiga, 2 tasi sifat, bittadan ravish, yuklama va fe'l turkumiga oiddir. Bu narsa bir tildan ikkinchi tilga asosan ot turkumiga oid so'zlar qabul qilinadi, degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi. Muqimiy asarlari tiliga rus so'zlari asosan og'zaki nutq orqali kirib kelgan. Chunki rus tili va rus tili orqali kirgan so'zlar shu davrda qanday talaffuz qilingan bo'lsa, shundayligicha

olingan. Masalan, *o'rus, kantur, zavut, kupes, cho't(schyot), uez, poliska (polisiya), purjina, kalaska, pristup, kalush, meshin, piyon (pyaniy) do'xtur, vogun, bo'lis, zakun, zakalat (zaklad)* kabi.

Rus tilidan qabul qilingan ba'zi so'zlar ma'nosi Muqimiy asarlari tilida ancha kengaytirilgan. Masalan, *vagun* so'zi *poezd* ma'nosida qo'llangan:

Sur'at ila hayr ulusdin yetib, Borlig'i ham xayriyat o'ldi *vog'un*.

(“Tarixi zilzilai Andijon”)

Samovar so'zi *choyxona* ma'nosida qo'llangan:

Takyalab jarlar, *samovaru* oqarsuv, xush havo.

Muncha ham serob ekan, obod olding oxunim. (“Oxunim”)

Shoir ruscha so'zlarga murojaat qilar ekan, ba'zan ularning bir qismiga o'zbekcha so'z yasovchi affiksilarni qo'shib yangi so'zlar hosil qilgan:

Moshinachiga berub, tiktirmaganda barvaqt

Sovuq havo, Muqimiy ojiz, yamon, afandim. (“Maktub”)

Chiqib yangi **moskovchidan** boylar. (“Moskovchi boy ta'rifida”)

Bularga **tiligrafchi, purjinali** kabi so'zlarni ham keltirish mumkin.

Muqimiy ma'lum uslubiy maqsad taqozosi bilan xususiy til yaratishda ba'zi ruscha so'zlardan foydalandi: *seychas, durak, pojalista, pashol, piyonista, piyon, zakun* kabi.

Topib mardiktrini – “**Seychas** yuring,

Pojalista, - der edi, -emdi turing”. (“Moskovchi boy ta'rifida”)

Muqimiy tomonidan qo'llangan ruscha so'zlarning ayrimlari hozirgi tilimizda adabiy til normasiga aylangan bo'lsa, ayrimlari qabul qilingan emas.

4. Furqat O'rta Osiyoning Rossyatomonidan bosib olinishi natijasida tug'ilgan yangi tarixiy ijtimoiy ongning ilg'or xususiyatini adabiyotda targ'ib qilgan ijodkorlardan va o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosb hissa qo'shgan ma'rifatparvarlardan biridir. Furqatning o'zbek adabiy tili taraqqiyotidagi ahamiyati shundaki, u demokrat shoir sifatida badiiy-adabiy til uslubini so'zlashuv nutqiga yaqinlashtirishga harakat qildi.

Furqat asarlari orqali adabiy tilga neologizmlarni olib kirdi. U adabiy tilni yangi leksikaning semantik tushunchalari va iboralar bilan boyitishga intiladi. Badiiy adabiyot tilida fan va texnikaning taraqqiyoti, shuningdek ijtimoiy-munosabatlarning o'zgarishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangi tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlarni qo'llaydi. Asarlarida leksik neologazmlar: *gazeta, doktor, zavud, zakon, lampa, moshina, sallot, telegram, par (juft), perevot* kabi so'zlarni qo'llaydi. Shoir o'z davridagi yangi tushunchalarni to'liq ifodalash maqsadida umumxalq tilida oldindan iste'mol qilinib kelgan so'zlarni tanlaydi va shu so'zlar asosida original semantik neologazmlarni yaratadi. Bunday semantik neologazmlar shoir tilida aniq bir tushunchani anglatib, o'zining dastlabki nominal ma'nosini ancha o'zgartiradi. *Barq, doru* so'zlarini va «ishorat aylamoq» birikmasida ham shunday hol ko'rinadi. *Barq* so'zining lug'aviy ma'nosi *chaqmoq* bo'lib, muallif uni elektr toki ma'nosida qo'llaydi. *Doru* so'zini esa elektr tokini yuzaga keltiruvchi yonilg'i yoki shunga o'xshash zaruriy vosita ma'nosida qo'llangan. Ma'lumki, *doru* so'zi kishi organizmini sog'lom qiluvchi ximik moddani bildiradi. *Fonus* so'zi aslida arabcha bo'lib, qo'l fonarini anglatgan. Furqat esa uni elektr lampochkasi ma'nosida qo'llagan:

Chunonchi ikki fonus axli hikmat,

Yasabturlar qilib izhor san'at.

Yonar befilta, begugurt, be yog'

Anga bir sim ishorat aylagan chog'.

(Toshkent shahridagi vistavka xususda).

Furqatning o'zbek adabiy tili, xususan, badiiy adabiyot tili taraqqiyotida tutgan o'rni yana uning rus xalqi madaniyati, ayniqsa, rus tiliga bo'lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Furqat rus tilining chuqur hayotiy mohiyatini to'la tushungach, o'z xalqini ham bu tilni o'rganishga da'vat qildi. «Turkiston viloyatining gazetasi»ning 1892 yil 13-sonidagi uning quyidagi so'zlari ahamiyatlidir: «*Rusiya xalqi xat va lison o'rganmoqqa bizni taklif qilsa, murodi yomon emasdur. Balki mamlakat obod bo'lib, fuqaro va raiyalar osoyishta bo'lmoqlarini xohlaydilar. Az baski Rusiya xalqi hamma vaqt biz musulmon xalqining davlatmand va xursand bo'lmog'imizg'a qo'shish qiladur*».

Furqat ulug' Navoiy ananalarini davom ettirgan, bu holat uning asarlarida eski o'zbek tiliga xos bo'lgan qo'shimchalarning ishlatilishi misolida ham ko'rish mumkin. Tushum kelishigi uchun **-in**, **-i**, jo'nalish kelishigi uchun **-a**, chiqish kelishigi uchun **-din** affikslari qo'llanadi. Mas: Ayladi **ko'ksima** choku **ko'nglimi** afgorlar... **Orazidin** baytul -hazonim munavvar bo'lmasa. Eshitganlar aning **holin** bilurlar.

Furqat asarlarida **-ish**, **-moq**, **-uv** affikslari bilan yasalgan harakat nomlaridan tashqari, **-ur** affiksi bilan yasalgan harakat nomlari ham bor Masalan: **Tururga** qolmadi toqatko'gil ham volau shaydo.

So'roq yuklamasining **-mu** shaklida ishlatilishini, bilan ko'makchisining **-la**, **-ila**, **bila**, **birla**, **birlan** tarzida qo'llanish holatlari mavjud. Masalan: Biro ishqida rasvolig'da o'lgan **bormu** deb munda; **Rasadla** to'p otib kunning qiyomi...

Shunday qilib, Furqat XIX asrning II yarmida Navoiy an'alarini qisman davom ettirish bilan birga, o'zbek adabiy tilini yangi grammatik shakllar va rus tilining leksik unsurlari bilan boyitdi.

5. Ubaydulla Solih o'g'li Zavqiy o'zbek demokratik adabiyotining mashhur namoyandalardan biridir. Zavqiy o'z uslubida soddalik, ravonlikka erishish maqsadida xalq og'zaki ijodidan samarali foydalandi. U xalq og'zaki ijodiga xos ibora va maqollarni she'riy misralarga singdira bildi:

Farq aylamay yaxshi-yomon, Kim arpa-bug'doy, kim samon.

Tuhmat, haqoratlar hamon, Ne muddaosiz afandilar.

Zavqiy uslubining soddaligi uning she'rlari xalq qo'shiqlari uslubida yozilganligidadir. Masalan,

Kulfat tushib boshig'a, Og'u tushib oshig'a.

Kelmay kishi qoshig'a, Aqronu mehribonlar.

Xalq qo'shiqlari uslubdan foydalanganligi tufayli Zavqiy asarlarida jonli xalq tili elementlari ko'pdir. Zavqiy asarlarida xalq tiliga xos so'zlardangina foydalanib qolmay, unga xos bo'lgan so'z birikmalarni ham qo'lladi:

Bu padar la'nat harom o'lgur otim,

Har qachonkim, men minar bo'lsam kasal.

Keltirilgan misollardagi *padar la'nat*, *xarom o'lgur* birikmalari xalq so'zlashuv tiliga xosdir. Zavqiy tilining Muqimiy va Furqat tilidan farqli tomoni shundaki, unda til xalqchilligi, jonli xalq tili elementlarini nisbatan ko'p qo'llaganligidadir. Bundan tashqari Muqimiy va Furqat asarlarida bo'lganidek, Zavqiy asarlarida ham ruscha-baynalmilal so'zlarni uchraydi: *veksel*, *poyiz*, *vagun*, *kalaska*, *jurnal*, *tilgrom*, *banka*, *bo'lis*, *siyoz (se'zd)*, *pristup*, *bolshevik* kabi.

Zavqiy rus tilidan yuqoridagi kabi faqat otlarni emas, balki sifat va so'z birikmalarni ham uslubiy talab asosida qo'lladi:

Ko'r bo'lmasa pul oqib kelurmi,

Bu badshakl, **slepoy durrakka**,

O'ruscha maqtasa Zavqiy, **xorosh**,

Juvon, pir, mardu zan monandi ishdur.

Umuman, Zavqiy ham o'z she'riyati bilan o'zbek adabiy tilini xalq tiliga mos shakllar bilan mukammallashtirdi.

O'zbek demokratik adabiyotining ko'zga ko'ringan adiblaridan hisoblangan Avaz O'tar o'g'li asarlari bilan o'zbek adabiy tili ravnaqiga munosib hissa qo'shdi.

Barcha demokratik shoir va yozuvchilar kabi Avaz O'tar o'g'li ham buyuk Alisher Navoiy tomonidan asoslangan adabiy tilni rivojlantirishga, davr talabiga mos shakllar axtarib topib, uning taraqqiy etishida barakali xizmat qildi.

Avaz O'tar davr talabiga javob beradigan til vostalarini xalq so'zlashuv tilidan o'zbek adabiy tiliga olib kirishga harakat qildi. Masalan, uning she'rlarida *zindon*, *chora*, *ijora*, *sham*, *kulba* kabi so'zlar qo'llangan. Buning yorqin dalili quyidagi satirik to'rtlikda ko'rinadi:

Sipohi poro istar,
Mulla ijora istar
Bechora chora istar,
Bir chora zamon bormu?

Uning asarlarida jo'nalish kelishigining **-a**, **-ga**, **-g'a**, affiksli shakllari, chiqish kelishigining **-din**, **-dan**, ravishdoshning **-ibon**, **-ub**, **-ubon**, **-ubdur**, **-bon** shakllari uchraydi.

Avaz O'tar o'g'li asarlari leksikasni asosan turkiy va arabcha-forscha so'zlar tashkil etadi. Rus va rus tili orqali kirgan so'zlardan u deyarli foydalanmadi.

Umuman, o'zbek adabiy tili XIX asrning II-yarmida o'zining yuqori bosqichiga ko'tarilishida Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar o'g'li kabi demokrat-ma'rifatparvarlarning asarlari muhim rol o'ynadi.

5. Turkistonning Rossyatomonidan bosib olinishi turli xil iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Rossyaning chekka o'lkalarida adabiy va madaniy harakatchilik islomni isloh qilish, uni burjuaziya talablariga ko'ra moslashtirish yo'li bilan olib borildi. Natijada milliy burjuaziyaning mafkurasi vujudga keldi.

Turli ta'sirlar natijasida Rossyaning chekka o'lkalarida «umumiy turk tili» to'g'risidagi nazariyalar tarqaldi. Demokrat -ma'rifatparvarlar esa o'zbek adabiy tilini ona tili zaminida rivojlantirish uchun kurashdilar. Bu nazariya va kurashlar XIX asrning II yarmidan boshlab paydo bo'lgan nashriyot va vaqtli matbuotda o'z ifodasni topdi. Avval aytganimizdek 1871 yildan mustaqil ravishda «Turkiston viloyatining gazetasi» keyinchalik 1906 yildan «Taraqqiy» gazetasi chiqa boshladi. Shu davrdan boshlab o'zbek adabiy tilida gazeta-publististik uslub paydo bo'ldi.

Ma'lumki, O'rta Osiyoga Rossya bostirib kirganidan so'ng rus tilidan qilinadigan tarjima asarlari soni ko'paydi. Bunga asosiy sabab rus tilining madaniy hayotdagi roli va ahamiyati oshganligidir. Shuningdek, rus-tuzem maktablarini yerli xalq bolalari bitirib chiqa boshladilar. Ularning kuchi bilan ruschadan o'zbekchaga va o'zbekchadan rusch tiliga asarlar tarjima qilina boshlandi. Rus tilidan diplomatik hujjatlar, rasmiy yozishmalar, qishloq xo'jaligiga oid ilmiy, tibbiy texnik, siyosiy-tarixiy va shu xildagi asarlar tarjima qilindi. Ular «Turkiston viloyatining gazetasi» da bosilib turdi.

Shunday qilib, «Turkiston viloyatining gazetasi» XIX asrning II- yarmi va XX asr boshlarida o'zbek madaniyati, xususan, adabiy tili tarixida ma'lum ijobiy rol o'ynadi. Furqat, Sattorxon, Ishoqxon kabilar gazeta orqali adabiy va publististik faoliyatlarini namoyish qildilar.

Furqat dastlab gazetani «E'lonnoma» deb tushunadi, lekin keyinchalik uning siyosiy ijtimoiy ahamiyatini tushunib, unda faol ishtirok etdi Sattorxon 1883-1890 yillar davomida redaksiyada muharrir yordamchi va tarjimon bo'lib ishlaydi.

Furqat, Sattorxon, Isxoqxon publistikasning tili alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zbek adabiy tilning gazeta-publististik tili va uslubi rivojida katta rol o'ynadilar. Ular o'zbek adabiyoti namoyandalarning eng yaxshi an'analarini davom ettirib, o'zbek adabiy tili rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar.

Ular o'zbek tilini arxaiik unsurlardan tozaladilar, uni yangi iboralar va baynalmilal so'zlar bilan boyitdilar.

Ruscha-baynalmilal so'z va iboralarni publistik maqolalarida ham so'zlashuv tilidagi shaklida ishlatdilar *tiligraf*, *zavud*, *moshin*, *rayal*, *fotogiroyf* (Furqat), *giniral*, *gubirnatur*, *uezdnoy*, *ushqo'l*, *afitser*, *kamisya* (Sattorxon)

Ayrim so'z va terminlar tarjimai bilan berilgan: pachotniy, ismotritel', ya'ni izzatlik nozirlik,

Ho'qand shahridagi madrasada *pachotniy ismotritel*, ya'ni izzatlik nozirlik mansabida turdim (TVG, 1890, 3- son)


Ayrim ruscha-baynalmilal so'zlar va birikmalar davr talabiga binoan arabcha, forsha so'zlar bilan tarjima qilib berilgan Masalan, *to'pchi to'ra* (*gospodin artillerist*), *vaziri ilmiya* (*maorif vaziri*), *ilmiya maslahati* (*pedsovet majlis*), *murshidi* (*yo'l boshchisi*), *jahonnoma* (*jug'rofiya*), *jarroh* (*xirurg*), *tarroh* (*arxitektor*), *hakim* (*shifokor*), *mudarris* (*professor*).

Muhimi shundaki, gazeta-publisistik uslubida badiiy uslubning ta'siri kuchlidir, chunki badiiy uslub o'zining ko'p asrlik an'anasiga ega edi Ayni zamonda gazeta publisistik uslubining shakllanishi natijasida bu uslubga xos ayrim xususiyatlar badiiy adabiyotga ham singib bordi Bunda Furqat, Ishoqxon, Sattorxonlarning roli katta bo'ldi.


Savol va topshiriqlar.

1. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida o'zbek tiliga ta'sir etgan omillarga to'xtaling?
2. Muqimiy asarlarida so'zlashuv nutqiga xos so'zlarning berilishi?
3. Furqat asarlari tiliga rus tilining ta'siri qanday ?
4. Zavqiy ijodiyotining Muqimiy va Furqat ijodidan farqli xususiyatlari nimada?
5. A. O'tar asarlarida qo'llangan shakllarga to'xtaling?
6. Gazeta-publisistik uslubining rivojiga hissa qo'shgan ma'rifatparvarlar kimlar?


Muqimiy asarlarida mumtoz shoirlardagi leksik elementlar, grammatik shakllarni uchratish mumkin.



Muqimiy va Furqat ijodiga xos xususiyatlar



O'zbek adabiy tilning gazeta-publisistik tili va uslubi hissa qo'shganlar:



12- mavzu	XX ASR O'ZBEK ADABIY TILINING TAYANCH SHEVALARI, GRAFIKASI VA IMLOSI
-----------	---

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejas:	1. Davr adabiy tili haqida 2. XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari 3. O'zbek tilining amaliy grammatikasni tuzish uchun bo'lgan urinishlar
O'quv mashg'ulotining maqsadi: davr adabiy tili haqida, XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari, O'zbek tilining amaliy grammatikasni tuzish uchun bo'lgan urinishlar haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- davr adabiy tili haqida ma'lumot berish; - XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari haqida tushuntirish; - o'zbek tilining amaliy grammatikasini tuzish uchun bo'lgan urinishlarni tahlil etish;	- davr adabiy tili haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - O'zbek tilining amaliy grammatikasni tuzish uchun bo'lgan urinishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari nimalardan iborat? 3.2. Davr adabiy tili haqida haqida ma'lumot beradi. 3.3. XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari haqida tushuncha beradi. 3.4. O'zbek tilining amaliy grammatikasini tuzish uchun bo'lgan urinishlarni tahlil etadi, to'liq ochib beradi.	3.1. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari haqida bilgan ma'lumotlarini sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. O'zbek tilining amaliy grammatikasini tuzish uchun bo'lgan urinishlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

12-MAVZU

XX ASR O'ZBEK ADABIY TILINING TAYANCH SHEVALARI, GRAFIKASI VA IMLOSI

R E J A:

4. Davr adabiy tili haqida
5. XX asrning boshlaridagi o'zbek adabiy tili xususiyatlari
6. O'zbek tilining amaliy grammatikasni tuzish uchun bo'lgan urinishlar

1. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida sinfiy-g'oyaviy kurash ancha kuchaydi. Bunga asosiy sabab Rossiya iqtisodiyotining imperialistik davrga kirishi va kapitalistik zulmning kuchayishi edi. Ishchilar kapitalistik zulmga qarshi kurashish uchun siyosiy to'garaklar, tashkilotlar va, nihoyat, sotsial-demokratlar partiyasiga birlasha boshladilar.

Turkistonda ham kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi natijasda mahalliy ishchilar qatlamining soni bir qadar ko'paydi. Bunga sinfiy tabaqlanish jarayoni sababchi bo'ldi. Turkiston siyosiy surgunlar o'chog'iga aylana bordi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy ishchilar siyosiy ongining o'sishiga va ularning inqilobiy harakatga qatnashishiga ta'sir ko'rsatdi.

Ayniqsa, 1905 yil inqilobidan, mahalliy mehnatkashlar harakatidan cho'chigan milliy burjuaziya siyosiy va mafkuraviy kurash maydonida o'z ishini faollashtirdi. Mahalliy burjuaziya o'z g'oyalarini jadidchilik harakati yordamida olib bordi. Natijada, bir tomonda burjua-jadid adabiyoti shakllandi va ikkinchi tomonda, demokratik adabiyot rivojlandi.

Turkiston sotsial-demokratlari xalq ommasi o'rtasda izchil tashviqot olib borish bilan birga, «Russkiy Turkestan», «Samarkand», «Rabochiy» nomli gazetalar ham nashr qildilar. Shu bilan birga, Markaziy Rossiyadan «Iskra», «Vperyod», «Proletariy», «Borba» gazetalari hamda «Zarya» jurnali kelib turardi.

Turkistonda ham kundalik matbuotga e'tibor kuchaytirildi. 1905—1917 yillarda «O'rta Osiyoning umrguzorligi», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Osiyo», «Tijjor», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Fargona», «Al-isloh» kabi gazetalari va «Oina» jurnali tashkil etilib, nashr qilindi.

Bundan tashqari, Ozarbayjonda chiqadigan «Yangi hayot», «Xo'ja Nasriddin», Tataristonda chiqadigan «Ong», «Sho'ro», Qrimda chiqadigan «Tarjimon» kabi gazeta va jurnallar ham Turkistonda tarqaldi.

Ma'lumki, Turkistonda to XIX asrgacha davom etgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tushkunlikdan keyin adabiyotda bir qadar olg'a siljish sezila boshladi. Adabiyotning yangi shakllari tez rivojlandi. Vaqtli matbuot, truppalari shaklidagi xalq teatri paydo bo'ldi. Bularning hammasi tasodifiy hodisa emas.

Birinci rus inqilobidan so'ng Rossiyaning chekka o'lkalarida, jumladan, Volga bo'yi, Qrim, Ozarbayjon, Turkiston hamda Turkiya, Eronda adabiy va madaniy hayot rivojlandi. Eski usuldagi maktablar yangi «taraqqiy asri» nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi. Darslar ona tilida olib borilib, dasturlarga dunyoviy fanlar ham kiritildi.

Bularning hammasi, o'z navbatida, o'sha davr o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmasdi. O'zbek tili tarixida uch inqilob davri umummilliy tilning shakllanishidagi boshlang'ich davrdir. Bu davrda birinchi marta umummilliy til g'oyasi tug'ildi. Bu masalani mustamlaka rejimi davrida amalga oshirish mumkin emas edi, chunki milliy masalaning o'zi ham to'la hal qilinmagan edi. Shuning uchun umummilliy til masalasini hal qilish sohasida turli xil g'oyalar va shovinistik qarashlar paydo bo'ldi.

2. Taraqqiyotning umumiy ruhi shu davr adabiy tilida o'z izini qoldirdi. 1905-1917 yillardagi o'zbek adabiy tili, A.K. Borovkov fikricha, «aralash til» edi. Adabiyotda she'riy uslub nasriy uslub ustidan hukmronlik qilar edi. Nasriy, dramatik asarlar hamda gazeta tili adabiy tilga ta'sir qildi. Turli xil ta'sirlar adabiy tilda o'tkinchi, shaklsiz va aralash g'oyalarni tug'dirdi va u o'zbek adabiy tilining holatiga ta'sir etdi. U davr tilida, birinchi navbatda, tatar va g'arbiy turk tili unsurlari ko'zga tashlanadi.

Turkiston general-gubernatorining tarjimoni «Taraqqiy» gazetasining tili haqida yozar ekan: «Bu gazetasining tili tatarcha, o'zbek tiliga moslashtirilgan arabcha va usmonli turkcha so'zlardan iborat» degan edi. Haqiqatan bu davr o'zbek adabiy tilida tatar tili va g'arbiy turk tili unsurlari katta o'rin tutar edi. Bu narsa Markaziy Rossiya, Qrim, Ozarbayjon, Turkiyaning g'oyaviy ta'siri ekanligi sir emas.

Tatar, Qrim tatar, Ozarbayjon matbuoti o'zbek burjuaziyasi hamda ziyolilarining siyosiy va madaniy

taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qrim tatar gazetasi «Tarjimon», tatarcha «Vaqt» Ozarbayjon satirik jurnali «Mulla Nasriddin» Turkiston va Buxoroda keng tarqaldi.

Turkiston matbuotida, madaniy-oqartuv ishlarida teatr tashkil qilishda, yangi usul maktablari ochishda tatarlar bevosita ishtirok etdilar. Buxoroda birinchi marta yangi usul maktabini 1907 yilda tatar mulla Niyoz Sobitov ochdi va bu maktabda tatar Abdurahmon Saadiy o'qituvchilik qiladi. Bularning hammasi turkiy tillarni «birlashtirish» haqidagi g'oyalar bilan hamohang edi. G'arbiy-turkiy unsurlar tilda mustahkam o'rnanib olib, o'sha davr adabiyoti va matbuoti tilida uzoq vaqt saqlanib qoldi. Bu g'arbiy unsurlar bir necha fonetik dalillarda ham saqlangan edi.

Masalan: *Uch-do'rtgun saqlaniyur* («Taraqqiy», № 6,5. VII-1906); *axri var* (shu joyda); *vir mamlakat var esa* («Sadoi Fargona», 13.VI.1914); *xabar verdi* («Sadoi Turkiston», 18.IV.1914).

Bu davr tilida g'arbiy til shakli «o'l» bilan o'zbekcha shakldagi «bo'l» fe'llari parallel ishlatilgan. Masalan: *Bu bankada Fransiya uch hissa o'lib, boshqa davlatlar haqi birgina xissa o'lur emish* («Taraqqiy», № 4,25.VI.1906); *majbur o'ldi* (shu joyda); *bizlarda na o'ldi* («Xurshid», № 9.3. IX. 1906) qabilar.

Bulardan tashqari, adabiy tilga bir qancha g'arbiy-turkiy morfologik unsurlar ham kirib keldi. Masalan, sifatdoshning o'tgan zamon shakli: *Mayub hisab edilan kishilar* («Taraqqiy», №7,22.VII.1906). *Istambuldan gelan xabarga qaraganda* («Xurshid», № 2,14.IX. 1906).

Sifatdoshning kelasi zamon shakli: *Taraqqi bizim ma'rifatimizning muftahi o'lajakdir* («Taraqqiy», № 6,5.VI.1906); o'tgan zamon shakli *Zayniddin Xarrot bu voqeani tushida ko'rmishti* (ko'rgan emish) («Taraqqiy», № 4.25.VI.1906); hozirgi zamon fe'li shakli: *Isbat kiliyur* («Taraqqiy», № 15,5.VIII. 1906); Xo'qanddan mudarris M. N. hazratlari yoziblar («Sadoi Turkiston», № 6,24.IV.1914); sifatdoshning-dik affiksili shakli: *Birinchi moddas mutolaa kilindikdan so'ngra* («Xurshid», № 2,14. IX. 1906).

Adabiy tilga u davrda yo'l-yo'lakay usmonli turk tilining bir qancha leksik unsurlari ham kirib qoldi. Bularning hammasi «umumiy turk tili» nazariyasi asosida paydo bo'ldi. Masalan: *qo'mondon* (komandir), *sanjoq* (uezd), *Samarqand sanjoqining taxsri* («Oyina», № 9,1913). *Qo'ngra* (Frankongress) *umum musulmon ko'ngras* («Oyina», № 13,1914,205-bet). Bu xil so'zlarning ayrimlari hatto keyingi davrlarda ham uchraydi.

O'sha davr tilida tatar tilining bir qancha unsurlarini ham uchratish mumkin. Ular tatarlarning o'zbek matbuotida bevosita ishtirok etishida ko'rinadi. Tatarcha so'zlar asosan fonetik unsurlarda o'z ifodasini topdi. Masalan: *chilin-chlen, ko'rib bilmiy* («Sadoi Turkiston», № 3,19.V. 1914). *Gazeta o'qiy turgan har odamga ma'lum* («Sadoi Turkiston», № 18,17. V.1914) qabilar.

Tatarcha iboralar morfologik va leksik unsurlarda ham ko'rina boshladi. Masalan: *Bizim Turkiston* («Sadoi Turkiston», № 10,17.V.1914); *ko'linda bor materiallar* (shu joyda); *Tiyishli ma'lumot yibaru* (shu joyda); *U ram vagun* (tramvay). («Taraqqiy», № 14,3.VIII.1906); *jirlovchi xonim* («Sadoi Turkiston», № 18,1914) qabilar.

1905-1917yillar o'zbek adabiy tilining asosi qanday edi hamda uning xalq so'zlashuv tiliga, shevalarga munosabati qanday edi?

1905-1917 yillar adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining ya'ni xalq jonli so'zlashuv tilidan uzoq bo'lgan kitobiy-adabiy tilning davomi edi. Uning bazasi so'zlashuv tili bo'lmaganligi sababli u vaqtda adabiy til haqidagi tortishuvlarda shevalar muammosi ko'tarib chiqilmadi.

O'sha davr adabiy tiliga kirgan shevachilik unsurlari uning tarkibiga singib ketgan edi. Toshkentda chiqadigan matbuot asarlari tilida Toshkent shevasi xuciyatlyari uchraydi. Masalan: *ketvatkan* («Taraqqiy», № 5 2,17.VI.1906); *kazax uruslar kelaytdilar* («Taraqqiy», № 9,16.XII.1906). Bunga qarama-qarshi Samarkanddagi nashrlarda va bu yerlik mualliflarning asarlarida biz bir qator shu shevadan kirgan so'zlarni uchratamiz. Masalan: Behbudiyning «Padarkush» dramasida, «Oyina» jurnali va «Samarkand» gazetasida Samarqand-Buxoro shevalariga xos turlanish sistemasini uchratamiz, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari uchun **-ni** affiksi qo'llanadi. Masalan: *Muni sababi, bizlarni o'qimaganimizdir* (Behbudi, «Padarkush»). *Xalqni ko'zi* (shu asar). *Hukumatni ruhsati ilan* («Oyina», № 16,1915,448-bet). *Bizni Turkistonda* («Samarkand», № 31,30.VII.1913).

Jo'nalish va o'rin-payt kelishigida **-ga (-ka)** affiksi ishlatiladi: *Boyvachcha usuli jadid maktabidami o'qiydir, yoki eski maktabga* («Padarkush»). *Uyni bir tarafiga sanduq* (shu asar). *Boy yotir karavat ustiga uyquda* (shu asar). *O'rta va a'lo (oliy) maktablariga o'qiydurgan bolalar* («Samarkand», № 31,30.VII.1913).

1905-1917 yillar adabiy tilida rus tilidan qabul qilingan soʻzlar ham mavjuddir. Rus tili unsurlari, asosan, jonli soʻzlashuv shaklida kirib kelgan. Masalan: *qiziq va interesni hodisa emish* («Padarkush»). *Bankalar koʻpaydi, katta boylar chilin boʻlur* (shu asar). *Pristuf hayda turma, marsh* (shu asar). Bundan tashqari, matbuot tili orqali ham bu kabi soʻzlar kirib keldi.

Umuman olganda, boshqa tildan soʻz olish ogʻzaki soʻzlashuv orqali va matbuot, yozuv orqali boʻladi. Arab tilini oʻrganish oʻzbek tilida bir qancha adabiy shakllarni vujudga keltirgan boʻlsa, ogʻzaki munosabat rus tilidan koʻp soʻzlarni oʻzlashtirishga sabab boʻlgan.

Soʻzlashuv nutqi shaklida qabul qilingan soʻzlar oʻz orfografiyasida aksni topdi. Urgʻusiz unlilar talaffuziga asosan yozildi.

Yozuvda esa jonli soʻzlashuv nutqiga xos boʻlgan proteza (*urus, istarshi*). epenteza (*trudovoy*), apokopa (*syaz, uyaz*), sinkopa (*destin*) va boshqa shu kabi hodisalar oʻz ifodasini topdi. Bularning hammasi soʻz qabul qilishning ogʻzaki shaklda boʻlganligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Umuman, rus tilidan qay tarzda soʻz olinganidan qatʼi nazar, u oʻzbek adabiy tili, jumladan, ijtimoiy-siyosiy leksika va atamashunoslik taraqqiyotiga samarali taʼsirini koʻrsatdi. Bu oʻrinda boshqa tillarning ham ozmi koʻpmi taʼsiri boʻldi.

Oʻrta Osiyoning Rossyaga majburan qoʻshib olinishi natijasda Turkiston maʼmuriyati harbiy va boshqarish ishlarini yaxshi yoʻlga qoʻyish maqsadida erli xalqlarning tilini oʻrganishni ham asosiy vazifa qilib qoʻydi. Ana shu vazifa oʻzbek tilini oʻrganishga yordam beruvchi, darslik va qoʻllanmalar yaratishni taqozo qilgan edi.

3. Oʻrta Osiyoning Rossiyaga qoʻshib olinganining dastlabki yilida mayor M. A. Terentevning grammatikasi va xrestomatiyasi nashr etildi. Bu asarlardan soʻng hech bir ilmiy qiymatga ega boʻlmagan, faqat amaliy maqsadni koʻzda tutuvchi maʼlumotnomalar va mustaqil oʻrganish uchun qoʻllanmalar chiqa boshladi. Jumladan, A. Starchevskiy, V. A. Alekseev va A. Vishnegorskiylar qoʻllanmalari nashr etildi. Bu qoʻllanmalar chor hukumati maʼmuriyatining keng koʻlamda ish olib borishiga yordam bermas edi. Shuning uchun Turkiston general-gubernatori 1906 yilda maxsus buyruq chiqarib, unda harbiy-maʼmuriy xoʻjalik sohasidagi amaldorlar oʻzbek tilini oʻrganishi kerakligi koʻrsatiladi.

Buyruqda olgʻa surilgan fikrlardan soʻng matbuot sahifalarida munozara boshlanadi. Munozaralarning natijasi va qiziqishlar yana eng sodda grammatika, qoʻllanmalar tuzish bilan chegaralanadi. Yuqorida eslatib oʻtilgan qoʻllanmalardan tashqari, M. Andreev, L. Zimin, Qiyosbekov, L. Afanasev, N. Smolevskiy, S. A. Lapin, M. Preobrajenskiy qabillarining oʻzbek tiliga bagʻishlangan asarlari nashr etiladi. Ularning koʻpchiligida hali ilmiy dalillar yetishmas edi.

Shuning uchun akademik K.K.Zaleman A.Alekseevning «Samouchiteli»ni tanqid qilib: «Kimki, biror-bir turkiy tilning samouchitelini tuzmoqchi boʻlsa avvalo «Oltoy tili grammatikasi» bilan tanishib chiqsin» degan edi.

1905—1917 yillar davrida ona tili darsliklari ham tuziladi. Bu darsliklar birinchi marta tovush usuli asosida tuzilib, ular ham ozmi koʻpmi oʻzbek adabiy tilining normallashtirishiga va boshlangʻich maktabning eng oddiy talabini qondirishga xizmat qilar edi. Bundan tashqari, boshlangʻich snflar uchun oʻqish kitoblari ham chiqarilgan.

1914—1915 yillarda H.H.Niyoziyning «Yengil adabiyot», «Qiroat kitobi», «Oʻqish kitobi» nomlari ostida pedagogik mazmundagi kitoblari maydonga kelgan.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» (1918), «Adabiyot va milliy sheʼrlar», «Birinchi muallim» (1912), «Ikkinchi muallim» (1915), «Gulistoni maktab» (1917) nomli asarlari nashr etiladi. Bu kabi badiiy va taʼlim-tarbiyaviy asarlar hamda publitsistik maqolalarda rus va umuman dunyo xalqlari madaniyati, ilmu fani, maktab va maorifi ulugʻlanib, xalqni ilmi, madaniyatli boʻlishga chaqiriladi.

1912 yilda M.Faxriddinovning birinchi sinflar uchun «Rahbari avval», Abdurazzoq Namanganiyning «Tahsilul alifbo» nomli kitoblari chiqdi.

Alifbo kitoblari bilan birga, boshqa maqsadlardagi kitoblar ham nashr etildi. Masalan, Namanganda Ishoqxonning «Jomiul Xutun» (1912), Toshkentda Qori Muhammadning «Toʻgʻri yozish» (1915) kitoblari nashr qilinadi.

Bu ancha sodda darslik va kitoblarda, asosan, ona tilining sofligiga eʼtibor berilgan. Abdulla Avloniy bu haqda: «Alifbo sof va oson turkiston lahjasi tilida yozilgan» deb yozadi. Bu darslik va qoʻllanmalarda gʻarbiy turkiy til unsurlari oshib-toshib yotar edi. Masalan: *Maktab sizi inson qilur* («Ikkinchi muallim»)

Do'stlarning biri darxol yugurib daraxt ustiga chikmish («Ikkinchi muallim»). Qo'y qadam ilm uyina, tumor, marjonni unut («Adabiyot»).

O'zbek adabiy tilining sho'ro davridagi taraqqiyoti va uning fonetik tizimidagi o'zgarishlar, Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili eski o'zbek adabiy tilining tarixan ishlangan va hozirgi talabga moslashgan shaklidir.

Sho'ro hokimiyati yillarida o'zbek xalqi «shaklan milliy», «mazmunan sotsialistik» madaniyatni rivojlantirish uchun kurashdi. Xalq xo'jaligi va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar milliy tillar oldiga yangi vazifalar qo'ydi. O'zbek adabiy tiliga davr taqozosi bilan yangi tushunchalarni anglatuvchi so'z va iboralar kirib keldi, uning grammatik qurilishi yangi shakllar bilan to'ldirildi.

Sho'ro davrida o'zbek adabiy tilida yuz bergan o'zgarishlarni uning fonetikasi, leksikasi, grammatikasda, orfografiyasi, uslubiyatida ham ko'rish mumkin. Bu davrda o'zbek tili fonetikasida ro'y bergan o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

a) unli va undoshlar sistemasida: *i, a, o*, unililaridagi farqli holat; *l, r* undoshlarida yumshoqlik (palatilizatsiya) hodisasining yuz berishi; *v, f*, tovushlari *lab-lab, lab-tish, j, dj* tovushlarining sirg'aluvchi, qorishiq sifatida farqlanayotganligida ko'rinadi;

b) rus tilining ba'zi o'ziga xos tovushlari talaffuz normalariga mos holda o'zbek tiliga kirib keldi. Masalan, *i* unlisi, *t s, u* undosh tovushlari;

v) sngarmonizm funksional jihatdan cheklandi va yo'q bo'ldi. Masalan: Muqimiy va Furqat asarlarida ayrim so'zlardagi affikslarning sngarmonizm talabiga asosan yozilishini uchratamiz: *kechtuk, o'run, o'pushib o'tub, o'num* kabi;

g) urg'u tizimida o'zgarish yuz berdi. O'zbek tilida urg'u bog'liq urg'u hisoblanadi. Rus tili ta'sirida o'zbek tilida erkin urg'u ham paydo bo'ldi: *oblast, ruchka, leksiya* (urg'u birinchi bo'g'inda), *programma, raketa* (urg'u ikkinchi bo'g'inda) kabi.

O'zbek tili fonetikasida dastlabki yillardayoq paydo bo'layotgan o'zgarishlar ma'lum darajada yozuvni takomillashtirishni taqozo etardi. «Madaniy qoloqlik»ni tugatish va barcha xalqlarni sotsialistik qurilishga jalb etish zarurligi yozuv bilan bog'liq masalalarni tez hal qilishni talab etdi.

Ma'lumki, o'zbek xalqi bir necha asr mobaynida arab yozuvidan foydalanib kelgan. Inqilobning dastlabki yillarida boshqa yozuvga o'tish uchun ommaviy zaruriyat tug'ilmagan edi. Chunki arab yozuvi o'zbek xalqining ongiga chuqur singib ketgan va bu yozuvda o'zbek xalqining ma'lum mumtoz adabiyoti yaratilgan edi. Shu sababli yozuv sohasidagi vazifa o'zbek tilining xususyatlarini hisobga olgan holda arab yozuvini takomillashtirish, soddalashtirish tarzidagina o'qilishi mumkin bo'ldi. Bu vazifa 1922 yilda amalga oshirildi va u yozuvni takomillashtirish yo'lidagi birinchi qadam qo'yildi. Bu tadbir o'zbek xalqining madaniy jihatdan yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Sho'ro ijtimoiy va davlat tuzumi sharoitida o'zbek xalqining iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tezda mavjud yozuvni takomillashtirish yozuv masalasini to'la hal etmasligini va lotin yozuviga o'tish zarurligini ko'rsatdi. Natijada 1929 yilda lotin yozuviga o'tildi. Lotin yozuviga o'tish «madaniy inqilob»ni tayyorlash va amalga oshirishda muayyan rol o'ynadi. Bu yozuvni takomillashtirishdagi ikkinchi qadam bo'ldi. Lotin yozuvi ham uchinchi qadamni qo'yishgacha o'zgartirildi. 1929 yilda 9 unlili tizim asosida olingan yozuvga 1934 yilda jiddiy o'zgarishlar kiritildi. Ayrim unllilarni ifodalovchi harflar, tovushlar qisqartirildi va imlo qoidalari yangidan tuzildi.

Bularning hammasini uchinchi qadamni qo'yish, ya'ni rus grafikasi asosidagi yozuvga o'tish uchun shart-sharoitlar tayyorladi. Natijada 1940 yilning may oyidan boshlab o'zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasiga (kirilcha yozuvga asoslangan) yangi yozuv tizimiga ko'chirildi. Shu tariqa bu tadbir o'zbek xalqi madaniyatining tezroq «yuksalishi»ga, «ravnaq topishi»ga yordam beradi, deb hisoblandi. Lekin bu tadbir orqasida sho'ro tuzumining qanday maqsadi yashiringani keyinchalik ma'lum bo'ldi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'zbek xalqi adabiy tili taraqqiyotining so'nggi davriga tavsif bering:


a) XIX asrning 60-yillaridan 1905 yillargacha bo'lgan adabiyot?

b) 1905 yildan inqilobgacha bo'lgan davrga tavsif?


2. Bu davr o'zbek xalq adabiy tilining boyish manbalari nimalardan iborat? Misollar orqali izohlang.

3. Bu davr o'zbek adabiy tiliga qaysi uslublar kirib keldi?


A.K. Borovkov fikricha, 1905-1917 yillardagi o'zbek adabiy tili «aralash til» edi.



G'arbiy-turkiy unsurlar o'sha davr adabiyoti va matbuoti tilida uzoq vaqt saqlanib qoldi



Adabiy tilga g'arbiy-turkiy morfologik unsurlar ham uchraydi



Davr adabiy tiliga kirgan sheva unsurlari

Toshkentda chiqadigan matbuot asarlari tilida Toshkent shevasi xysusiyatlari uchraydi.	<i>Ketvatkan</i> («Taraqqiy», № 52,17.VI.1906); <i>Kazax uruslar kelayatdilar</i> («Taraqqiy», № 9,16.XII.1906);
Bunga qarama-qarshi Samarqanddagi nashrlarda va bu yerlik mualliflarning asarlarida bir qator shu shevadan kirgan so'zlar va shakllarni (qaratqich va tushum kelishiklari uchun -ni affiksi) uchratamiz.	<i>Muni sababi, bizlarni o'qimaganimizdir</i> (Behbudiy, «Padarkush»); <i>Xalqni ko'zi</i> (shu asar);
Jo'nalish va o'rin-payt kelishigida -ga (-ka) affiksi ishlatiladi:	<i>Boyvachcha usuli jadid maktabidami o'qiydir, yoki eski maktabga Uyni bir tarafiga sanduq Boy yotir karavat ustiga uyquda ("Padarkush")</i>
Rus tili unsurlari, asosan, jonli so'zlashuv shaklida kirib kelgan.	<i>qiziq va interesni hodisa emish.</i> («Padarkush»).

13- mavzu	MILLIY ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIY TILI
-----------	--

1.1.Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 60 - 90 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi:	1. Milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor. 2. Istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar. 3. Istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari. 4. Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor, istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar, istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari, istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
- milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor haqida ma'lumot berish; - istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqida tushuntirish; - istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlarini tahlil etish; - istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish;	- milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor haqida ma'lumotga ega bo'ladi; - istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi; - istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi; - istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari haqida bilib oladi;
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni yechish, aqliy hujum, klaster
O'qitish vositalari	Proyektor, slaydlar
O'qitish shakli	Individual, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proyektor va kompyuter bilan ta'minlangan auditoriya

1.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsadi va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar, yozib oladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar. 2.2. Eng faol talabalar rag'batlantiriladi.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	Quyidagi savol bilan murojaat qiladi: 3.1. Milliy istiqlol davri qachondan boshlangan? 3.2. Milliy istiqlol davrida o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor haqida ma'lumot beradi. 3.3. Istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqida tushuncha beradi. 3.4. Istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlarini tahlil etadi. 3.5. Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari haqidagi bilimlarni shakllantirish.	3.1. Milliy istiqlol davri to'g'risidagi ma'lumotlarni sanaydilar. 3.2. Yozib oladilar. 3.3. Yangi o'zbek adabiy tilidagi orfoepik va orfografik me'yorlar haqidagi nazariy fikrlarni yozib oladi. 3.4. Istiqlol davrida tilda paydo bo'lgan eski va yangi qatlam so'zlarini yozib oladilar. 3.5. Istiqlol yillarida yaratilgan asarlarning til xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni yozib oladilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etganlarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustahkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshriqlarni yozib oladilar.

13-Milliy istiqlol davri o'zbek adabiy tili

Reja:

1. Yangi o'zbek adabiy tilida orfoepik me'yorlar.
2. Yangi o'zbek adabiy tilida orfografik me'yorlar.
3. Yangi o'zbek adabiy tilida tinish belgilarining ishlatilishi.

O'zbek milliy adabiy tili, uning tashkil topishi, taraqqiyot bosqichlarini o'zida aks ettirgan tildir. Yangi o'zbek adabiy tili shu tilning yaratuvchisi bo'lgan o'zbek xalqining tarixi, uning qo'lga kiritgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, fan va texnika sohalarida qo'lga kiritgan olamshumul yutuqlari bilan bog'liq bog'liq. Shuningdek yangi o'zbek adabiy tili o'zbek tilshunosligida qo'lga kiritgan yutuqlar bilan umumlashtirilib, sistemaga solingan, me'yorlashtirilgan mukammal til sanaladi. Yangi o'zbek adabiy tili o'zbek tilining ta'rifi, uning rivojlanish bosqichlari, sovet davridagi taraqqiyoti, shuningdek, milliy adabiy tilmizning fonetik sistemasi, grafikasi, uning lug'at boyligi, material strukturasi, so'z yasash yo'llari va grammatik qurilishi, punktuasiyasi haqidagi bilimlar bilan qurolantirilgan. Har bir yuksak madaniyatli kishi to'g'ri yoza bilishi va to'g'ri so'zlay olishi kerak. Bu talab bo'lg'usi pedagoglar va filologlarga nisbatan qat'iy qo'yiladi. Ma'lumki, nutqning og'zaki va yozma shakllari mavjud. Bular, texnik jihati, talaffuz va ta'sir etish xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Nutqning ana shunday ko'rinishlaridan biri - yozma nutq (yozuv bilan fikrni ifodalash ifodalash vositasi) orfografiya bilan bevosita bog'likdir. Orfografiya so'zi grekcha orfhos va grapho so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «to'g'ri yozaman» degan ma'noni anglatadi. So'zning o'zaklari va unga qo'shiladigan affikslarning, qisqartma otlarning to'g'ri yozilishini, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning qo'shib yoki ajratib yozilishini, bosh harflar va ularning ishlatilishi o'rnini, bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma'lumot beruvchi fan orfografiyadir. Nutqning bu ko'rinishi yagona tarzda yozishning ma'lum ilmiy va ob'ektiv qonun-qoidalari sistemasi bo'lgan orfografiya va uning prinsiplariga asoslanadi: fonetik prinsip, morfologik prinsip va tarixiy tradision prinsip. Bulardan tashkari, differensial va tasviriy-etimologik prinsiplar ham mavjud.

1. Fonetik prinsip. Shevalar va ayrim individlar (shaxslar)ning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og'zaki nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilishi natijasida so'z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko'p o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu xilma-xilliklar hammasi ham orfografiyada o'z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni ta'minlab bo'lmas edi, natijada yozuvda sistemalilik va bir xillik o'rnini turli xarakterdagi xilma-xillik, hatto chakashlik egallagan bo'lar edi. YOzuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanab o'tilgan uchta asosiy (umuman olganda beshta) prinsipi joriy qilindi. Bulardan fonetik prinsipga asosan so'zlar nutq jarayonida fonetik jihatdan qanday eshitilsa, xuddi shunday qilib yoziladi. Ma'lumki, fonemalar mustaqil ma'noni anglatuvchi so'zlarni vujudga keltirishda muhim vazifani bajaradi. Chunki fonemalarning asosiy vazifasi ham so'z ma'nolarini farqlash uchun xizmat qilishdir. So'z tarkibidagi nutq tovushlarining yozuvda maxsus grafik shakl orqali eshitisiga qarab, sistemaga solib berilishi **fonetik prinsip** deb yuritladi. Fonetik prinsipga asosan adabiy talaffuzda so'z kanday fonemalardan tashkil topgan bo'lsa, bu fonemalar yozuvda tegashli harflar bilan aks ettiriladi. Masalan, adabiy tilda jo'nalish kelishigining asosiy formasi *-ga* shaklida qabul qilingan. Ba'zan bu forma *-ka*, *-qa* tarzida eshitisiladi va shu tarzda yoziladi (boqqa, go'dakka kabi). Bu hol so'zning fonetik prinsip asosida qo'llanishiga kiradi. Avvalo shuni aytish kerakki, hozirgi o'zbek orfografiyasida fonetik prinsipga juda kam amal qilinadi. Masalan, adabiy tildagi tutdi va tushgan so'zlaridagi *d* tovushning *t* tarzida, *g* tovushning *k* tarzida talaffuz etilishidan qat'iy nazar, bu tovushlar *d* va *g* harflari orqali beriladi. Ba'zan talaffuzda so'z oxirida ikki undosh yonma-yon kelganda, so'nggi *d* yoki *t* undoshi tushib qoladi. Masalan, *xursand*, *bahramand*, *qasd*, *past*, *Toshkent*, *Samarqand* so'zlaridagi so'nggi *t* va *d* talaffuzda tushib qashishiga qaramasdan, yozuvda ular saqlanadi, ya'ni qabul qilingan orfografik qoida bo'yicha yoziladi. Bu misollar amaldagi o'zbek orfografiyasida fonetik prinsipning nisbatan kuchsiz qo'llanishini ko'rsatadi.

2. Morfologik prinsip. Morfologik prinsipga ko'ra tildagi affikslar yoki morfemalar nutkda **qanday** aytilsa, yozuvda ham shunday yozilishi kerak. So'z o'zagiga qo'shiluvchi morfemalarning yozuvda to'liq yoki qisman bir sistema asosida aks ettirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish **morfologik prinsip** deyiladi. Hozirgi o'zbek orfografiyasida morfologik prinsip keng qo'llanadi. Masalan, og'zaki adabiy nutqimizda *-lar* affiksining kamida ikkita (til oldi va til orqa: echkilar, qo'ylar) varianti uchraydi,

baʼzan hatto bu variantlar burun tovushlaridan keyin sonorlashib, yana ikkita yangi forma kasb etishi mumkin (olinglar, kelinglar). Lekin shunga qaramay, adabiy orfografiyamizda qabul qilingan morfologik prinsipga muvofiq *-lar* hamma holatda ham faqat bir formada yoziladi. SHuningdek, infinitivning asosiy formasi boʻlgan *-moq* affiksi ogʻzaki nutqimizda ikki formada (yumshoq va qattiq variantda: kelmok, bormoq) qoʻllanishiga qaramasdan yozuvda bir formada *-moq* tarzida yoziladi. Kelishik formalari haqida xam xuddi shunday fikrni aytish mumkin. Umumiy qoidadan mustasno tarzida uchraydigan misollar soni koʻp emas. Masalan, joʻnalish kelishigining asosiy formasi *-ga* tarzida yozilishiga qaramasdan oxiri *q, k, gʻ, g* tovushlari bilan tugagan baʼzi soʻzlarda bu forma ogʻzaki nutqdagi *-k, a, ka* tarzda (bokxa, elakka, oʻroqqa kabi) qoʻllanadi. Hozirgi orfografiya talabi boʻyicha affikslarning hammasi morfologik prinsip asosida yoziladi. Masalan, egalik affikslari: *-m (im), -ng (ing), -si (i), -miz (miz), -ngaz (ingiz)*; kelishik affikslari: *-ning, -ni, -da, -dan*; kesimlik affikslari: *-man, -san, -miz, -siz*; shaxs va zamonni koʻrsatuvchi hamda soʻz yasovchi affikslar ogʻzaki nutkda qanday aytilishidan qati nazar, imloda oʻzining bir xil morfologik formasini saqlagan holda yozilaveradi.

3. Tarixiy-tradision prinsip. Oʻzbek xalqning yozuvi tarixida koʻpgina soʻz va iboralar borki, ogʻzaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qatʼiy nazar, ularning yozilishida maʼlum tradisiyaga amal qilinadi. Soʻzlarning hozirgi talaffuz normasiga mos kelmaydigan, qadidan oʻzlashib qolgan formada yozilishi orfografiyaning tarixiy-tradision prinsipini tashkil etadi. Boshqacha aytganda, tarixiy-tradision prinsipga asosan soʻzlar hozirgi holatiga koʻra emas, balki anʼana tusiga kirib qolgan qoidaga koʻra yoziladi: CHora Rossiyasi, pudratchi, fahm, rahm kabi. Hozirgi oʻzbek orfografiyasida morfologik prinsip bilan bir qatorda tarixiy-tradision prinsip ham juda keng qoʻllaniladi. Bu hol oʻzbek yozuvi va oʻzbek yozuv adabiy tili juda qadimdan boy tradisiyalarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Hozirgi orfografiyada tarixiy-tradision prinsip asosida yoziluvchi baʼzi formalar va soʻzlarni izohlaymiz va misollar bilan keltiramiz.

1. Buyruq-istak mayli eski adabiyotimizda qoʻllanib kelgan tradisiyaga koʻra sheʼriyat va proza tilida baʼzan —*gil* // —*gʻil* tarzida ishlatiladi: *borgil//borgʻil*.

Bas, etar, cholguvchi, bas qil sozingni. Bas, etar koʻksimga urmagil xanjar... (A. Oripov.)

2. Hozirgi oʻzbek adabiy til va shevalarda maqsad maʼnosini anglatuvchi *-gani* formasi oʻrnida eski oʻzbek adabiy tilida *-gali, -gʻali, -kali* formalari qoʻllangan. Bular baʼzan hozirgi oʻzbek adabiy tilimizda ham oʻsha formada uchray turadi: *Koʻrgali xusningni zoru mubtalo boʻldum senga.* (Navoiy.) YOki: *Koʻrgali keldingmi, yor, kuydirgali keldingmi, yor.* (Qoʻshiqdan.)

3. Hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi yasovchi *-r (-ar)*ning *-ur* formasi ham klassik adabiyot tilida koʻplab ishlatilgan. Bu forma baʼzan hozirgi yozuv sifatida ham oʻsha holicha qoʻllanadi:

Yulduzlar oʻtiga bardosh berurman,

Fazolar taftiga **qilurman** toqat. (A. Oripov.)

Qururmiz zoʻr kanallar, baxtimizdek ul ravon boʻlsin. (A. Poʻlat.)

Sening-chun, ey gʻaribim, ich-ichimdan boʻzlagaydurman. (A. Oripov.)

4. Eski oʻzbek tilida chiqish kelishigi formasi *-din* boʻlgan. Bu forma hozirgi oʻzbek adabiy tildagi chiqish kelishigi formasi *-dan* oʻrnida hozir ham baʼzan ishlatiladi: *Sevar yorim qaydin galding.* (Xorazm xalq qoʻshigʻi.)

5. *-mi* yuklamasi oʻzbek tilida baʼzan *-mu* tarzida qoʻllangan. U holat hozirgi adabiy tilda ham kuzatiladi:

Sevgini tortib boʻlurmu

Toshu torozu bilan. (E. Vohidov.)

Yorning men tortmagan jabru jafosi koldimu. (Bobir.)

Goʻzal jonon, sogʻindingmu. (P. Moʻmin.)

Qora qoshing oy yuzingda hilol emasmu. (A. Poʻlat.)

6. Hozirgi adabiy tilimizda orfografik norma sifatida qoʻllanuvchi chorizm soʻzi va chor Rossiyasi birikmasi tilimizga Oktyabr inqilobi arafasida kirib kelgan boʻlib, oʻsha davr ogʻzaki nutk tradisiyasiga muvofiq *s* oʻrniga *ch* qoʻllanib keladi. Bu soʻzlar ruscha sarizm soʻzi va Sarskaya Rossiya birikmasining oʻzbek tili talaffuziga

moslashtirib qo'llanilishi natijasida yuzaga kelgan.

4. Differensiasiyalash prinsipi. Bu prinsipga asosan og'zaki nutkda yoki talaffuzda bir-biridan aniq farqlanmaydigan yoki o'zaro farqlari deyarli sezilmaydigan darajaga kelib qolgan so'zlar yozuvda maxsus qoida bilan ajratilib yoziladi. Yozuv va imloni tartibga solish maksadida ilgari og'zaki nutkda deyarli bir xil aytilib kelingan ba'zi so'zlar, formalar yoki affikslarni yozuvda bir-biridan farqlash uchun odatda differensiasiyalash metodidan foydalaniladi. Boshqa tillardagi kabi o'zbek tilida ham bu metoddan kam foydalaniladi. Bu prinsipning qo'llanishini quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

1. Ma'lumki revolyusiyaga qadar arab yozuvi bilan ish ko'rgan davrda *-lik* va *-li* affikslari yozuvda deyarli differensiasiya qilinmay qo'llanar edi. Bu hol 1956 yilga qadar davom etib keldi. Masalan, *-lik* affiksi asosan shahar aholisi nutqida, *-li* affiksi esa qipchoq shevalari vakillari va umuman shishloq aholisi nutqida qo'llanardi. Bunda har ikki affiksning egalilik va tegishlilik ma'nolari farqlanmas edi. 1956 yildan boshlab adabiy orfografiyamizda ularni farqlab qo'llashga o'tildi: tegishlilik ma'nosini ifodalashda *-lik* affiksi (masalan: shaharlik, qishloqlik, toshkentlik, andijonlik), ega ekanlik ma'nosida *-li* affiksi qo'llana boshlandi (otli, to'ntli, uyli, joyli, savodli). Buning natijasida yozuvda va umuman imlodan anchagina tartiblilik va saranjomlikka erishildi.

5. Etimologik yoki grafik prinsip. So'zlarni etimologik yoki grafik prinsip asosida yozish deyilganda ularning qaysi xalqling tilidan yoki grafikasidan olingan bo'lsa, o'sha qadimgi etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish tushuniladi. Masalan, O'rta Osiyoning boshqa xalqlari kabi o'zbek xalqi ham arablar istilosidan keyin ming yilcha yozuv ishlarini arab grafikasi asosida yuritib keldi. Dastlabki davrlarda arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, shuningdek, o'zbek tilining o'z so'zlari ham to'liq arabcha belgilar va qoidalar asosida yozilgan. Keyinchalik mahalliy tillarining xususiyatlari qisman hisobga olingan holda arab yozuvi ma'lum darajada isloh qilingan. Lekin shunda ham mahalliy xalqdan arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarni aslan qanday yozilgan va talaffuz qilingan bo'lsa, xuddi shunday talaffuz qilish va yozish ko'p hollarda talab qilingan. Bu hol imlo qoidalarini o'zlashtirish va savod chiqarishni juda og'irlashtirib yuborganligi ustiga mahalliy tillarning affiksasiya imkoniyatlarini ham kamaytirib yuborgan. Masalan, o'zbek tilining ayrim shevalarida til oldi va til orqa unlilarini farqlash imkoniyatlarining aralashib ketishi bilan birgalikda til oddi va til orqa affikslarining variantlarini farqlash ham ko'p hollarda aralashtirib yuborilgan. Hozirgi o'zbek yozma adabiy til va o'zbek imlosida ayrim arabcha va forscha so'zlarni ularning qadimgi, asl holatiga moslab yozish (masalan, *A'zam*, *va'da*, *a'lo*, *she'r* kabi) davom etib kelmoqda. Arabcha so'zlarni yozishda esa revolyusiyaga shadar va undan keyingi davrlarda ham mahalliy xalqlar xuddi arab tilida bo'lgani singari sod va zodlarni bir-biridan farqlab yozishigan (holbuki, o'zbekcha so'zlarni yozishda til oldi *o'*, *k*, *i* ga o'xshash maxsus tovushlarni farqlash hisobga olinmagan). *A'zam*, *she'r*, *Navoiy*, *Lutfiy* singari so'zlarning yozilishi hozirgi o'zbek imlosida etimologik yoki grafik prinsipning amalda qisman qo'llanib kelayotganligidan dalolat beradi.

O'zbek orfoepiyasining normalari. Orfoepiyada og'zaki nutq talaffuzi asosiy rol o'ynaydi. Talaffuzni belgilashda esa, tovushlarning to'g'ri aytilishi ahamiyatlidir. O'zbek tili orfoepiyasining nomalarini belgilashda fonetikaning, ayrim tovushlari talaffuzi qonuniyatlarining roli kattadir. Ana shunday qoidaga kirib qolgan xususiyatlar asosan quyidagilardan iboratdir.

1. b undoshi bilan tugaydigan *oftob*, *kitob*, *adab*, *maqta'*, *Tolib*, *hisob* kabi so'zlarning oxiri o'zbek tilining deyarli hamma shevalarida *p* tarzda talaffuz qilinadi va bu hol orfoepiya uchun normal hodisa hisoblanadi. Lekin bu so'zlarning oxiriga egalik affiksi yoki bir xil unli tovush qo'shilishi bilan *p* tovushi yana *b* tarzida talaffuz qilinadi: *kitobi*, *maktabi*. Xuddi shunga o'xshash *b* tovushining so'z oxirida *p* tarzda talaffuz qilinishi borib, kelib, aytib singari ravishdoshlarda ham uchraydi.

2. Og'zaki nutqda va deyarli barcha o'zbek shevalarida *uchta* so'zi *ushta*, *uch* so'm so'zi— *usso'm*, *besht* so'm so'zi— *besso'm*, *quchdi* so'zi— *qushdi*, *echdi* so'zi— *eshdi*, *izsiz* so'zi— *issiz*, *yuzsiz* so'zi— *yussiz* tarzda talaffuz qilinadi va bunday talaffuz qilish adabiy orfoepiyaning umumiy normasidan chekinish bo'lmaydi. Lekin, *oshni* o'rnida *oshshi*, *ishni* o'rnida *ishshi*, *yuzni* o'rnida *yuzzi*, *qorni* o'rnida *qorri* tipidagi ayrim talaffuzlar va *o'rda*, *sho'rda*, *o'tta*, *sho'tta*, *aqqa*, *baqqa* kabi formalar orfoepiyaning umumiy nomasiga kirmaydi. Chunki bunday qo'llash ko'pchilik shevalarga xos bo'lganligi uchun umumxalq tilining talaffuzini aks ettirmaydi. Ikkinchidan, ular og'zaki nutqda har xillikni ko'paytiradi.

3. *Samarqand*, *xursand*, *dard*, *baland*, *band*, *go'sht*, *past* singari so'zlarning oxirida *d* tovushining nutqimizda

jarangsizlashib, *t* tarzda talffuz qilinishini yoki shu tipdagi soʻzlarning baʼzilarida soʻz oxiridagi *d* yoki *t* undoshining ogʻzaki nutqda tamoman tushib qolishini (xursan, Samarqan, goʻsh, pas singari) ixchamlikka intilish nuqtai nazaridan, tilimiz tabiatini hisobga olgan holda va tradisiyaga aylanib qolishini nazarda tutib, orfoepiya normasiga mos keladi, deyish mumkin.

4. Ogʻzaki nutqda *boʻlsa, kelsa, boʻlgan, kelgan* singari soʻzlar talaffuzida *l* tovushini koʻpincha tushirib qoldirish ham adabiy orfoepiya normasiga aylanib qolgan. *Opti, boʻpti, qopdi, borarkan, kelarkan, ovor, qoʻyvor* kabi soʻzlarning ogʻzaki soʻzlarning ogʻzaki nutkda talaffuzi ham shu xodisaga kiradi.

5. *Buncha— muncha, bundan— mundan* tipdagi soʻzlarning adabiy nutqimizda parallel ishlatilishi ham adabiy orfoepiyaning normasiga zid emas. *Tanbur* soʻzining *tambur* tarzida, *Sunbula* soʻzining *sumbula* tarzida talaffuz qilinishi ham orfoepiya normasidan chekinish boʻlmaydi.


b.*Chiroq, oyoq, yongʻoq, yaproq* tipdagi soʻzlarning oxiridagi *k* tovushini *gʻ* tarzida talaffuz qilish tilimizdagi shu soʻzlarning asli holiga toʻgʻri kelmaganidek, oʻzbek tilining tabiatiga ham toʻgʻri kelmaydi. SHuning uchun ham yuqoridagi soʻzlar oxiridagi *k* tovushini oʻzining orfografik holatini saqlagan holda ogʻzaki nutqda xam *q* tarzida talaffuz qilish maqsadga muvofiqdir. Ayni vaqtda bu hol orfoepiya bilan orfografiyaning birligini saqlash uchun xizmat qiladi.

7. Hozirgi yozuvimizda bir xil yoziluvchi ayrim soʻzlar ham borki, ularning ogʻzaki talaffuzi farq qiladi va bu farqni nutkda aralashtirish yaramaydi. Masalan, Ravshan va tavsiya soʻzlaridagi *v* tovush ogʻzaki nutqda *u* ga yaqin kelib lab-lab *v* tarzda talaffuz etilmogʻi lozim. Bu soʻzlardagi *v* ni *f* ga aylantirib talaffuz qilish hozirgi orfoepiyaning normasidan chekinishga olib keladi.


REJA:



Orfografiya va uning tamoyillari



Milliy istiqlol davri o'zbek adabiy tilidagi o'zgarishlar



Adabiyotlar

1. A.Yu. Yakubovskiy «K voprosu ob etnogeneza uzbekskogo naroda» T ; .1941
2. A.K.Borovkov. «Alisher Navoiy kak osnovopolojenik uzbekskogo literaturnogo yazika», sb. Alisher Navoiy M-L, 1946
3. A.K.Borovkov «Badoe-ul-lug'at», M, 1961
4. S.E.Malov. «Mir Alisher Navoi i istoriya tyurskix literatur i yazikov sredney i Sentarlnoy Azii», M-L, 1974
5. K.K. Yudaxin . «Materiali k voprosu o zvukovom sostave chagatayskogo yazika», «Kul'tura i pis'mennost' Vostoka», KN. IV, Baku, 1920
6. A.Usmanov. «Muhokamatul-ul-lug'atayn» Alisher Navoi, T. 1948
7. A.M. Sherbak. «Grammatika starouzbekskogo yazika», M-L, 1962.
8. A.M.Sherbak. «K istorii obrazovaniya uzbekskogo nasional'nogo yazika», VYA, 1954, 6.
9. A.N.Kononov. «Alisher Navoi. Vzlyublennix serdes», M-L, 1948.
10. A.K.Borovkov. «Senniy istochnik dlya istoriya uzbekskogo yazika», Izvestiya ANSSSR, OLYA, t.USH, v'sh. 1, M-L, 1949
11. A.K.Borovkov «Ocherki istorii uzbekskogo yazika», Sovetskoye Vostokovedeniya, VI, 1949.
12. A.K. Borovkov. «Iz materialov dlya istorii uzbekskogo yazika», Tyurkologicheskiy sbornik, I, M, 1951.
13. F.B.Blagova. «Nekotorim voprosom razvitiya srednevekovogo sredneaziyatskogo literaturnogo yazika», sovetetskaya tgorkologiya, Baku, 1974,
14. E.R.Teneshev. «K istorii uzbekskogo yazika», sb. statey Akademiku V.A.Gordlevskomu k ego semidesyati letiyu, M, 1953.
15. A.K.Borovkov. «Uzbekskiy literaturniy yazik v period1905-1917gg « . T, 1940
16. E.I.Fozilov. «Qadimgi obidalar va Alisher Navoiy tili», T, 1969.
17. Navoiy va adabiy ta'sir masalasi to'plami, T, 1968.
18. U.Tursunov, B.O'rinboev, A. Aliev. O'zbek adabiy tili tarixi. T, 1995.
19. Q.Karimov. «Ilk badiiy doston». T. 1980.
20. A. Aliev, K. Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. -T., 1994.
21. J. Muxtorov, U. Sanaqulov. O'zbek adabiy tili tarixi.-T., 1995.

«O'zbek adabiy tili tarixi» fanidan kollokvium savollari

1. «O'zbek adabiy tili tarixi» fani nimani o'rganadi?
2. O'zbek tili tarixiga oid qanday adabiy manbalarni bilasiz?
3. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari deganda nimani tushunasiz?
4. O'zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til, qadimgi yozuvlar.
5. O'zbek adabiy tili va eski turkiy til yozuv yodgorliklari.
6. Adabiy til shakllari nimalardan iborat?
7. Eski turkiy adabiy tilning tayanch dialekti masalasi.
8. «Devoni lug'otut turk» asari tili xususiyatlari.
9. «Qutadg'u bilig» asarida adabiy til me'yor masalasi.
10. «Hibatul haqoyiq» asarida adabiy til me'yori masalasi.
11. Oltoy nazariyasiga kim asos solgan?
12. Chigillarning eski turkiy adabiy tilning shakllanishida tutugan o'rni.
13. d' dialektiga xos xususiyatlar nimada.
14. y dialektiga xos xususiyatlar nimadan iborat?
